



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ЎZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

2020-yil. 2-son

ISSN 2010-5584



LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@uamail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@uamail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@uamail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@uamail.uz www.tilvaadabiyot.uz

Shavkat MIRZIYOYEV:

Abdulla Qodiriy ijod maktabida o'qiyotgan bu bolalar yangi O'zbekistonning kelajagi bunyodkorlaridir. Barcha umumta'lim maktablari ushbu o'quv dargohidan ma'naviyatni, ma'rifatni o'rganishi lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan bolalar nafaqat ma'naviyatli, balki o'z vatanini yurakdan sevuvchi iste'dod egalari. Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilganmiz.



Ushbu sonda



Metodik tavsiya
O'quv lug'ati qanday
lug'at?

6
bet



Dars – muqaddas
Iskandar – adolatli shoh

14
bet



Tahlil
Ma'naviy kamolot ramzi

30
bet



Литературный
календарь
«Белый свет»
творчества А.П.Чехова

70
bet

KELAJAK BUNYODKORLARI MAKTABI

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi va muzeyiga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekan, ta'lim dargohida o'qiyotgan o'quvchilarning kelajagiga katta umid bog'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda farmoyishi bilan tashkil etilgan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'zbek tili va adabiyotini, badiiy ijod sirlarini chuqur o'rganishga ixtisoslashgan.

Joriy o'quv yilida maktabning 5-, 6-, 7- va 8-sinflariga ijodiy imtihonlar va test sinovlari asosida 121 nafar o'quvchi saralab olindi. Bu yerda o'g'il-qizlarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. O'zgacha uslubda qurilgan bino. Keng va yorug' xonalar. Fan kabinetlari zamonaviy texnologiyalar va o'quv anjomlari bilan ta'minlangan. Ochiq va yopiq sport zallari o'quvchilar xizmatida...

Abdulla Qodiriy ijod maktabi bilan yaqindan tanishish maqsadida muassasaning direktori, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Nilufar Yo'ldosheva bilan suhbatlashdik.



– Bugungi kunda respublikamizda 9 ta ijod maktabi tashkil etilgan. Jumladan, Namanganda Ibrat, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Farg'onda Erkin Vohidov ijod maktablari o'z yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib bormoqda. Muassasaning shu turdagi boshqa maktablardan farqli jihati to'xtalsangiz.

– Maktab Prezidentimizning 2019-yil 9-sentabrdagi farmoniga ko'ra “Abdulla Qodiriy ijod maktabi” deb belgilangan. Yuqorida ko'rsatilgan maktablar ixtisosligi bo'yicha esa ona tili va adabiyot maktabi deb belgilangan. Mana shundan kelib chiqadiki, maktabimizdagi ijodkor o'quvchilar nafaqat ona tili va

adabiyot fani, balki san'atning boshqa turlarida faoliyat olib borishlari cheklanmagan.

Bugungi kunda o'quvchilarga 32 nafar malakali pedagog xodimlar, jumladan, olimlar, metodistlar, zamona-mizning eng yetuk ziyolilaridan tashkil topgan jamoa dars berib kelmoqda. Ular orasida “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” ko'rik-tanlovi g'oliblari, oliy toifali va tajribali o'qituvchilar bilan bir qatorda yangi fikr, yangi g'oya, yangi ta'lim texnologiyalarini maktab ta'lim tizimiga olib kira oladigan yosh o'qituvchilar ham jalb qilingan. Maktab rahbari sifatida ikkilamchi fanlar, ya'ni matematika, fizika, kimyo fanlari kesimida ham respublika bo'yicha olimpiada g'olibi bo'lgan o'qituvchilarni tanlashga katta e'tibor qaratganman.

Bundan tashqari ijod maktabimizda filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh.Rizayev, qodiriyshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor B.Karimov, pedagogika fanlari doktori, professor Q.Yo'ldoshev kabi olimlar mahorat mashg'ulotlari orqali yosh ijodkorlarga saboq bermoqdalar.

– Davlatimiz rahbari ijod maktabiga tashrifi chog'ida, aynan bu yerda A.Qodiriy, A.Oripov, E.Vohidov izdoshlari, ular singari adabiyotni teran his qila oladigan, so'zning mazmun-mohiyati, qudratini anglay oladigan o'quvchilar ta'lim va tarbiya ko'rishlari kerak. Biz ertaga mana shu maktabning bitiruvchilari orasidan yangi O'zbekistonning kelajak bunyodkorlarini kutamiz, degan fikrlarni aytib o'tdilar...

– Badiiy adabiyot va ijod sohalariga qiziqadigan, iqtidorli yoshlar iste'dodini yanada rivojlantirish uchun tegishli sharoitlar yaratib berishga harakat qilmoqdamiz. Mana shundan kelib chiqqan holda biz ta'lim sifatiga birinchi ko'rsatkich sifatida qaradik. O'quvchilarga barcha sohalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar berish bosh maqsadimizga aylangan. Aytishim mumkinki, ijod maktabimizga tanlab olingan o'quvchilarning barchasi juda ham iqtidorli. Ular orasida tasviriy san'atni mukammal egallagan va o'zi adabiyot bilan bir qatorda mo'yqalam sehrini ko'rsatib bera oladigan, sportni san'at darajasiga ko'targan, chet tillarni yaxshi biladigan, qolaversa, she'r, hikoya, ertaklar yozadigan haqiqiy ijodkor talantlarimiz ko'p. Ular sportning dzyudo, karate, o'zbek jang san'ati bo'yicha Toshkent shahar, O'zbekiston, Osiyo chempionligini qo'lga kiritganlar. Biz doimo pedagogik jamoamiz bilan dars jarayonlari, to'garak mashg'ulotlari asnosida o'quvchilarning murg'ak qalblaridagi iste'dodlarni yuzaga chiqarishga intilamiz. Ijod kunida o'tiladigan masha'ulotlarda esse, taassurotlar va badiivalar vozdirish orali ularning ichki va tashqi dunvosini

(Davomi muqovaning 3-betida)

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 2-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 25.02.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" garniturasi. 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi. Buyurtma 33. Adadi 4350 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Samixon ASHIRBOYEV. O'zbek tili ta'limi metodikasining ayrim dolzarb masalalari	3
Bashorat BARRIDDINOVA. O'quv lug'ati qanday lug'at?	6
Gulbahor RAHIMOVA, Muhayyo VAFOYEVA. Alisher Navoiy g'azalida frazemalar	8
Shahnoza RAHIMOVA. Ingliz idiomalari tarjimasida milliy va tarixiy o'ziga xoslik masalasi	10

DARS - MUQADDAS

Nozima QORABOYEVA. Undalmalar uslubiyati	12
Nasiba BOZOROVA. Iskandar - adolatli shoh	14
Adiba BEKCHANOVA. Qaroqlarda qotgan ikki tomchi yosh	17
Shodiyor PO'LATOV, Muhayyo HAMIDOVA. Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol!	19

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nurjamol NORMATOVA. Og'zaki nutqni rivojlantirishda "Hamkorlikda ishlash" texnologiyasi	21
---	----

TAHLIL

Botir TOJIBOYEV. "O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)" materiallarining lingvistik tahlili	23
Abdumurod NOMODOV. Matndagi iboralarni aniqlash va ularning xususiyatlarini yozma izohlashga o'quvchilarni o'rgatish	25
Zuhra NOSIROVA. XX asr yapon nasri tendensiyalari	27
Gavharoy ISMOILOVA. Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sifil" romanida ramz va psixologik tasvir	28
Bahodir JOVLIYEV. Ma'naviy kamolot ramzi	30

TADQIQOTLAR

Behzod TURNIAZOV. Kauzal ma'noning klassik davrda o'rganilishi	32
Umida RASHIDOVA. O'zbek tilida somatik frazeologik sinonimlarning uslubiy tarmoqlanishi xususida	35
Dilnoza MAMIROVA. Reklama matnlarida segment qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlari	37

KICHIK TADQIQOT

Zarif QUVONOV. Tabarruk izlar izidan	39
Alijon SAFAROV. Qizil askarlar gazetasi nega o'zbekchadan saboq bergan?	41
Jamoliddin YOQUBOV. "Masnaviy"ning ma'naviy maxzani	43
Nilufar RAXMATOVA. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida yashil rang talqini	44
Sayyora XALDARCHAYEVA. Ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchi fe'llarning kategorial semantikasi	45

TAVSIYA

Abdunazar JO'RAYEV. Bo'lajak gid-tarjimonlarning lingvo-professional kompetensiyasini shakllantirish	48
--	----

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Наргиза НАСЫРОВА. Интегрированный урок русского языка и музыки	49
Насиба НИЯЗОВА. Использование страноведческих текстов при обучении русскому языку студентов-юристов	51
Дилдора ТОЛИПОВА. Методика работы с текстами при обучении русскому языку студентов юридических специальностей	53

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Фахриддин АБДУРАХМАНОВ. Семантический и синтаксический анализ падежных значений в русском и узбекском языках в аспекте дистрибутивно-трансформационной грамматики	55
Камила ХАСАНОВА. Этнографизмы, обозначающие узбекские реалии в текстах английского языка	56

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Майя ЭМ. Типологические основы фразеологических единиц в кратком немецко-иноязычном фразеологическом словаре (КНИФС)	59
--	----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Нодира УСМАНОВА. Реальность и миф в творчестве Чингиза Айтматова и Тимура Пулатова	60
Агата ОСИПОВА. Функционирование типов «условного» и «реального» авторского начала в современном русском рассказе	61

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Ирина ПАНФЕРОВА. Реализация современных научно-методических направлений подготовки педагогических кадров	63
Татьяна ПОЛОВИНКИНА. Изучение романа Дины Рубиной «На солнечной стороне улицы»	66

ЛИТЕРАТУРНЫЙ КАЛЕНДАРЬ

Наталья ПЕТРУХИНА. «Белый свет» творчества А.П.Чехова	70
---	----

ПАМЯТИ ПОЭТА

Гульнора МАНСУРОВА, Ирода САЙДАЛИЕВА. Хамид Алимджан и Зульфия	72
--	----

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Наргиза НЕМАТОВА. Социокультурный компонент - основа формирования социокультурной компетенции	74
Малика ПАРПИЕВА. О проблемах переводов медицинской терминологии	76

ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ

Нилуфар МУЛЛАХУНОВА. Создание условий для билингвизма как феномена современности	78
--	----



► Joriy yilning 8-fevral kuni “Turkiston” san’at saroyida mumtoz adabiyotimizning buyuk shoiri Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 537 yilligiga bag’ishlangan “Jondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz” deb nomlangan “Nazm va navo kechasi” bo’lib o’tdi.




► O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan joriy yilning fevral–mart oylarida “5 tashabbus Navro’zda” festival-tanlovi o‘tkaziladi.

► Xalq ta’limi vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz, Jizzax viloyati boshqarmasi bilan hamkorlikda malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari vakillari, tayanch maktab direktorlari, aniq, tabiiy, ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti fanlari, boshlang‘ich ta’lim metod birlashmasi rahbarlari, fan metodistlari uchun seminar tashkil qilindi.

► Surxondaryo viloyati, Denov tumanida maktab o‘quvchilari o‘rtasida “Biz Al-Xorazmiy izdoshlarimiz” ko‘rik-tanlovi tashkil qilindi. Tanlovning maktab bosqichi tumandagi barcha maktablarning 2 – 4-va 5 – 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi.


► Kuni kecha Jizzax shahridagi 14-maktabda o‘quvchilarning bilim va salohiyatini interaktiv usullarda sinovchi innovatsion olimpiadaga start berildi. Unda har bir tumandan kuchli o‘ntalikka kirgan o‘quvchilar aniq, tabiiy va gumanitar fanlardan bellashadilar.



► O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Xorazm viloyati bo‘limida shoir va dramaturg, adib Qurbon Muhammadrizo qalamiga mansub “Abu Rayhon Beruniy” trilogiyasining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



► O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi 2019-yilgi “Birinci kitobim” loyihasida 22 nafar yosh ijodkorning 19 nomdagi birinchi kitoblarini chop etdi.



► Jizzax viloyati G‘allaorol tumanidagi 73-maktabda Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kuni munosabati bilan “Fazilatlarini bisyor va hisobsiz” mavzusida konferensiya o‘tkazildi.

Dilfuza TURDIEVA, Zamira Mo‘minova
G‘allaorol tumanidagi 73-umumta’lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari tayyorladi.



Samixon ASHIRBOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori

O'ZBEK TILI TA'LIMI METODIKASINING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi, lekin ular qanchalik uzoq tarixni bosib o'tmasin, ta'lim metodikalari ilmi har bir davrning talablari va istiqboli uchun xizmat qiladi. Bu jarayon barcha o'quv fanlarida, shu bilan birga o'zbek tilini o'qitishda ham namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda axborot ochiqligi sharoitida boshqa fanlar bilan bir qatorda o'zbek tilini belgilangan standartlar darajasida o'qitish, yangilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishda ham qator muammolar kelib chiqadi. Axborot tizimlarida berilayotgan axborotlar, fanda ilgari surilayotgan turli qarashlarni saralab olish pedagogdan, ilmiy xodimdan katta kuch va vaqt sarflashni talab etmoqda. Bunday sharoitda ishlash va o'qish yana murakkablashadi. Shuning uchun o'zbek tili metodikasi sohasidagi tadqiqotlar ham o'z mazmun rejasini o'zgartirishi va innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi muhim.

Ta'kidlash joizki, hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar natijalari (sifatidan qat'i nazar) o'tmishga xizmat qilgan va hozirgi jarayonlarda ularning o'rni saqlanib turibdi. Bu ishlarning aksariyatida mavjud holat o'rganilgan, ya'ni ularda amalda bo'lgan ta'lim jarayoni tahlil qilingan va qator tavsiyalar berish bilan chegralanilgan. Shunga qaramasdan, o'zbek tilini o'qitish bo'yicha muayyan tajribalar to'plangan. Endilikda esa ilmiy tadqiqotlar innovatsiyaga asoslangan bo'lishi shart bo'lib qolmoqda. Ta'limda innovatsiya masalasining ko'tarilganiga yigirma yildan oshgan bo'lsa-da, bu sohada jiddiy tadqiqotlar ko'zga tashlanmayapti. Shundan kelib chiqqan holda biz quyida o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ular bilan bog'liqlikda tashkiliy ishlar olib borilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni belgilashga harakat qildik:

1. Ta'lim bosqichlari bo'yicha o'zbek tili mazmuni, uni o'qitish va o'zlashtirishga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligini o'rganish. Hozirgi o'rnatilgan malaka talablari hech bir ilmiy tadqiqotning natijasi emas, balki bir guruh olimlarimizning qarashi hamda qardosh respublikalar standartlari tajribasi hisobga olingan umumlashmalardir. Kichik tahlil o'tkazamiz. "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari"da boshlang'ich sinf o'quvchisi (sinf ko'rsatilmagan, ehtimol, dasturlarda farqlangandir) bir daqiqada 80–90 ta so'zni o'qiy olishi, 75–80 ta so'zdan iborat diktant yozishi, 5–9-sinflarda bir daqiqada 120–130 so'zni o'qishi, 12–13 ta gapdan iborat matn tuzishi qoidalashtirilgan. Lekin bu raqamlar qaysi bir ilmiy tadqiqotning natijasi ekanligi noma'lum. Boringki, uni qoida sifatida qabul qilaylik. Bu raqamlarning o'zbek tili bilimlarini egallashga qanday aloqasi bo'lishi mum-

kin? Aslida bu kabi raqamlar qotib qolgan bo'lishi kerak emas, balki bolaning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni bolaning yoshi hisobga olinib, unga qancha miqdordagi bilimlarni berish mumkinligi e'tiborga olingan standart talablar o'rnatilishi lozim. Hozirgi standart talablar "kattalarning talablari" bo'lib qolmoqda. Demak, *o'zbek tili va adabiyoti metodikasi bo'yicha mutaxassislarimiz oldida, axborotlar oqimi sharoitida, bolalarimizning kun sayin saviyasi oshib borishi hisobga olingan mobil standart talablarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borish majburiyati paydo bo'ladi.*

2. Sinflar kesimida o'zbek tili mazmuni uzviylikini ta'minlash bo'yicha ham tadqiqotlarga talab mavjud. Rus maktablaridagi o'zbek tili mazmuni uzviylik, qay darajada sifatli bajarilganligidan qat'i nazar, maxsus o'rganilgan, lekin o'zbek maktablari bo'yicha bunday ishlar amalga oshirilganicha yo'q. Boshlang'ich sinflarda *ona tili mazmuni uzviylik jiddiy o'rganilishi* kerak. Bizga ma'lum bo'lgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, 3-sinf ona tili materiallari 4-sinfga qaraganda axborotning ko'pligi bilan murakkab. Demak, uzviylik buzilgan. O'zbek maktablaridagi bolalarning o'zbek tili bo'yicha bilim olishlarida anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligi ma'lum. Ayniqsa, boshlang'ich sinf va 5-sinf uzviylikida muammolar ko'p.

3. Darsliklarda nazariy materiallarning berilishi. Maktab o'quvchisi 5-sinfga o'tgach, unga avvalgi bilimlari deyarli kerak bo'lmay qolmoqda. Qolaversa, 5-sinfda qanday til bilimlarini berish kerakligi masalasi yangicha fikrlashni talab qiladi. Darslikda hatto oliy ta'lim talabalari ham tushunishda qiynaladigan ta'riflar bor. Jumladan, darslikda "*Ohang va fikr tugalligiga ega*

bo'lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanadigan so'z va so'zlar qo'shilmasi gap deyiladi", degan ta'rif beriladi.¹ Bu ta'rifdagi "ohang va fikr tugalligi", "kesimlik shakllari", "so'zlar qo'shilmasi" tushunchalarini 5-sinf bolasi his qila olmaydi, balki bu ta'rif bolaning yoshiga moslashtirilishi yoki u 8-, 9-sinflarga ko'chirilishi lozim. Shunda ham "so'z qo'shilmasi" birikmasi ilmiy ahamiyat kasb etmaydi, oqibatda o'quvchilar uni quruq yod olishlariga to'g'ri keladi. Buni keltirishdan maqsad bu va boshqa sinflarda tilning nazariy qoidalari va ularni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan amaliy materiallarni muallif aniq tadqiqot natijasiga ko'ra tanlash amaliyotini joriy etish va ularning, keyinchalik, o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtira olayotganligi doimiy eksperiment qilinishi zarurligini ta'kidlashdir.

Demak, metodik tadqiqotlarimiz sinflar kesimida til materiallarining bola yoshiga mos kelishini tajribadan o'tkazish asosida uni amaliyotga tatbiq qilishga qaratilishi lozim.

4. Mamlakatimizda yuksak saviyali filolog olimlarimiz yetarli. Darslik yozish ishini, amaliyotda ko'ringanidek, faqat nazariyachi olimlarga topshirib qo'yishni ham o'ylab ko'rish vaqti yetdi. Darslik yaratish ishini ham nazariyachi olim, ham bevosita maktab ta'limida ilg'or bo'lgan, ilmiy fantaziyaga ega amaliyotchi o'qituvchi hamkorligiga topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishda, avvalo, 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan ona tili mazmuni va uning uzviyligini ta'minlashga qaratilgan konsepsiya, uning standartlari, dasturlari hamda ularning natijasi sifatida darslik hamda o'qituvchilar uchun didaktik materiallar qo'llanmasini yaratuvchi nisbatan kattagina ijodiy guruhning shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Bu guruh sinflar kesimidagi darsliklarning uzviyligini ta'minlash loyihasi (prospekti)ni ishlab chiqishi, so'ng darslik yozish ular orasida taqsimlanishini tashkil etishi kerak. Ana shundaygina ta'lim sifatini ta'minlashga qadam qo'yiladi, uzviyligi ta'minlanadi.

5. Avval ta'kidlaganimizdek, darsliklarning yaratilishi to'raligicha kafedra va bo'limlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasiga asoslanishi shart. Bunga tayanch ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan "O'zbek tili va adabiyoti darsliklarini yaratish laboratoriyasi" xazinasini xizmat qilishi lozim. Bunday laboratoriya Respublikamizda yo'q, lekin uni tashkil etish o'ta dolzarb. Bu laboratoriya o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha tarixda yaratilgan barcha nashrlar va innovatsiyaga asoslangan xorij maktab darsliklarini o'z xazinasiga yig'ishi va ularning materiallari tasdiqlangan (albat, ta, tanlovdan o'tgan) mualliflarga foydalanish uchun taqdim etilishi kerak. Bu bilan darsliklardagi an'anaviylik, ijodiylik hamda novatorlik ta'minlangan bo'ladi. Shu munosabat bilan pedagogik ilmiy-tadqiqot ishi uchun "O'zbek tili o'quv adabiyotlari mazmuni: ilmiy-tanqidiy konsepsiya va rivojlanish tamoyillari" mavzusini tavsiya etgan bo'lar edik.

Darsliklar ekspertizasini tashkil etishdagi an'anaviy tizimga ham zudlik bilan chek qo'yilishi davr talabi bo'lib turibdi. Boshqacha aytganda, darsliklarni taqrizdan

o'tkazishning hozirgi tizimi o'zini oqlamaydi. U rasmiyatchilikka aylanib bo'ldi, to'g'rirog'i, soxta taqrizlar uyushtirilmoqda. Endilikda uni jiddiy isloh qilish vaqti yetdi, ya'ni maktab darsliklarini ekspertiza qilishning yangi tartibini joriy etish zarur. Buning uchun tayyorlangan darslik loyihalarini maktab o'qituvchilarining o'zi tomonidan sinovdan o'tkazish tizimini yaratish va uning natijasiga ko'ra chop qilish maqsadga muvofiq. Shunisi quvonchlikki, *har bir viloyat va tumanlarda o'z faoliyatini innovatsiyaga asoslangan holda tashkil etadigan o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari bor*. Har bir darslik loyihasi Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlardagi novator o'qituvchilarga kamida bir yil davomida sinash va ularning tegishli fikr-mulohazalarini olish uchun rasman topshirilishi lozim. O'z ishiga sidqidildan yondashadigan bunday o'qituvchilar bu masalada hech qanday "bo'shliq"qa yo'l qo'ymaydilar.

Darsliklarning yaratilishi va chop qilinishi bilan bog'liq nostandart taklif. Endilikda darsliklarni tayyorlash va nashr qilish ishi bilan **nodavlat nashriyot tizimi** shug'ullanishi ko'p jihatdan ma'qul ish bo'lar edi. Buning o'ziga yarasha ko'p ijobiy tomonlari bor. Ma'lumki, darslik yaratilishiga hozirgi davrda vazirlik ham buyurtmachi, ham iste'molchi, ham uning himoyachisi hisoblanadi. Bu esa ayni o'rinda u tanqidchilarni yoqtirmaydi, degani hamdir, chunki mahsulot bosilib chiqqach, vazirlikning himoyasiga o'tadi. Bizningcha, endi vazirlik faqat buyurtmachi va iste'molchi bo'lib qolishi kerak. Buning uchun vazirlik darslik masalasi bilan shug'ullanishni o'z boshidan soqit qilishi lozim. Darsliklar, umuman, o'quv adabiyotlarini nashr qilish bilan shunday nodavlat tashkiloti shug'ullanishi kerakki, ular darslikka bo'lgan ehtiyojni o'rganish, tanlov tashkil qilish asosida mualliflarni o'zlari jalb qilishlari, barcha moliyaviy masalalarni ham o'zlari hal qilishlari, darslikning sinalishi va amaliyligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bora olishlari kerak. Bu bilan darslik zamonaviyligi, jahon standartlariga muvofiqligi, eng ilg'or fikr, metod va texnologiyalarda yoritilganligi bilan barcha talablarga javob bersin, vazirlik va uning quyi tashkilotlari darsliklarning sifatiga bemaol o'z talablarini qo'ya olsin, balki hozirgidek muayyan doira ichida ishlamasin. Dastlabki davrda, ehtimol, nodavlat va davlat tashkilotlari raqobati tashkil etilar, qanday bo'lmasin, o'quv adabiyotlari sifati ta'minlanishi va u erkin tanqid qilina olishi davr talabi bo'lib turibdi. To'g'ri, hozirgi "o'zbekchilik"ka qaramay, oz bo'lsa-da, tanqidiy maqolalar chiqmoqda.

Eng muhimi, bunday nodavlat nashriyoti o'zining intellektual qudratiga ega bo'lishi va jahon tajribalarini sintez qila oladigan mutaxassislardan tashkil topishi kerak. Masalaning ikkinchi tomoni O'zbekiston Respublikasida bu tashkilotga mos kadrlarni topib, joy-joyiga qo'yishdir.

Yana bir masala. Darsliklarda mualliflar familiyasi va ismining ko'rsatilishini ham o'ylab ko'rish kerak. To'g'ri, ularga *mualliflik hujjatlari* berilishi shart, bu hujjat ularning o'z ish joylaridagi salohiyati uchun zarur. Darsliklarda ular nomlarining ko'rsatilmaligi darslik to'g'risida mutaxassislarining sinov davrida va

keyinchalik ham, erkin fikr bildirish imkoniyatini amalga oshirgan bo'lar edi, chunki darslikda ulkan daraja va unvonlarga ega bo'lgan shaxslar nomlarining turishi har qanday mutaxassisni fikr bildirishdan o'zini tiyishga majbur qiladi. Buni dastlab muqobilik asosida yaratilgan darsliklarga joriy etish mumkin.

6. Metod va texnologiyalarni tanlash masalasi. Ta'lim jarayonining sifati ko'p jihatdan o'qitish metod va texnologiyalarini to'g'ri tanlashga bog'liqligi metodistlarimiz tomonidan e'tirof etib kelinmoqda, lekin o'quv jarayonini qaysi metod/texnologiyalarda tashkil etish masalasida ehtiyotkorlik zarur. Vatanimiz va xorijda ishlab chiqilgan har qanday metod/texnologiyalardan sidirg'asiga foydalanish kutilgan natijani beravermaydi, qolaversa, o'quvchilar faqat tajriba maydoni bo'lib qolmasligi ham kerak. Agar har bir darsning betakrorligi va uning boshqaruvchisi saviyasining o'ziga xosligini hisobga olsak, o'qituvchiga metod/texnologiyalarni tanlash bo'yicha erkinlik berish va uning samaradorligini nazorat qilish lozim bo'ladi xolos. Bu o'rinda biz xorijda ishlab chiqilgan texnologiyalarni to'g'ridan to'g'ri o'quv jarayonida qo'llamagani uchun o'qituvchiga dashnom berilmasligi to'g'risida fikr yuritmoqdamiz. Pedagogik, psixologik va metodik aqidamiz bo'yicha har bir dars ijod namunasini ekan, har qanday metod/texnologiyalarni aynan ko'chirishga yo'l qo'yish mumkin emas. Ta'kidlash lozimki, metod/texnologiyani tanlashda keng imkoniyatlardan foydalanish zarur, lekin fan, mavzu xarakteri, pedagogning u yoki bu metod/texnologiyalarga simpatiyasi, mavjud metodik baza va boshqa omillarni hisobga olish zaruriyatini ham unutmash kerak. *Boshqacha aytganda, har bir pedagogning o'z sevgan, uning tomonidan takomillashtirilgan va undan samara oladigan metod/texnologiyalari bo'lishi hozirgi kun talablari bo'lishi lozim.* Shunday usulda ishlayotgan pedagoglarimiz soni yetarlicha. Tan olish kerak, xorijdan kirib kelayotgan turli metod/texnologiyalar keti uzilmayapti. Biz ta'lim sifatini an'anaviy metod/texnologiyalar, ilg'or pedagoglarimizning tajribalarini yig'ishtirib qo'yib, faqat xorijgagina qarab mo'ljal oladigan bo'lsak, shakllangan o'zbek tili ta'limi tizimimizni inkor etgan bo'lamiz. *To'g'ri, ilg'or xorij tajribalarini milliy lashtirish zarur, lekin bu an'anaviy ta'limni chetlab o'tish degani emas, balki o'zlashtirilayotgan metod/texnologiyalar an'anaviy ta'limga muqobil sifatida xizmat qilishi kerak.*²

Yana ta'kidlash o'rinliki, ta'lim metodikalarini o'zgartirish to'g'risida turli ko'rsatmalarni berish bilan ta'lim sifatini ta'minlashda hech qachon ekspressiya yuz bermaydi, balki ta'lim metodikalari natijasi muayyan muddatlardan keyin namoyon bo'ladi, binobarin, ta'limda xorij metodikasini o'zbek tili ta'limiga tatbiq etilishi

uchun u adaptatsion davrni o'tashi ham zarur. *Istar edikki, har qanday yangi metod/texnologiyalarning (Vatanimiz yoxud xorijiy) ilg'orligi aniqlansa, uni ijodiy qayta ishlash yo'li bilan o'zlashtirish lozim, aks holda ta'lim metodikalarimizda taraqqiyot bo'lmaydi.*

7. O'quvchi nutqini tarbiyalash. Sir emaski, rus maktabida o'qiyotgan bolalarning og'zaki nutqi o'zbek sinflarida o'qiyotgan bolalarga nisbatan silliq, o'z fikrini aytishda ham nisbatan erkin. Ayniqsa, o'zbek bolalarimiz kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan (do'stlari, oila a'zolarining tug'ilgan kuni, bayramlar munosabati bilan aytiladigan) rasmiy uslubdagi nutqi ham shakllanmagan. Shu munosabat bilan ushbu masalada, ya'ni o'quvchilar nutqini rivojlantirish masalasida bir qator mamlakatlar tajribasini o'rganish juda ham zarur. Qolaversa, maktablarimizda adabiy nutq bilan bir qatorda so'zlashuv nutqini mashqlarda aks ettirish hamda uning metodikasini yaratish zarurati mavjud. Buni hatto birinchi sinfdan boshlab o'rgatishga kirishish ham kerak. Aslida ona tili fanining vazifasi faqat yozma nutqigina emas, balki o'quvchilarning maktab davri va butun hayotida zarur bo'ladigan og'zaki nutqini shakllantirish deb qaralishi kerak. Bu maktab ona tili darslarida og'zaki nutqqa e'tibor qaratilmayapti degani ham emas. Bunda biz og'zaki nutqni yozma nutq namunasida emas, balki so'zlashuv nutqi shaklida rivojlantirishni nazarda tutmoqdamiz.

8. Darslikda nazariy va amaliy materiallar, ya'ni mashqlarni joylashtirishda autentik materiallardan ham foydalanish kerak. Bunda nazariy materiallarni mustahkamlashda nazariy materialning o'zidan mashq sifatida foydalanish ko'zda tutilmoqda. Bunday amaliyot aslida amalda bor, lekin unda faqat bog'lanishli matnlar olinmoqda. Bunga qo'shimcha qilib biz muayyan sinfdan o'rganilayotgan nazariy masalalar mavzulariga doir tushuncha ishtirok etgan gaplarni mashqlarda keltirib borishni tavsiya qilgan bo'lar edik. Bu ish amalga oshiriladigan bo'lsa, nazariy materiallarni o'zlashtirishda ikki tadbir bir vaqtda bajarilgan bo'ladi, ya'ni u ham mashqda nazariy qoidaga misol vazifasini o'taydi, ham nazariy materialni eslatib turadi.

O'zbek tilining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishini amaliylashtirish, uzviyligini ta'minlash hamda bu boradagi ilmiy-metodik muammolarni hal qilish, o'ylaymizki, katta munozara va yechimlarni kutib turibdi. Uning birdan bir hal qilinish yo'li ta'lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish, yangicha fikrlash, ilg'or tajribalarni milliy lashtirish va ona tili ta'limining ilmiy tadqiqotlarini yangi pog'onaga ko'tarishdir.

¹ N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, Z.Jo'raboyeva. Ona tili. – Toshkent, 2011. 19–20-betlar.

² B.Xodjayev. Oliy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish: muammo va yechimlar // Pedagogik ta'lim, 2013. 2-son. 29–30-betlar.



Bashorat BARRIDDINOVA,
 Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi,
 filologiya fanlari nomzodi

O'QUV LUG'ATI QANDAY LUG'AT?

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat taraqqiyotidagi har bir davr til ta'limi va tilshunoslik zimmasiga muayyan ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Xususan, mamlakatimizda o'tgan asrning boshlarida ona tili ta'limi oldiga ommani yoppasiga savodxon qilish talabi qo'yilgan bo'lsa, o'rtalariga kelib adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish, fanning bu boradagi yutuqlarini amaliyotga joriy etish va ommalashtirish vazifasi qo'yilgan edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida: "...Ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlari, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish" bo'yicha dolzarb ijtimoiy vazifalarning qo'yilishi, qolaversa, yosh avlodni ma'naviy barkamol, hozirjavob, mustaqil fikrli, izlanuvchan, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o'quv lug'atlariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.



O'quv lug'atchiligi paydo bo'lgandan buyon leksikograflarni uning alohida leksikografik janr sifatida ajratib turadigan xususiyati, tasnifiy belgilari masalasi qiziqtirib kelgan. Aksariyat nazariyotchilar o'quv lug'atini akademik lug'atlarga qarama-qarshi qo'yadi. Biroq S.G.Barxudarov aytganidek, bu ikki tipdagi lug'atni bir-biridan keskin ajratib bo'lmaydi. Ular bir-birini taqozo qiladi. Masalan, akademik izohli lug'at – o'quv izohli lug'at, ideografik lug'at – mavzuviy o'quv lug'at, katta sinonimlar lug'ati – sinonimlar o'quv lug'ati kabi. O'z tabiatiga ko'ra o'quv lug'ati (darslik, qo'llanmalardan farqli o'laroq) tilni u yoki bu darajada biladigan foydalanuvchilar uchun shunday bir maxsus o'quv vositasi bo'lishi kerakki, u maksimal darajada o'quv maqsadini qoniqtira olishi, ammo shu tipdagi katta lug'atni takrorlamasligi lozim. Shunga ko'ra quyidagilar o'quv lug'atlarini xarakterlovchi eng muhim belgilar sanaladi:

1. Ta'lim jarayoniga yo'nalganlik (o'quv maqsadi). O'quv lug'atlari o'quv jarayoni bilan aloqador bo'lib, o'quv kompleksining bir bo'lagi hisoblanadi. Lug'at foydalanuvchining uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida tahsil olishi, yoshi, shu bosqich o'quv rejasida mavjud fanlar va ularning dasturiga muvofiq qilib tuziladi, darslikka yordamchi vosita hisoblanadi. Darslik singari o'quv lug'atining kimga mo'ljallangani – adresati (foydalanuvchisi) aniq bo'ladi. Lug'at muqovasi yoki titil varag'ida "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun", "5–7 yoshli bolalar uchun", "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun", "6–9-sinf o'quvchilari uchun", "Yuqori sinflar uchun", "Oliy o'quv yurti talabalari uchun" kabi foydalanuvchilar chegarasi aniq ko'rsatiladi.

2. Hajman chegaralanganlik. Cheklangan hajmda katta maqsadni oldiga qo'yish o'quv lug'atlarining e'tirof etilgan xarakterli belgilaridan biri hisoblanadi. Hali o'quv leksikografiyasi nazariyasi to'la shakllanmagan davrlarda ham kichik lug'atlar mavjud bo'lib, ularning hajmi mutaxassislarining diqqatini tortib kelgan. Katta lug'atlar esa boshlovchilar (til o'rganuvchilar, ta'limning quyi bosqichidagi o'quvchilar – B.B.) uchun noqulaylikni keltirib chiqaradi, chunki katta lug'atdan kerakli so'zni qidirib topish ancha vaqtni oladi.

Keyinchalik o'quv lug'atchiligining nazariy asoslari shakllantirish jarayonida hajm masalasi kun tartibiga jiddiy qo'yildi. S.G.Barxudarov va L.A.Novikovning "So'zlikni tanlash va o'quv lug'atlari hajmi" deb nomlangan maqolasida lug'at turidan kelib chiqib o'quv lug'atlari 3000 dan 50 000 tagacha so'zni qamrab olishi mumkinligi aytiladi. Maqolada R.M.Bakaya lug'at so'zligi miqdori bu tipdagi lug'atlarda 2800, A.F.Kolesnikova 3000 atrofida bo'lishini, D.E.Rozental 9000–12000, V.G.Gak 8000–10000, B.A.Lapidus 10000–11000 so'zdan iborat bo'lishi, S.G.Barxudarov va L.A.Novikov esa o'quv izohli lug'at, B.A.Lapidus retseptiv tipdagi asosiy ikki tilli o'quv lug'atlari so'zligi 25000 tagacha so'zdan iborat bo'lishi, P.N.Denisov o'quv izohli lug'at so'zligining optimal miqdori 50 000 gacha bo'lishi mumkinligini ta'kidlashi aytib o'tiladi.

Maqola mualliflari jahon o'quv leksikografiyasi amaliyotida katta o'quv lug'atlari so'zligi miqdori 25 000 tagacha so'zni sig'dira olishi kuzatilishini aytib o'tishadi. S.G.Barxudarov va L.A.Novikov o'quv lug'ati faqat kichik yoshdagi bolalar uchun emas, oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun ham yaratilishi, qolaversa, tarjima lug'atlar, izohli lug'atlarni hajman chegaralash lug'at-

dan amaliy foydalanish samaradorligini kamaytirishini ta'kidlashadi va so'zlikning hajmiga ko'ra o'quv lug'atlarining quyidagi tiplarini ajratishni taklif qiladi:

1) kichik lug'atlar – aniq foydalanuvchi (adresat) va qat'iy belgilangan vazifalarga asoslangan maxsus lug'atlar (3000 ta so'z);

2) o'rta lug'atlar – retseptiv va produktiv xarakterdagi so'zlik miqdori o'rtacha bo'lgan lug'atlar (10 000 ta so'z);

3) katta o'quv lug'atlari – so'zlik hajmi 25 000 tagacha bo'lgan lug'atlar;

4) katta hajmli lug'atlar – so'zlik 50 000 va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan lug'atlar.²

Bugungi kunda jahon o'quv lug'atchiligi xazinasida mavjud seriyali mashhur o'quv lug'atlarining hajman kattalashib borayotgani P.N.Denisovning fikriga qo'shilishimizga asos bo'la oladi.

3. Aniqlik, soddalik va tushunarlilik. O'quv lug'ati maqolalarining tuzilishi, jumalarning soddalik, aniq va tushunarlilik, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos so'zlar, eng zarur ma'lumotlarni qamrab olishi, izohlarning so'zning eng muhim qirrasini aniqlashga qaratilganligi, maqsadga aniq yo'naltirilganligi, foydalanish uchun qulayligi bilan ham boshqa turdagi lug'atlardan farqlanadi. O'quvchi lug'atni qo'lga olgandayoq nimaga mo'ljallangani, undan qanday ma'lumotni izlash mumkinligi hamda foydalanish yo'llarini bilishi lozim.

4. Dizayn (estetik didga moslik). O'quv lug'atining tavsifiy belgilaridan biri maqsadli ravishda yetarli va zaruriy bezaklar – rasmlar, qo'shimcha materiallar bilan boyitilishidir. Uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'ini uchun mo'ljallanganidan kelib chiqib harf o'lchami (kichik yoshdagi bolalar uchun yaratilgan lug'atlarda harf o'lchami 16–18 atrofida bo'ladi, harflarning bejirim shaklidan foydalaniladi), rangli, rasmlilik bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, muqovaning bezagi, rangi ham bola diqqatini tortadigan darajada bo'ladi. So'zlikda leksikografik simvolikaga kam yo'l qo'yiladi.

Uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari uchun yaratilgan lug'atlar foydalanuvchining qaysi bosqichda ekanligidan kelib chiqib jiddiylashib boradi.

5. Qo'shimcha ilovalar. O'quv lug'atlarining o'quv uslubiy qurilmasi lug'atdagi ma'lumotlarga munosabat bildirishga jalb qiluvchi qo'shimcha savollar tizimi, leksikografik belgilarning soddalik izohi, diqqatni tortadigan no'anaviy usullarda tuzilgan lug'at bilan ishlash mashqlari, testlar, elektron lug'atlarda multimedia, ovoz bilan boyitilishi lozim.

6. Me'yoriylik. Lug'atlarning aksariyati adabiy til me'yorlarini belgilash vazifasini bajaradi. Lug'atning me'yoriyligi shundaki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va uni ishlatish me'yorlari tavsiya etiladi.

Buning uchun so'zlar lug'atga umummilliy adabiy tilga munosabati, unda tutgan o'rni va qo'llanish doirasiga ko'ra tanlab kiritiladi. Lug'atda har bir so'zning maqbul yozilish shakli, o'zlashma so'zlarning kelib chiqishi – etimologiyasi, zarur hollarda, talaffuzi ko'rsatiladi, ma'nosi (yoki ma'nolari) aniqlanadi va izohlanadi, so'zlarning aniqlangan ma'nolari hamda shu ma'nolarda to'g'ri qo'llanilishi o'zbek yozma va og'zaki badiiy adabiyotidan, matbuotdan olingan misollar – iqtiboslar bilan dalillanadi.

Me'yorni o'zlashtirish oson jarayon emas. Sababi me'yoriy o'zgaruvchan kategoriya bo'lib, til me'yorlari ham, tilning o'zi kabi, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq holda o'zgarib, rivojlanib turadi. Bu esa me'yoriy tipdagi o'quv lug'atlari – to'g'ri talaffuz, imlo lug'atlarini yaratishda murakkablikni keltirib chiqaradi. Lug'atning yuzaga kelishi adabiy til me'yorlarini qat'iy, barqaror holga keltirish bilan birga unda uzil-kesil hal etilmagan masalalarni aniqlash va bartaraf etish uchun ham yordam beradi. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, me'yoriy lug'at adabiy til me'yorlarini belgilashga intilar ekan, me'yorlarni abadiylashtirmaydi.

7. Antroposentrik xoslanish. Bugungi kunda o'quv lug'atlariga to'g'ridan to'g'ri antroposentrik lug'atlar deb qaralmoqda. Har qanday lug'at insonning intellektual taraqqiyoti – o'z ona tili va o'zga tillarni o'rganish, so'z boyligini oshirish, tafakkurini o'stirish, tilning mavjud ilmiy me'yorlarini o'zlashtirish, tildan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

O'quv lug'ati ta'lim oluvchining faqat muayyan fan bo'yicha bilimlarini mustahkamlash uchun emas, balki uning shaxs sifatida kamol topishi, nutqi, dunyoqarashini ham shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi; o'quvchining yoshi, ruhiy-psixologik holati, fiziologik rivojlanishi, millati, e'tiqodi, madaniyati, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, o'zi yashayotgan mamlakat tabiati, iqlimi, hayvonot olami, umuman, uni qurshab turgan olam bilan chambarchas bog'lanadi; ta'lim oluvchining ongida ilk yoshidan boshlab olamning lisoniy manzarasini chizishga yordam beradi.

O'quv lug'ati bilan ishlash o'quvchining nafaqat mustaqil fikrlashi va nutqiy savodxonligini o'stiradi, balki unda lug'atlarga bo'lgan qiziqishni orttiradi; umumiy va akademik lug'atlardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Xullas, lug'at o'quvchining har doim yonida bo'la oladigan beminat yordamchisi, so'z zaxirasini boyitadigan manba, to'g'ri yozish, to'g'ri talaffuz, so'z tanlash imkonini beradigan bebaho xazinasidir. Lug'at beradigan bilimni o'quvchi o'qituvchisidan, ota-onasi va boshqa kishilardan so'rab olishi ham mumkin, ammo ularning hech biri bolaning lug'atlar kabi ma'lumotlarga boy doimiy va beminat hamrohi bo'la olmaydi.

¹ O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boyluk, buyuk qadriyatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019-yil, 21-oktabr. <http://uza.uz/oz/politics/>

² Бархударов С.Г., Новиков Л.А. Актуальные проблемы и задачи учебной лексикографии // Русский язык за рубежом, 1975. № 6. – С. 54–58. <https://www.pushkin.institute/science/publikacii/detail.php?ID=19740>

Gulbahor RAHIMOVA,
Muhayyo VAFOYEVA,

Samarqand davlat universiteti o'qituvchilari

ALISHER NAVOIY G'AZALIDA FRAZEMALAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf adabiyot darsligidan o'rin olgan hazrat Alisher Navoiyning "Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalida uning falsafiy-diktik qarashlari aks etgan. G'azalning birinchi baytini o'qigan o'quvchining ko'ngliga "Alisher Navoiydek ulug' bir zot ham insonlarga nisbatan bepisand munosabatda bo'lgan ekanda", degan dastlabki fikr kelishi tabiiy. Biroq g'azalni boshdan oyoq sinchiklab o'qib, uning har bir bayti ma'nosi chuqur tahlil qilinsa, dastlabki taassurotning naqadar jo'nligi shoir shaxsini to'g'ri angalayotmaganlikning boisi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas.
Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas, –

baytida shoir "men istagan" deganida o'zidan-da zuko, bilimdon kishini "o'z suhbatig'a arjumand etmas" deganida esa "arjumand", azizlanmaslik, ya'ni hurmat va izzatga ega bo'lolmaslikni nazarda tutadi, bunday ma'nan yetuk, yuksak salohiyatli kishilarning suhbatiga musharraf bo'lish uchun ulardek ilmga ega bo'lish zarurligini o'quvchiga uqtiradi. Agarda men bilan suhbatlashayotgan kishining dunyoqarashi menikidan yuqori bo'lmasa, uning suhbatidan qoniqmayman, degan fikrni "ko'nglim pisand etmas" iborasi orqali nihoyatda ustalik bilan bayt zamiriga singdirib, ushbu frazemani baytning ikkinchi misrasida qofiya sifatida qo'llaydi. Shu asosda shoir baytning ohangdoshligi, musiqiylikning kuchayishi hamda matla'ning badiiy go'zalligini ta'minlashga erishadi.

She'riy asarlar nasriy asarlarga nisbatan yuksak o'ziga xos g'oyaviy-ekspressiv imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. She'riyatda musiqiylik, ritmning vujudga kelishida iboralarning qo'llanishi ham muhim ahamiyatga ega. Nazarimizda, shoirning ushbu iborani ishlatishdan maqsadi o'z suhbatdoshiga nisbatan ko'nglining pisand etmasligi emas, balki hamsuhbatining dunyoqarashi, his-tuyg'ularining o'ziniki singari emasligini ta'kidlash bo'lgan xolos. Bu yerda shoir o'quvchilarga o'z bilimining qolipida qolib ketmaslik, uni doimiy ravishda oshirib borish zarurligi, shundagina bilimdonlar davrasida e'tirof etilishini ta'kidlamog'da. Xalqimizda "ko'ngli pisand etmaslik" iborasi aslida ko'proq salbiy tarzda ishlatiladi. Alisher Navoiy uhu iborani ijobiy ma'noda qo'llab, bayt mazmunining yanada boyishi hamda o'quvchiga tezroq ta'sir ko'rsatishiga erishgan, desak, yuqoridagi dastlabki tasavvurimiz

o'zgaradi. Chunki hazrat Navoiy shaxsiyatida o'zgalarga nisbatan g'ayri fikrda bo'lish mutlaqo ziddir.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen, bahramand etmas.

Hozirgi adabiy tilimizda "bahra olmoq" frazemasi mavjud bo'lib, bu "manfaat olmoq, foydalanmoq" ma'nolarini anglatadi. Navoiy g'azalda usbu frazemaning badiiy uslubga xos bo'lgan "bahra topmoq" variantini qo'llab, baytda ikki kishi o'rtasidagi suhbat haqida mulohaza yuritadi. Suhbat qanday mavzuda bo'lishidan qat'i nazar, ularning fikrlari bir-biriga mos kelishi lozimligi ta'kidlanadi. Buning uchun esa hamsuhbatlarning, yuqorida aytib o'tganimizdek, dunyoqarashi, ilm-zakovati ham o'zaro yaqin bo'lgandagina qoniqish hosil qilinadi. Agarda aksi bo'lsa, bu suhbatning har ikkala tomonga ham hech qanday nafi tegmasligini ta'kidlaydi shoir. Demak, ushbu fikrlari bilan Alisher Navoiy o'quvchiga o'zaro munosabatlardagi ma'nan yaqinlikning ahamiyatini "bahra topmoq" frazemasi orqali yetkazmoqchi bo'ladi.

Kerak o'z chobuki qotilvashi Majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.

Ushbu baytda "buzug' ko'ngil" frazemasi ishlatilgan. Navoiy bu iborani qo'llashining sababini aniqlash uchun bayt mazmunini sinchiklab tahlil qilish lozim bo'ladi. Shoir oshiqlik yo'lida Majnun boshidan kechirgan azoblar lirik qahramon kechinmalari bilan monandligini aks ettiradi. Oshiq xuddi ana shunday ishq dardini "Chobuki qotilvashi", ya'ni sho'x, o'ynoqi, go'zal mahbubasi tomonidan o'ziga nisbatan yog'dirilishini istaydi. Alisher Navoiy asarlari lug'atida "chobuk" so'zi – tez, chaqqon, ildam; sho'x, o'ynoqi, go'zal; urishqoq, jangovar chavandoz ma'nolarini anglatishi berilgan.

Shoirning "chobuki qotilvashi" birikmasini birgalikda ishlatishiga qaraganda lug'atda berilgan jangjo'y ma'nosidagi urishqoq jangovar chavandoz haqida so'z borayotgani ma'lum bo'ladi. Baytning ikkinchi misrasidagi "samand etmas" birikmasida ham aynan tez yurar va chiroyli otning oshiqning buzuq ko'nglidan boshqa joyda bunchalik emin-erkin javlon urib yashay olmasligi ta'kidlanmog'da. Demak, bu yerda shoir qo'llagan "buzug' ko'ngil" frazemasi ijobiy ma'noda nochor, yurakbag'ri ezilgan ma'nolarida badiiy talqin etilgan. Ana

shunday talqinni hazratning yana bir mashhur shohbaytida ham uchratishimiz mumkin:

*Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.*
(MAT, 5-tom, 431-bet)

Barchaga ma'lumki, Ka'ba musulmonlarning ziyorat qiladigan eng muqaddas joyi – Allohning uyi. Har bir musulmon uchun bu dargohni tavof qilmoq farz sanaladi. Navoiy, agar kimki “bir ko'ngli buzug’”, ya'ni hech narsasi yo'q, g'arib bechora bir kimsaning dardiga malham bo'lib, ko'nglini ko'tarib, unga quvonch va shodlik baxsh eta olsa, bunday odam vayron bo'lgan muqaddas Ka'bani qayta obod qilgani bilan barobardir, chunki insonning ko'ngli ham Allohning uyidir, deydi. Bugungi kunda esa “ko'ngli buzug’” frazemasi yomon niyatli, o'y-fikri to'g'ri bo'lmagan ma'nosini anglatadi.

*Ko'ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir
Ajal sarishtasidin o'zga bo'ynung'a kamand etmas.*

“Ko'ngil uzmoq” frazemasi “intilgan kishisidan yoki narsasidan ajralishga qaror qilmoq” ma'nosini anglatadi. Alisher Navoiy ushbu frazemani qo'llash orqali baytda charx – dunyo haqida falsafiy mushohada yuritadi. Insonlarga bu zolim dunyoning barcha boylklari-yu hashamatlariga ortiqcha ko'ngil bog'lamlaslik kerakligi, uning “firibini yegandan”, ya'ni abadiy emasligini anglagandan so'ng undan voz kechish juda qiyin bo'lishini uqtiradi. Insonning dunyo dialektikasiga bosh egmasdan boshqa iloji yo'qligi, qachon bo'lmasin bir kuni ajal o'z sirtmog'ini uning bo'yniga bog'lashi shart ekanligini faylasufona nasihat qiladi.

*Ul oy o'tlug' yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.*

“Ko'z tegmoq”, ya'ni “ko'zikmoq” frazemasi bugungi kunda ham xalqimiz orasida juda ko'p va tez-tez ishlatilib turadi. Masalan, “tinchligimizga, vatanimizning gullab-yashnayotganligiga ko'z tegmasin”, degan iboralar hatto kundalik duo va olqishlarga ham aylanib qolgan. Alisher Navoiyning lirik qahramoni ham baytda o'z ma'shuqasining go'zalligiga boshqalarning nazari tushib, ko'zikib qolmasligi to'g'risidagi istagini misradagi “yuz ochmoq” frazemasi orqali bayon etadi. Bu yerda “yuz ochmoq”, ma'shuqaning yuzidagi pardasini ko'tarishi, el o'rtasida go'zalligini namoyish etishi, ko'z-ko'z etishi ma'nosini anglatgan.

Shunday qilib, o'quvchilarga Alisher Navoiyning ushbu g'azali ma'nosi yanada tushunarliroq bo'lishida g'azaldagi badiiy san'atlar bilan bir qatorda, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, frazemalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki nutqimiz ko'rki, tilimizning bebaho boyligi bo'lgan frazemalar nutqni jonlantirish, uni obrazli, emotsional jihatdan bo'yoqdor qilish, qisqa, ixcham shaklda ifodalash vositasi hisoblanadi.

Bugungi kunda o'qituvchilar dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda o'quvchini faollikka undash, unda mustaqil, ijodiy izlanish ko'nikmalarini hosil qilishda samarali sanalgan interfaol metodlardan foydalanishga e'tibor qaratishlari lozim.

Ana shunday metodlardan biri – “Keys-stadi” (ingliz tilida “case” aniq vaziyat, “stadi” – ta'lim) texnologiyasi o'quvchilarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarni topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya o'quvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Nazarimizda, o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga Alisher Navoiy she'riyat namunalari “Keys-stadi” metodi asosida o'rgatilsa, ularda shoir she'riyatiga qiziqish uyg'otish, unda tarannum etilgan dunyoviy hamda umumbashariy ezgu g'oyalarni anglatish, ma'naviy-estetik didlarini tarbiyalashga yordam beradi. Masalan, yuqoridagi g'azalni ushbu metod asosida o'rgatmoqchi bo'lsak, sinfdagi o'quvchilarni to'rt guruhga bo'lib, keys yechimi uchun quyidagicha muammoli g'oyalarni taklif etish mumkin:

1-guruh: Alisher Navoiyning “Meni men istagan...” deb boshlanuvchi g'azalining umumiy mazmunini tahlil qilishga imkon qadar harakat qiling;

2-guruh: g'azal janrining paydo bo'lishi va o'zbek adabiyotiga kirib kelishi hamda rivojlanishi haqida fikr yuritig;

3-guruh: g'azal ma'nosini tushunishda unda ishlatilgan badiiy san'atlarni aniqlang;

4-guruh: g'azal tarkibidagi frazemalarni toping va ma'nolarini tahlil eting.

O'quvchilar erkin holda o'z chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatish, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga xolisona baho berish bilan birga ularga imkoniyat yaratgan holda bahs-munozarani samimiylik bilan boshqarib boradi. Har bir guruhning fikrlari tinglangach, ular tomonidan aytilgan mulohazalar umumlashtiriladi va o'zining bahs-munozara haqidagi xulosalarini bayon etadi.

Xullas, jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilar berilgan keysni hal eta olishsa, bu ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samara berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.To'xliyev va boshq. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik-majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. 184-bet.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Beshinchi tom. – Toshkent: Fan, 1983, 1985.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. – Toshkent: Fan, 1983, 1985.
4. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 382-bet.
5. B.Yo'ldoshev. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Toshkent: Muharrir, 2013. 300-bet.

Shahnoza RAHIMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

INGLIZ IDIOMALARI TARJIMASIDA MILLIY VA TARIXIY O'ZIGA XOSLIK MASALASI

Tarjimashunoslik – tilshunoslikdagi eng dolzarb va murakkab sohalardan biri. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalar xususida gapirilganda idiomalar haqida to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Chunki ingliz tili idiomalar bilan to'yingan til hisoblanadi. Idiomalar tarjimasida eng katta qiyinchilik keltirib chiqaradigan o'rinlardan biri bu – asliyat bilan tarjima qilinayotgan til leksikasida turg'un frazeologik iboralar ekvivalentlarining ko'p emasligidir. Shunga ko'ra tarjimonlar ko'p holatlarda idiomalar tarjimasiga ijodiy yondashib, o'zga til materialida o'z ma'no doirasi, o'rni va salohiyati nuqtayi nazaridan asliyatga mos iborani yaratishga majbur bo'ladilar. Shu bilan birga ba'zi idiomalarda bildirishi kerak bo'lgan ma'no emas, balki umuman boshqa ma'no ustunlik qiladi. Masalan, ingliz tilidagi **to lead by the nose** iborasining tarjimasida "aldamoq" bo'lishi kerakdek tuyuladi, aslida esa mazkur idioma "o'ziga bo'ysundirish, boshqarish" ma'nosini anglatadi. **To throw dust in the eyes** idiomasi "maqtanmoq, o'zini katta tutmoq" ma'nosini anglatgandek bo'lishi mumkin, aslida mazkur idioma "ko'zini shamg'alat qilmoq, ya'ni aldamoq, yashirib, ish qilmoq" mazmunini bildiradi.

Idiomalar tarjimasida turli tillarga xos so'z signifikatlari, ya'ni ulardan anglashiladigan tushunchalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Masalan, idiomalar ba'zan o'z funksional-semantik doiralari bo'yicha bir-birlaridan farq qiladi, ya'ni ular asliyat bilan ekvivalentlikka ega ekanligini namoyon qilgandek ko'rinadi, ammo semantik jihatdan har doim o'zida to'liq analogiyani ko'rsatmay, balki o'zaro tafovutlanadi. Masalan, ingliz tilidagi **over head and ears** idiomasi "boshidan oshib-toshib yotmoq" ma'nosiga to'g'ri keladi. Demak, **over head and ears** ishlatilgan barcha matnlarda uning muqobili "boshidan oshib-toshib yotmoq"ni qo'llash o'rinlidek ko'rinadi. Ammo bunday emas. Masalan, "ishim (yoki qarzim) boshimdan oshib-toshib yotibdi" deyish ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham e'tiroz uyg'otmaydi. Inglizlar **over head and ears** iborasini his-tuyg'ularga nisbatan ham ishlatishadi. Masalan, inglizlar uchun "muhabbatim boshimdan oshib-toshib yotibdi" deyish g'aliz tuyulmaydi. Ammo o'zbeklar bunday deya olmaydi. Chunki bu so'zlar birikmasi hissiy-matniy assotsiatsiyalarni uyg'otmaydi. Demak, idiomaning muqobili topilganda ham kontekst mazmuni bilan matniy bog'liqlik mazkur iboralarni to'liq qo'llashga nisbatan o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Yuqoridagi misolda inglizlarning "muhabbatim boshimdan oshib-toshib yotibdi" iborasini o'zbekchalashtirilsa, unga matniyan monand ibora



Awaiting an explanation.

"oshiq-u beqarorman", "ishqda Farhod-u Majnunman", "yuragimdan urdi" tarzida berilishi mumkin.

Idiomalar tarjimasida ularning asliyatdagi va o'zbek tilidagi muqobillari o'zaro taqqoslanganda bir xildagi obrazlilik asosidagi ekvivalentlari (**to take smb. to heart** – birovning ko'nglini olmoq, yurakka tugib qo'ymoq, yurakka olmoq); turlicha obrazlilikka asoslangan muqobillari (**after one's heart** – ko'ngildagidek, istalganidek); har bir tilning o'zigagina xos bo'lgan muqobillari (**cap in hand** – kamtarin; **Have a heart!** – Shafqat qiling!)ni ajratish mumkin.

Binobarin, bir xil obrazlarga asoslangan ekvivalentlar tarjimasida ularning ma'no jilolari bilan stilistik xususiyatlari asosiy belgilovchi mezon sifatida olinib, morfologik va sintaktik kategoriyalari bo'yicha tafovutlari, asosan, har bir tilning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon qiladi. Ular konkret til materiali sifatida amal qiladi. Chunonchi, ingliz tili morfologik tasnifiga ko'ra flektiv tillar guruhiga, o'zbek tili esa agglutinativ tillar guruhiga mansub bo'lgani uchun ham har ikki tildagi ekvivalent idiomalar o'z strukturalari, ya'ni komponentlarning joylashishi, ularning o'zaro birikishi, ularda so'zlar sonining xilma-xilligi, egalik olmoshla-

rining mustaqil va yoki birikib kelishi, nihoyat boshqa tafovutlari bilan o'zaro farqlanishi tabiiy bo'lib, har bir idiomatik birikma konkret til materiali sifatida baholalanadi va o'rganiladi.

Idiomalar tarjimasida ba'zi hollarda idiomalar tarkibidagi bosh ma'no komponenti bo'lgan so'zlar tarjima tilida o'zgaradi, **a drop in the bucket** – dengizdan tomchi; **to dring on ones head** – boshiga balo orttirmoq.

Ma'lum hollarda idiomalar tarkibidagi ko'chma ma'no uning tarjimasida uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, **To turn back the clock** idiomasi soat millarini surish ma'nosi orqali insoniyat hayoti, ya'ni tarixga nisbatan aytilmoqda. Shunga ko'ra idiomalar tarjimasida "tarixga qaytmoq" mazmunini bildirib keladi.

Har bir idiomada o'ziga xos stilistik va emotsionallik yashirinadi. Shu bois xuddi shu o'ziga xoslik, ayniqsa, emotsional kayfiyatni topa bilish tarjima qilinayotgan tilda ma'no identifikatsiyasini topish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga ba'zi idiomalarda milliylik juda chuqur o'rnashgan. Ularda milliy ruh o'zini keskin namoyon qiladi. Shunday idiomalar tarjimasida milliy ruh yo'qotilishi mumkin. Masalan, **to fight like Kilkenny cats** – hayot-mamot uchun kurash; **when Queen Anne was alive** – o'z o'rnida qilingan va bajarilgan ish; **Queen Anne is dead!** – Amerikani kashf qilish, ya'ni yangilikni topish; **to be from Missouri** – ishonqiramaslik.

Ba'zi hollarda idiomalar tarjimasida idiomalar mazmunini kalkalash, ya'ni ko'chirib olish usulidan foydalaniladi. Ammo kalkalashda tarjimon mana shu kalkalangan mazmun tarjima tili va nutqi uchun tabiiy bo'lishini ta'minlashi zarur. Aks holda tarjima sun'iylik, na o'zbek va na ingliz tiliga xos bo'lgan iboraga aylanadi. Masalan, **put the cart before the horse** – aravadan oldin otini qo'yish. Idiomalar tarjimasida kalka usulidan foydalanish asar asliyati saqlab qolish va muallif uslubiyatiga rioya qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Ammo kalkalangan jumla tarjima tili uchun ham g'ayrioddiy so'z emas, balki til materialiga tabiiy bog'langan iboraga aylanishi zarur.

Ba'zan tarjima amaliyotida idiomalar o'zbek tilida na ekvivalenti, na analogi, na monandi bo'ladi. Ya'ni idiomalar va uning tarkibida berilgan ma'no butunlay o'zbek tili va madaniy hududi uchun yangilik bo'ladi. Bunday hollarda, ko'pincha, tarjimon idiomadagi ma'noni tushuntirish uchun bayonchilik metodidan foydalaniladi. Masalan, **a skeleton in the cupboard** – oilaviy sir, boshqalardan sir saqlanadigan oilaviy muammo; **grin**

like a Cheshire cat – boshqalar ustidan kulish, tahqirlash; **Peeping Tom** – boshqalarni kuzatib boruvchi odam, boshqalar ishiga burnini tiquvchi odam, boshqalar ishlariga aralashishni xush ko'ruvchi odam.

Ingliz tilida **dine with Duke Humphrey** turg'un iborasi mavjud. U "tushliksiz qolish, tushlikdan, ya'ni tamaddi qilib olishdan mahrum bo'lish" mazmunini anglatadi. Mazkur idiomani kelib chiqishida o'ziga xos tarixiy omillar rol o'ynagan. London cherkovlaridan biridan o'sha joydagi qashshoq va gadoylar tamaddi qilishga biror narsa berishlarini so'rashadi. Ammo ular "Yo'q" javobini oladi. Ya'ni yegulik so'rganlar och qoladi. Mana shu cherkovga gersog Hemfri ko'milgan bo'ladi. Shu bois gersog Hemfridan ovqat so'rash aslida ovqatsiz qolish mazmunini berganligi sababli idiomalar tarjimasida "och qolish, tushliksiz qolish" mazmunida qo'llanishga asos bo'lgan.

Shuningdek, **cut off with a shilling** idiomasi "merossiz qolish, merosdan mahrum bo'lish" mazmunini anglatadi. Uning etimologiyasi zamirida ham o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy holat va vaziyatlar mavjud. Ingliz yurisdiksiyasiga ko'ra agar ota o'z farzandini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lsa-yu, masalan, o'z o'g'liga meros qoldirmasa, bunday odamning vafotidan so'ng o'g'il o'zining ota merosiga bo'lgan huquqini sud orqali tiklab olishi mumkin. Agar ota haqiqatan ham o'z o'g'lini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lsa, u o'g'liga rasmiy "bir shilling" vasiyat qiladi. Ya'ni huquqiy jihatdan o'g'il meros olgan bo'ladi. Shundan so'ng o'g'il ota vafotidan so'ng katta merosga da'vogar bo'la olmaydi. Shunga ko'ra idiomalar tarjimasida "merosdan mahrum bo'lish, merossiz qolish" mazmunini anglatadi.

Xullas, idiomalar tarjimasida bu – ikki til hududi, ikki madaniyat va milliy tafakkur tarkibidagi semantik monandlik, semantik takroni topa bilish va uni ro'yobga chiqarish, ya'ni o'ziga xos lingvistik ifoda jarayonining o'ziga tilda monandlarini topish, ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash, shuningdek, idiomalar ma'nosini qayta obrazli, ekspressiv, volyuntativ va emotiv tarzda gavdalantirish demakdir. Idiomalar tarjimasida ma'noni anglatishi nuqtayi nazaridan ularning inglizcha-o'zbekcha variantlaridagi ma'no obyekt jihatidan quyidagi holatlar mavjud: a) to'la monand kelgan; b) ma'no obyekt o'zaro ekvivalent bo'lmagan; d) o'zbek tilida umuman bunday ma'no obyektining mavjud emasligi asosida erkin tarjimada ma'no jihatidan mos keladigan muqobilini topish ehtiyoji bor bo'lgan.

Demak, tarjimon asar tarjimasida mazkur jihatlarni e'tiborga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Mamatov. Frazеologizmlarning shakllanish asoslari. – Toshkent, 1996. 54-bet.
2. A.Mamatov. Hozirgi zamon o'zbek tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. 276-bet.
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Москва: Либрокомб, 2010. – С. 216.
4. Гайбулла Саломов. Литературные традиции и проблемы художественного перевода. Сопоставительный стилистический и типологический анализ. – Ташкент: АДД, 1981. – С. 388.
5. Kunin A.V. English-Russian Dictionary of Idioms (2005).



Nozima QORABOYEVA,

 Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 46-maktabning
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

UNDALMALAR USLUBIYATI

(10-sinf, III chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda lingvistik kompetensiya elementlarini shakllantirish, mavzu haqidagi umumiy bilimlarini kengaytirish, qo'shimcha ma'lumotlarni badiiy asarlardan olingan misollar orqali tushuntirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, kommunikativ kompetensiya elementlarini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: guruhlar bilan ishlash, "Qat'iy xulosa", "Qiziqarli undalmalar", "Bilimingni sinab ko'r!".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, tilshunoslik faniga doir qo'llanma, mavzuga doir slaydlar, badiiy kitoblar, badiiy asarlar nomi yozilgan kitob shaklidagi rag'bat kartochkalari, topshiriqli tarqatmalar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, navbatchi axboroti tinglanadi. Sinfona va o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi va dars musobaqa tarzida olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadi: "Tilshunos", "Adabiyotshunos", "Publitsist".

Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilar badiiy asarlar nomi yozilgan rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanib borishi aytib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

"Qat'iy xulosa" usulidan foydalanib o'quvchilarga o'tilgan mavzuga doir test savollari slayd orqali taqdim etiladi va ajratilgan vaqt yakuniga yetgach, javoblari ko'rsatilgan varaqlar yig'ishtirib olinadi. Mazkur usuldan foydalanib o'quvchilardagi ikkilanishlar yo'qotiladi, qat'iy xulosa qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Test savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Nuqtalar o'rniga kerakli jumlani qo'ying: ...da fikr kuchli his-hayajon, emotsionallik bilan ta'kidli va ta'sirchan tarzda beriladi.

A) Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari

B) Ritorik so'roq gaplar

D) His-hayajon gaplar

C) Nutq uslublarining barchasi

2. Ritorik so'roq gaplar, asosan, qaysi uslublarda qo'llanadi?

A) badiiy va rasmiy uslubda

B) so'zlashuv va ilmiy uslubda

D) publitsistik va badiiy uslubda

C) so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslublarda

3. Ritorik so'roq gaplar berilgan qatorni belgilang.

A) Bu kishi kimingiz bo'ladi, bek aka?

B) Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?

D) Hamma bir millat bo'lsa, nimasi yomon?

C) Shoshib qayoqqa ketyapsiz, bobojon?

4. So'roq gap bevosita so'roqni emas, balki buyruqni bildirib kelish holati qaysi uslublarga xos?

A) so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarga

B) rasmiy va so'zlashuv uslubiga

D) ilmiy va badiiy uslubga

C) publitsistik va rasmiy uslubga

5. Qaysi qatordagi gap uslubiy jihatdan xato?

A) Do'stlikni ardoqlash kerak

B) Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz

D) Bolalik uy – bozor, bolasiz uy – mozor

C) Barcha gaplar uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llangan

III. Yangi mavzu bayoni.

Darsning ushbu bosqichida "Qiziqarli undalmalar" usulidan foydalanish mumkin. Bunda darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida undalmalarning nechanchi shaxsga qaratilgani, gapning qaysi o'rinlarida kelishiga e'tibor qaratiladi.

1. Hurmatli Xolposhsha! Boshingga tushgan tashvishdan, anchagina betob bo'lib yotganingdan xabari-miz bor. Qayg'urma. 2. Gapiraver, qizim, qulog'imiz senda. 3. Ich, jigirim, qo'rqqansan. 4. Endi, o'g'lim, dabdurustdan majlis deding... asli, shu gapni avval o'zaro jo'n gaplashib, pishiqtirib olsag-u, keyin majlisga solsang bo'lar edi.

O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar umumlashtiriladi. Undalmalar haqida darslikdan tashqari qiziqarli ma'lumotlar esga olinadi:


– ma'lumki, undalmalar so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradi;

- kimga yoki nimaga e'tibor qaratib gapirilsa, o'sha shaxs yoki narsa undalma sanaladi;
- undalmalar bir yoki bir nechta so'zdan iborat bo'lishi mumkin:

Qizim, yalpiz terib kelsangchi.

Qadrli bolalar, kelajak siznikidir.

- undalma, odatda, II shaxsga qaratilgan bo'ladi;
- undalma alohida ohang bilan ajratilib aytiladi;
- undalma quyidagilar bilan ifodalanadi;



So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap boshida keladi: *Oybek, gullarga suv quy.*

So'zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatni (so'zlovchi asl maqsadidan tashqari qo'shimcha his-tuyg'u munosabatlari) ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap o'rtasi va oxirida keladi: *Men sizni, oyijon, quyosh deb atayman! Men sizni quyosh deb atayman, oyijon!*

- undalmalar so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan xolis, ijobiy, salbiy, tantanavor, rasmiy munosabatlarini ham ifodalaydi. Masalan, rasmiy uslubda qo'llangan udumlarda rasmiylik bo'yog'i sezilib turadi: **Hurmatli Ahmad Rahmatovich, Sizga shuni ma'lum qilamizki ...;**
- undalmalar so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda, asosan, emotsional-ekspressivlik bo'yog'iga ega bo'ladi. Masalan: **Odamlar, siz mening hayotim, Har biringiz umrim parchasi. Bo'tam, orqaga qayt. Manavilarni uyga tashlab, keyin boramiz;**
- bunday birliklardagi undash ma'nosini yanada kuchaytirish uchun turli undovlar ham birga qo'llanishi, undalmalar takror holda kelishi ham mumkin. Masalan:

Ey Vatan, bag'ringda shod Erkin o'g'loning bo'lib. Yurmoqni istaydir ko'ngil.

Sendan farzandinga bog' qolsin, ey do'st, Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

Undamalar gapning ichida yoki oxirida kelganda, emotsionallik bo'yog'i ortiqroq bo'ladi. Masalan:

Endi sen chortlasang, toki tanda jon, Labbay deyajakman, Vatan – onajon.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslikdagi 87-mashq bajariladi. Bunda har bir guruhga alohida-alohida topshiriqlar beriladi. **“Tilshunos”** guruhi mashqda berilgan rasmiy uslubdagi, **“Adabiyotshunos”** guruhi badiiy uslubdagi, **“Publitsist”** guruhi so'zlashuv uslubidagi undalmalarni aniqlaydilar. Masalan:

“Tilshunos” guruhi: *Hurmatli Hoshimjon Olimjonov, bilim yurti talabalari bilan uchrashuvga kelishingizni iltimos qilamiz.*

“Adabiyotshunos” guruhi: *Ochiq-oshkora ishlash uslubi shunday bo'ladi, muhtarama xonimlar! Demokratiya deydi buni.*

“Publitsist” guruhi: *Qani, To'xta xola, gapiring! To'xtang, ota, gapini tamomlasin!*

88-mashqda berilgan gaplar vaqtdan unumli foydalanish uchun har bir guruhga uchtadan bo'lib beriladi. Guruh a'zolari gaplardagi undalmalarning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini izohlaydilar. Masalan:

“Tilshunos” guruhi: *“E, hoy, anor olib bermadimmi? – dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo'rqulik edi”.* Undalma o'rnida **hoy** kelganda tinglovchiga **hurmatsezlik, mensimaslik ma'nosi** ifodalanadi.

“Adabiyotshunos” guruhi: *“Katta ketma, bola! Mening kuragim faqat o'lganimda – go'rda yotganimda yerga tegadi”.* Ushbu gapda tinglovchiga nisbatan **salbiy** munosabat ifodalangan.

“Publitsist” guruhi: *“Hurmatli radiotinglovchilar, biz shahrimizning yirik korxonalaridan biridamiz”.* Publitsistik uslubdagi ushbu gapda tinglovchilarga nisbatan ijobiy munosabat ifodalangan.

Rasmiy uslubda qo'llangan undalmalarda **rasmiylik** bo'yog'i sezilib turadi.

89-mashqni har bir guruhdan ikki nafardan o'quvchi yozuv taxtasida bajaradi. Mashq shartiga ko'ra undalmalarni aniqlab, ularning uslubiy ma'nolarini aniqlash kerak bo'ladi.

O'rtoqlar, bugun majlisimizda bitta masala ko'riladi.	▶ Rasmiy uslub
Beziyon, taqsir, beziyon... Biz ham bundan bisyor no'sh aylaganmiz.	▶ Badiiy uslub
Hov, kalla bormi senda?	▶ So'zlashuv uslubi

Guruh a'zolari yozuv taxtasida yuqoridagi topshiriqni bajarib bo'lgunlariga qadar guruhlarining qolgan a'zolari **90-mashq**ni bajarishga kirishadilar. **“Tilshunos”** guruhi undalmalarning gapning boshida, **“Adabiyotshunos”** guruhi gapning o'rtasida, **“Publitsist”** guruhi gapning oxirida kelishiga misollarni topib, daftarlariga yozadilar.

“Tilshunos” guruhi: **Birodar, shu ortib qolgan lokni menga bersangiz.**

Ermat: **“Yo Egam, o‘zingdan madad!”** – dedi uni bir siltab ko‘tarib.

“Adabiyotshunos” guruhi: Siz ham, **hurmatli o‘quvchi**, men ham bir narsaga sevinishimiz kerak.

“Publitsist” guruhi: Sendan nega gina qilarkan, **bolam**, – dedi Umri xola ayvon labida to‘xtab.

So‘ng **“Bilimingni sinab ko‘r!”** usulidan foydalanib ichida har biriga bittadan so‘z yozilgan rangli qog‘ozchalar aralash holda solingan konvertlar beriladi va belgilangan vaqt ichida so‘zlarni tartib bilan qo‘yib, undalmali gaplar hosil qilishlari so‘raladi. Undalma gapning qaysi o‘rnida kelganligi, emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i, qaysi uslubda qo‘llanganligi haqida tezkorlik bilan ma‘lumot berishlari kerak bo‘ladi. Masalan:

o‘g‘lon	buyuk	lekin	sodiq
Yurt	o‘zbekim	senga	farzandiman
men	avval	bashar	
bo‘lsam	o‘g‘lidurman	men	

Men buyuk yurt o‘g‘lidurman, men bashar farzandiman. Lekin avval senga bo‘lsam, sodiq o‘g‘lon, o‘zbekim.

Badiiy uslubda, undalma gapning oxirida kelgan, emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i – ijobiy.

Qaysi guruh shartni to‘g‘ri va tez bajarsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. Slaydda ko‘rsatilgan quyidagi savollarga o‘quvchilardan javob olinadi va fikrlar umumlashtiriladi:

1. Undalma gap bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishadimi?

2. Undalma gapning qaysi o‘rinlarida kelishi mumkin?

3. Undalmalar gapning o‘rtasi, oxirida kelganda qanday subyektiv munosabatlarni ifodalaydi?

V. Baholash va rag‘batlantirish. Dars davomida eng ko‘p “kitob” yig‘gan o‘quvchi va guruhlar aniqlanadi hamda ularga badiiy kitob yoki abituriyentlar uchun maxsus tayyorlanadigan jurnal va gazetalar sovg‘a qilish mumkin. Darsda ishtirokiga ko‘ra barcha o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

1. 91-mashqni bajarish.

2. Badiiy kitoblardan mavzuga doir misollar topib yozish.

Nasiba BOZOROVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Til o‘rgatish kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

ISKANDAR – ADOLATLI SHOH

(Maktablarning 11-sinfi, akademik litseylarning II kursi uchun)

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida bayon etilgan falsafiy mushohadalarni o‘rganish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda insoniy fazilatlarini rivojlantirish, adolat, xayr, saxovat va himmat mohiyati, ilm fazilatini tushuntirish, umr mazmuni so‘z va amal birligi bilan go‘zal bo‘lishini uqtirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: asar tahlili orqali shoir shaxsiyatini, g‘oya va tasviriy ifoda munosabatini chuqurroq o‘rganish, mumtoz asarlarni o‘qish va tushunish malakalarini takomillashtirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Savol-javob”, “Moychechak”, “Nostandart testlar”, “Xotira xaritasi”.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

Salomlashilib, davomat aniqlangach, kun yangiliklari bilan tanishtiriladi. Sinf xonasi dars uchun maxsus tayyorlanadi. Yozuv taxtasining bir tomonida Alisher Navoiyning portreti, ikkinchi tomonda Alisher Navoiy asarlari, shoirning hayoti va ijodiga doir navoiyshunos

olimlarning maqola va kitoblari ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Yozuv taxtasiga Jomiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro va Xondamirning Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyati haqidagi e’tiroflari yozib qo‘yiladi. Ekranida o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq taqdimot va lavhalar namoyish etib boriladi.

Dars suhbat, erkin mushohada usulida tashkil etiladi. O‘quvchilar Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini erkin tahlil qilishi va guruh bo‘lib muhokama qilishi uchun partalar uch guruhga mo‘ljallab joylashtiriladi. O‘qituvchi bahs-munozarani olib borishda o‘quvchilarni shartli ravishda “Adolat”, “Hikmat”, “Saodat” guruhlariga ajratadi. Keyin har bir guruhdan nom uchun tanlangan so‘zlarni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa”sining beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy”dagi shoh Iskandar tarixi va taqdiri bilan qay jihatdan bog‘lash mumkinligini so‘raydi. O‘quvchilarning izohlari o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilib, xulosalanadi:

– Demak, qaysi shoh hikmat va ma’rifat ahliga quloq solib, yurt boshqaruvida adolat, insof va diyonatni shior etsa, Iskandar kabi ikki olam saodatiga erishishi tayin.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Avvalgi darsda o'rganilgan mavzuni takrorlash, o'quvchilarning Alisher Navoiyning hayoti va ijodini qay darajada bilishlarini aniqlash maqsadida **"Aqliy hujum"** sinovi o'tkaziladi. Berilgan to'g'ri javoblar uchun o'qituvchi yulduzchalar tarqatib boradi. Savollar o'yin talabiga ko'ra favqulodda, shu kungacha quyi sinflarda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar asosida tuzishi lozim:

1. Alisher Navoiyni nega "g'azal mulkingning sultoni" deymiz va bu ta'rifni kim birinchi qo'llagan?
 2. Xondamirning qaysi asari quyoshdek porloq shaxsiyat – Alisher Navoiyga bag'ishlangan?
 3. Alisher Navoiy Samarqandda kimdan saboq olgan?
 4. 12 yoshli Alisherga yuksak baho bergan 99 yoshli shoir kim?
 5. "Hayrat ul-abror" dostonining ma'nosi nima?
 6. "Saddi Iskandariy" dostonining shunday nomlanish sababi nima?
 7. Alisher Navoiyning qaysi dostoni "Xamsa" tarkibiga kirmagan?
 8. Alisher Navoiyning mukammal asarlar to'plami necha jilddan iborat?
 9. Alisher Navoiyning she'riy kulliyoti qanday nomlanadi?
 10. "Navoiy" romani kimning qalamiga mansub?
- Shu o'rinda "Navoiy" filmidan lavha namoyish etiladi va savol-javob nihoyalanaadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlar to'plami 11-jildi "Saddi Iskandariy" dostoni ekanini aytib, mazkur to'plamni o'quvchilarga ko'rsatadi va o'rni bilan asardan parchalar o'qib, ularning mazmunini sharhlab boradi.

O'qituvchi: Ma'lumki, Alisher Navoiy xamsachilik an'anasiga asosan beshinchi doston "Saddi Iskandariy"ni Mag'rib va Mashriq hukmdori shoh Iskandar tarixiga bag'ishlagan. Ulug' mutafakkir "Xamsa" tarkibiga kiruvchi boshqa dostonlardan hajman katta bo'lgan (89 bobdan tashkil topgan) bu dostonni o'ziga xos uslubda yaratgan. Dostonning 15-bobidan boshlab har to'rt bob o'zaro ichki bog'liqlikda, bir mavzu asosida birlashtirildi. Bu hol asar so'ngiga qadar davom ettiriladi. O'zaro umumiylik hosil qilgan mazkur boblarda:

- Iskandar hayotiga oid biror voqea bayoni;
- shu voqega bog'liq bo'lgan falsafiy-axloqiy tushunchalar izohi;
- aytilgan fikrlar isboti uchun hikoyat;
- Iskandar va olimlar (xususan, Arastu)ning savol-javob keltiriladi.

Navoiyshunos olim A.Qayumov e'tirof etganidek, "Saddi Iskandariy" dostoni go'zal lavhalarga ega. Dostondagi falsafiy-tarbiyaviy chekinishlar, hikoya va hikmatlar hayotning barcha ko'rinishlarini qamrab olgan hamda ularning har biri alohida qiymat va hikmatli mazmun kasb etgan.¹ Ayniqsa, shoirning o'zi "Hikmat" deya nomlagan boblarda bayon etgan fikr-mulohazalari, ilgari surgan g'oyalari chuqur falsafiy-axloqiy xarakterga



egaligi bilan boshqa qismlardan ajralib turadi. Ularda tiriklik mohiyati, hayot falsafasi, inson umri, ma'naviy olami, davlat va davlatchilik siyosati, ilm va ma'rifatdan bahs yuritiladi. Dostonda 18 ta hikmat keltirilgan. Ularda Iskandarning yuqorida aytib o'tilgan masalalar yuzasidan olimlar peshvosi Arastuga, donishi zamon Suqrot va Luqmoni Hakimga bergan savollari hamda u zotlarning bu savollarga oqillik bilan bergan javoblari, pand-u nasihatlarini ifodalangan. Bu ifodalar mutafakkir shoir dunyoqarashining naqadar keng va chuqurligini yana bir karra tasdiqlaydi.

O'qituvchi darslikda berilgan hikmatlardan parchalar o'qib, uning mazmunini sharhlaydi. Jahonning katta qismini egallagan Doro va Iskandar o'rtasida kechgan voqealarni so'zlab berib, ulug' shoirning adolat haqidagi qarashlariga alohida to'xtaladi.

"Saddi Iskandariy" dostonida yoritilgan muhim masalalardan biri – adolat. Adolat jamiyat hayotida o'ziga xos mavqega ega. Davlat va davlatchilik asosi usiz aslo bunyod bo'lmaydi.

Dostonda zulm tig'ini sindirib, adolat bayrog'ini baland ko'targan odil shoh Iskandar siymosi o'zgacha mehr bilan tasvirlangan. Asarda Iskandar adolatli shoh, uning maslahatchilari (Arastu, Luqmon, Suqrot) esa aql timsoli sifatida keltirilgan va bu timsollar vositasida ulug' shoir davlat boshqaruvida odil shoh yonida doim dono, bilimdon va oqil maslahatchi bo'lishi lozimligini ta'kidlagan. Siz bunday qarashlarni 8-sinf darsligidagi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida ham uchratgansiz. Navoiy bobomiz ham Yusuf Xos Hojib kabi hukmdor adolatli siyosati bilan boy xalq, mo'l xazina, kuchli qo'shinga ega bo'lishini va uning qudrati shu to'rt narsa bilan belgilanishini aytgan.

Umuman olganda, "Saddi Iskandariy" dostonida juda ko'p ma'naviy-axloqiy tushunchalar mohiyati xususida so'z borganki, ularni tahlil etish, o'rganish ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamoloti, komillik masalalariga oid qarashlari, fikr-mulohazalarini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'qituvchi: Mana siz bilan Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni mazmuni bilan tanishdik, "Navoiy" filmidan lavha ko'rdik. Endi siz bilan mushohadaga o'tamiz va "Moychechak" usuli orqali olgan bilimingizni sinab ko'ramiz.

Bu usulda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan moy- chechak yaproqchalariga mavzuga oid savollar yozilgan bo'ladi, guruh o'quvchilari navbat bilan undagi savollarga javob beradi.

Yaproqchalardagi savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Dostondagi Iskandar tarixiy shaxs Aleksandr Makedonskiymi?

2. Ulug' mutafakkir fikricha, odil shoh qanday bo'lishi kerak?

3. Alisher Navoiyning Iskandarni shoh Faylaqusning asrandi o'g'li sifatida tasvirlashini qanday izohlaysiz?

4. Dostonning 40- va 41-boblari asosida inson umri haqida o'z qarashlaringizni ayting.


5. Dostondagi:

Shahekim anga adl bunyod erur,

Natija bukim, mulki obod erur, –

hikmatini qanday izohlaysiz? Aynan shunday qarashlar bayon etilgan asarlarni bilasizmi?

O'qituvchi o'quvchilarning bergan javoblari asosida mavzuni "**Xotira xaritasi**" vositasida umumlashtiradi.



Takrorlashda o'quvchilarning o'zlashtirishi turli usullarda aniqlashtiriladi.

1. Sinov usuli. Mos juftlikni toping.

- | | |
|--|-------------|
| 1. Kashmirdagi tilsim qo'rg'on egasi | A) Faylaqus |
| 2. Mallu o'rnida o'tirgan hukmdor | B) Doro |
| 3. Sehr-jodu chorasini topgan shaxs | D) Iskandar |
| 4. Dostondagi maxfiy va nozik sirlar bilimdoni | E) Mallu |
| 5. Dostonda barcha odat va xislatlari barkamol shoh | F) Aflotun |
| 6. Iskandar shohni o'ziga tengsitmagan shoh | G) Feruz |
| 7. Iskandar huzuriga ikkita kalla suyagini olib kelgan kimsa | H) Arastu |
| 8. Iskandarni vayronadan topib olgan shoh | I) Darvesh |

2. Sinov usuli. Mulohazaning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang. Agar mulohaza to'g'ri bo'lsa, T (to'g'ri), aks holda N (noto'g'ri) belgisini yozing:

1. "Saddiy Iskandariy" – falsafiy doston.

2. "Saddiy Iskandariy" aruzning mutaqorib vaznida yozilgan.

3. Feruz – Kashmir shahzodasi.

4. Malluning sehr-jodusini Arastu yo'q qiladi.

5. Iskandar yigitlik va qarilik haqida Arastudan so'raydi.

6. Mallu Iskandarni ko'rishi bilan otga minib qochib qoladi.

7. Mayparast yigitga qo'shnisi to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

3. Sinov usuli. To'g'ri javobni aniqlang.

1. Alisher Navoiyning diniy mavzudagi asarlarini aniqlang?

1. Siroj ul-muslimin.

2. Arbain.

3. Nazm ul-javohir.

4. Munshaot.

5. Majolis un-nafois.

6. Tarixi anbiyo.

7. Muhokamat ul-lug'atayn.

8. Mufradot.

A) 1, 3, 6 B) 2, 5, 6 D) 2, 6, 7 E) 1, 3, 7, 8

2. Alisher Navoiyning muammo janrida yozilgan asarini aniqlang.

A) Munshaot B) Mufradot

D) Vaqfiya E) Badoe' ul-bidoya

3. Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibidagi eng yirik dostonni aniqlang.

A) Farhod va Shirin B) Sabba'i sayyor

D) Saddi Iskandariy E) Layli va Majnun

4. "Saddiy Iskandariy" dostoni mumtoz adabiyotdagi qaysi dostonga yaqin turadi?

A) Qutadg'u bilig B) Hibat ul-haqoyiq

D) Shohnoma E) Boburnoma

5. "Saddiy Iskandariy" dostonida Kashmir shohi kim edi?

A) Mallu ibn Mabok B) Maxok ibn Bixar

D) Sa'd ibn Bayhaq E) Ma'mun ibn Siddiq

V. Baholash va rag'batlantirish.

Mashg'ulot davomida guruhlar to'plagan rag'bat kartochkalari hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi.

O'qituvchi darsni yakunlaydi: Aziz o'quvchilar, buyuk bobomiz Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonining to'liq matni bilan tanishib, mutafakkir shoirimizning durdona o'g'itlari ila qalbingizni munavvar etasiz, o'zingizga ma'naviy oziq olasiz. Zero, navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek: "Diliga Navoiy so'zlari o'rmasgan odam istasin-istamasin, odamiylik sharafi, hayot zavq-shavqi va komillik kuch-qudratini keng idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi o'z-o'zidan xalq dard-u tashvishlariga sherik bo'lishga bel bog'laydi. Fikri – fikrsizlikka, ilm-ma'rifatni – nodonlik, gumrohlik va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi".

VI. Uyg'a vazifa. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni asosida "Iskandar – adolatli hukmdor" mavzusida insho yozish.

¹A.Qayumov. Asarlar. 3-jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. 336-bet.

²I.Haqqul. Navoiyga qaytish. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 2011. 7-bet.

Adiba BEKCHANOVA,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi
41 maktabniq ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

QAROQLARDA QOTGAN IKKI TOMCHI YOSH

Darsning mavzusi: Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasini o'rganish (10-sinf, III chorak).

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasini o'rganish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida yuksak e'tiqod va o'zgalarni to'g'ri tushuna olish ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'smirlarda komil shaxsga xos ma'naviy sifatlarni shakllantirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: kichik guruhlarda ishlash, suhbat, bahs-munozara.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, adib portreti, kompyuter, proyektor.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: O'quvchilar bilan salomlashilgach, navbatchi axboroti tinglanadi. O'quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Dars musobaqa usulida olib borilishi e'lon qilinib, o'quvchilar "Iymon", "Vijdon", "E'tiqod" guruhlariga bo'linadi. Darsni boshlashdan oldin har bir guruhdan o'z guruhining nomini sharhlash so'raladi. O'quvchilar javoblari tinglangach, ular o'rtasida "Tezkor savol-javob" o'yini o'tkaziladi. O'quvchilar javoblari tinglanadi.

O'qituvchi: O'quvchilar, quyidagi savollarga to'g'ri javob topa olsangiz, bugungi o'rganmoqchi bo'lgan asar nomi kelib chiqadi.

- Said Ahmadning birinchi qissasi nomi.
- Shuhratning balladasi nomi.
- Zulxumor, Hasanson, Oqqiz kabi obrazlar qaysi dostonda uchraydi?
- Boychibor qaysi doston qahramonining oti?
- Ko'kaldoshning tulpori.
- Erkin Vohidov qasidasi.
- "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonidagi Rayhon arabning qizi Xumoroyning laqabi.
- "Xurakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi... ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi... yomonlik izlab borgan odamning ishi undan bitar edi". Ushbu ta'rif egasi?
- Bir soniyalik qo'rqqoligi tufayli butun umr azobda qolgan badiiy qahramon kim? (Asqad Muxtor asaridagi obraz nomi).
- Said Ahmadning sho'ro hukumati davridagi zohiran tinch, turg'unlik yillarida kechirgan kunlaridan hikoya qiluvchi romani.
- Oybek romanlaridan birining nomi.

12. Abdulla Qodiriyning 1915-yilda yozgan hikoyasi nomi.

13. "Ufq" asari qahramoni Ikromjonning tutingan o'g'li.

Javoblar:

- "Qadrdon dalalar"
- "Ona va farzand"
- "Ravshan"
- "Alpomish"
- Ko'kdo'nan
- O'zbekim
- Zaydinoy
- Momogul maston
- Akbarali
- Jimjitlik
- Navoiy
- "Uloqda"
- Nizomjon

III. Yangi mavzu bayoni.

O'quvchilarga o'tgan darsda Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasini o'qib kelish qo'shimcha topshiriq sifatida berilgan edi.

Hikoya 1999-yilda yozilgan. Hikoyada o'zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali ta'kidlanadi.

O'quvchilar bilan hikoya yuzasidan bahs-munozara-ga kirishiladi. Hikoya mazmuni va qahramonlari haqida fikr almashiladi. Keyin o'qituvchi tomonidan quyidagi jadval ko'rsatiladi.

Hikoya qahramonlari	Qahramonlarning asosiy xususiyatlari
Saodat aya	Yoshligida chiroyli, sochlari taqimini o'pgan, opasi bu sochlarni qirqta qilib o'rganda yana shunchasi ortib qolgan. Yillar o'tib soch ham oqardi, siyraklashdi.
Qorako'z	Saodat ayaning iti. Oppoq, kichkinagina, belida belbog'dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor.
Qumri	Saodat ayaning baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi.
Bo'rixon	Saodat ayaning 32 yil burun armiyaga ketib, o'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li. "1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi..." (Gap Bo'rixon haqida ketyapti)

Anvar	Saodat ayaning udli-shudli, har ish qo'li-dan keladigan nabirasi. Tog'amni topib kelaman deb chiqib ketib, 20 kun deganda daragini topib keladi
Usta Turob	Saodat ayaning bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri

“Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor bo'lur), ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar.” (“Qur'oni Karim”, “Baqara” surasi, 217-oyat)

“Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu “As'hobi kahv”ning vafodor itidir” (hadisi sharif, “Al-jome al-kabir”).

“Qorako'z majnun” hikoyasiga yuqoridagi oyat va hadis epigraf sifatida tanlangan. Yangi mavzuni o'rganish davomida o'quvchilar “Baqara” surasidan olingan oyat Bo'rixonga, As'hobi kahv to'g'risidagi hadis esa asardagi xuddi ongli va oqil insondek tasvirlangan Qorako'zga tegishli ekanligini bilib oladilar. Hikoya ichidan Bo'rixonning qilmishlari topib o'qiladi: “Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Qallig'ining otasi boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi”.


IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Har bir guruhga savol yozilgan tarqatma beriladi.

“Imon” guruhiga: Hikoya nima uchun “Qorako'z majnun” deb nomlangan?

Javob: “Qorako'z majnun” Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozgan eng yaxshi hikoyalari sirasiga kiradi. Hikoyaning boshidan oxirigacha yozuvchi Qorako'zni Saodat kampirga doimiy hamroh sifatida tasvirlaydi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo'lsa – xafa, xursand bo'lsa – xursand, kampir o'yg'a cho'msa, u ham o'y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni sog'intirgan bo'lsa ham, Bo'rixon itdan ko'ra Saodat ayaga begonaroqdir. Hikoyada Saodat kampir vafotidan so'ng yozuvchi ham Qorako'zning ruhiyatini o'quvchilarga anglatish maqsadida uning qora ko'zlariga ikki tomchi yoshni chizib qo'yadi. Hikoya oxiridagi Qorako'zning o'limi o'quvchini mahzun qiladi. Uning Saodat ayaga mehri o'quvchini xayolga toldiradi, o'ylantiradi. Qorako'z – haqiqiy majnun.

“Vijdon” guruhiga: O'quvchilar, siz Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan olingan “Qochoq” deb nomlangan parcha bilan tanishgan edingiz. Ana shu ikki asar qaysi tomonlari bilan bir-biriga o'xshaydi?

Javob: Ona va bola munosabati – ular o'rtasidagi mehr-muruvvat ildizlari. Agar shu insoniy fazilat va ildizlar qurisa, oradagi ko'ngil yaqinligi ham barham topadi. Saodat aya ham, Jannat xola ham – jafokash o'zbek ayoli siymosi. Bo'rixonni er-xotin 6 yoshida Turkistonga olib borib, hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kestirgan, qo'y



so'yib xudoyi qilishgan. Ana shu farzandining Islom dinidan chiqishi onaning o'limiga sabab bo'ldi.

“Qochoq” asari qahramonlari – Ikromjon va Jannat xola mehnatkash odamlar. Biroq ular hayotida falokat yuz beradi – ularning yer-u ko'kka ishonmay o'stirgan yolg'iz o'g'illari Tursunboy urushga ketayotib qochadi, ularning yuzini yerga qaratadi. Eng yomoni, Tursunboy qochib kelib, ular o'zlashtirayotgan to'qayzor ichkarisiga joylashib olgan. Bu sirni onasi Jannat xolagina biladi. U ikki o't orasida. Bir tomondan, o'g'lining Vatanga xiyonati ich-ichini o'rtasa, ikkinchi tomondan, yolg'iz farzandiga joni achiydi. Qochoq o'g'lini boqish, uni kishilar ko'zidan yashirish bilan ovora bo'lib, tinkasi qurigan mushtipar ona kasal bo'lib vafot etadi.

Tursunboy qochoq, Bo'rixon dindan chiqqan. Tursunboy ayni yigit yoshida darvesh qiyofasiga kirib qolgan, Bo'rixon ellik bir yoshida yetmish yashar cholga o'xshab qolgan.

“E'tiqod” guruhiga: Saodat aya tabiati haqida gapiring.

Javob: Saodat aya tabiatida o'zbekning chin musulma ayollariga xos mulohazakorlik mujassam. O'g'lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo'ladi, “birovga gapini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi”. Ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli soviydi, ketar mahali undan yuz o'giradi. Endi ona sahar namozida o'g'lini eslamay qo'yadi.

V. Baholash va rag'batlantirish.

G'olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar va g'olib guruh rag'batlantiriladi. Ishtirokiga ko'ra barcha o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

Asardan olingan taassurotlar asosida uy inshosi yozib kelish.

Shodiyor PO‘LATOV,

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 65- maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi;

Muhayyo HAMIDOVA,

Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

TUG‘ILGANSAN OZOD, MUDOM OZOD BO‘LIB QOL!

(XI sinf, III chorak)

Darsning mavzusi: Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o’quvchilarga Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni mohiyatini tushuntirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o’quvchilarga ona yurt mustaqilligining qadriga yetish, uni asrab-avaylash milliy istiqlolni saqlashning asosiy sharti, yurt ozodligi uchun kurash umuminsoniy qadriyatlardan biri ekanligini anglatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: E.Vohidov dostoni misolida o’quvchilarning milliy adabiyotga bo’lgan muhabbati, yurt mustaqilligi va ona tiliga hurmat hamda uni asrab-avaylash ko’nikmalarini o’stirish, so’zlarni o’z o’rnida to’g’ri qo’llay olishni ta’minlaydigan malaka va bilimlarni rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan usullar: “Tezkor savol-javob”, “Aqliy hujum”, “Axborotli ma’ruza”, “SWOT-universal”, “Qisqa muddatli test”.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O’quvchilar bilan salomlashiladi, davomat aniqlanadi. Darsning bellashuv tarzida o’tkazilishi e’lon qilingach, o’quvchilar partalar qatori bo’yicha 3 guruhga bo’linadi. O’quvchilarning javoblari shaxsiy va jamoaviy tarzda baholanishi eslatiladi.

II. O’tilgan mavzuni mustahkamlash.

O’tilgan mavzu E.Vohidovning hayoti va ijodi “**Issiq kartoshka**” usulida so’raladi. Bunda o’qituvchi avvaldan savollar yozilgan alohida varaqlardan “kartoshka” tayyorlab qo’ygan bo’ladi. Musiqa bilan birga o’qituvchi uni o’quvchilardan biriga otadi, u “kartoshka”ni ilib olib, boshqa o’quvchiga otadi. Bu orada o’qituvchi musiqani to’xtadi. Kimning qo’lida “kartoshka” qolib ketgan bo’lsa, o’sha o’quvchi uning “po’stini archiydi”, ya’ni varaqlardan birini ajratib olib, undagi savolni o’qiydi. Savolga javob bera olmasa, boshqa o’quvchi javob beradi. So’ng yana musiqa qo’yilib, o’yin hamma varaqlar (6–7 ta savol) tamom bo’lguncha shu tarzda davom etadi (o’tilgan dars mavzusiga mos ravishda xalq artisti Sh.Jo’rayev ijrosidagi “Inson” qasidasi qo’yilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi).

“Issiq kartoshka” usuli uchun savollar:

1. E.Vohidov nima uchun o’zini “ikki qisqa umrning yolg’iz yodgori” deb ta’riflagan?

3. E.Vohidov qayerlarda tahsil olgan?

4. Shoirning qanday she’riy to’plamlari bor?

5. E.Vohidov qanday dramatik asarlar yozgan?

6. E.Vohidov kimlarning asarlarini o’zbek tiliga o’g’irgan?

7. Ushbu ta’rif kimga tegishli? “E. Vohidov she’riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi”.

So’ng yangi mavzuga tayyorlash uchun quyidagi savol beriladi: Nazrul Islom haqida nimalarni bilasiz?

O’qituvchi o’quvchilarning javoblarini tinglab, ularni umumlashtiradi va yangi mavzuni kompyuterning Power Point dasturida tayyorlangan taqdimot yordamida axborotli ma’ruza usuli bilan tushuntiradi.


III. Yangi mavzu bayoni.

O’qituvchi: Nazrul Islom – asrimiz boshlarida chaqindek yaraqlab she’riyatda o’chmas iz qoldirgan, isyonkor she’rlari bilan butun Hindiston yarimorolini larzaga solgan, hayotini Hindistonni chet el mustamlakachilari zulmidan ozod etish ishiga, xalqlar birdamligi, erki, baxti yo’lida fido etgan dovyurak shoir.

Nazrul Islomning “**Tug’ilgansan ozod, mudom ozod bo’lib qol!**” misralari epigraf qilib olingan doston kompozitsion qurilish jihatidan muqaddima, beshta fasl va xotimadan iborat. Asarning har bir bo’limiga, xotimadan tashqari, uning nomlanishi va g’oyaviy maqsadidan kelib chiqib, unga mos rivoyat va naqlar keltirilgan.

Asarning **birinchi fasli “Shoir qalbi”** deb atalib, unda Nazrul Islomning shaxsiyati haqida so’z boradi. U Hindistonning haqiqiy, jonkuyar vatanparvar farzandi sifatida gavdalanadi. Nazrul Islom shoirlikni dardga to’lib yotgan el uchun najotkorlik deb bildi. Uning yuragidagi isyon o’ti umrining so’nggi damigacha so’nmadi. U bir she’riyat majlisida “Isyon qo’shig’i”ni o’qib berdi. Uning bu jasoratidan, erkka chorlovidan hamma lol qoldi. Olomon unga ergashish o’rniga malomat yog’dirishdi. Uni hindu va musulmon orasiga nifoq soluvchi kofir-ujongga chiqardilar.

Dostonning **ikkinchi faslida** 1926-yilda Kalkuttada hindular va musulmonlar o’rtasidagi nizo oqibatida yuzaga kelgan to’qnashuv haqida hikoya qilinadi. Bu nizoni mustamlakachilar o’z hukmronligini mustahkamlash uchun atay uyushtirganligini bilgan Nazrul Islom



xalqni birdamlikka, o'zaro birlashib, hind-muslim orasiga nifoq solayotgan bosqinchilarga qarshi kurashga chorlaydi. Dastlab Bangolada xalqni o'z ortidan ergashtira oladi. Bundan xavotirga tushgan bosqinchilar shoirga Kalkuttadagi hind-muslim g'alayonining sababchisi, degan ayb qo'yib, tuhmat bilan uni qamaydilar. Uni na xalqi, na Thokur bu jazodan qutqarib qola oladi.

Asarning **uchinchi fasli "Tutqunlikda"** deb nomlanib, unda shoirning tutqunlikdagi o'y-xayollari tasvirlanadi. Faslga "Shohi Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat" ilova qilinadi. Unda otasiga qarshi fitna uyushtirib, taxtga o'tirgan Avrangzebning o'z otasi Shoh Jahonni tutqunlikda saqlaganligi haqida bayon etiladi.

Dostonning **to'rtinchi fasli "Sharpalar"** deb ataladi. Unda Nazrul Islom qiyofasida bosqinchilar zulmidan azob chekkan, qamoqda eng og'ir qiynoq – majburiy yolg'izlikning turfa xil aziyatlarini boshidan kechirib, oqibatda aql-zakovatidan ayrilgan ozodlik va erk uchun kurashganlar timsoli tasvirlanadi.

Dostonning **beshinchii fasli "Ozodlik"** deb nomlanadi. El Nazrul Islom ismini bayroq qilib qo'zg'aladi, biroq tor zindondan uning faqat jismini olib chiqishadi. Chunki Nazrul Islom es-hushidan ayrilgan edi. Oradan qirq yil o'tdi. Nazrul Islom bu dunyoda yetmish besh yil yashadi. Ammo o'ttiz ikki yoshida bu dunyoni unutdi.


Dostonning xotimasini muallif **"Nihoyat"** deb nomlaydi. Unda muallif shoir qismati haqidagi o'z falsafiy qarashlari, fikrlarini bayon qiladi. Bu doston nafaqat E.Vohidovning, balki XX asr o'zbek adabiyotining jiddiy yutug'i, mumtoz namunalari qatoridan o'rin olgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

"Toifalash jadvali" usulida "Ruhlar isyoni" dostonining kompozitsion qurilishi takrorlanadi:

"Ruhlar isyoni" dostonining kompozitsion qurilishi asosida jadvalni to'ldiring	
Epigraf	
Muqaddima	"....."
I fasl: "....."	"....." "....."
II fasl: "....."	"....."
III fasl: "....."	"....."
IV fasl: "....."	"....."
V fasl: "....."	"....."
Xotima	

"SWOT-universal" usulida Nazrul Islom fojeasi sabablari tahlil qilinadi:



1. Xulosa qilish: ozod va hur Vatanda juda katta baxt.
2. Foiz berish: 30%-10%-10%-50%.
3. Maqsad va vosita: Vatan erki har narsadan ulug'.
4. Bu menga nima berdi? erkin yurtida yashash qadriga yetish kerak.
5. Kelgusi rejalarini belgilash: Vatan ozodligini as-rash uchun xizmat qilish

"Qisqa muddatli test" usulida mavzu takrorlanadi:

1. Hayotini Hindistonni chet el mustamlakachilari zulmidan ozod etish ishiga, xalqlar birdamligi, erki, baxti yo'lida fido etgan shoir nomi qaysi qatorda berilgan?
 - A) Mirzo G'olib
 - *B) Nazrul Islom
 - D) Prem Chand
 - E) Nayyar
2. "Ruhlar isyoni" dostoni kompozitsion qurilish jihatidan qanday qismlardan iborat?
 - A) debocha, beshta fasl, xotima
 - B) muqaddima, rivoyat, naql, xotima
 - D) debocha, fasl, naql, nihoya
 - *E) muqaddima, beshta fasl, xotima
3. Muallif qaysi voqeaga monand "Jaholat to'g'risida rivoyat"ni keltiradi?
 - A) hind-musulmon nizosi
 - B) shoirning hassos qalbi
 - *D) Nazrul Islomning qamalishi
 - E) shoir va jamiyat munosabati

V. Baholash va rag'batlantirish.

O'quvchilar baholanib, baholarga izoh beriladi, faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyg'a vazifa.

Dostondan olingan taassurotlarni ijodiy yondashgan holda qisqacha yozish.



OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA "HAMKORLIKDA ISHLASH" TEXNOLOGIYASI

Ma'lumki, chet til, jumladan, ingliz tilini o'qitishning har bir bosqichi kichik vazifalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, dastlabki bosqichda faol nutq munosabatlarini shakllantrish xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiluvchi mashqlar bajariladi. Keyingi bosqichlarda og'zaki muloqot sohasida ilgari olingan ko'nikmalarni faollashtirish, tabiiy kommunikativ sharoitlarni yaratish yo'li bilan ijtimoiy-madaniy omillarni o'zlashtirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.



Oliy ta'limda talabalarning chet tilidagi so'zlashuvini kengaytirish va faollashtirish, so'zlashuvning o'zaro ta'sirchanligini yaxshilash, ingliz tilidan faol foydalanish uchun mutaxassislikka yo'naltirish va muloqot sharoitlarini yaxshilashga ko'proq e'tibor berish talab etiladi. Til, madaniy va ijtimoiy-madaniy bilimlarni jonli muloqotga bog'lash va yanada takomillashtirish uchun sharoit yaratib beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan muloqot, jamoaviy hamkorlik, kompyuter ta'lim dasturlaridan foydalanish, faoliyat turlarining ko'p funksiyaliligi ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlaydigan asosiy metodologik shartlar hisoblanadi. Shu sababli kichik guruhlarda ishlash so'nggi paytlarda eng ommalashgan ta'lim strategiyasiga aylandi. Ushbu texnologiya nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, uning yordamida barcha talabalar tenglikda biror vazifani bajarishda faol ishtirok etishi, hamkorlik ko'nikmalarini amalda qo'llash, o'zaro muloqot qilish, turli ijtimoiy-ta'limiy rollarni o'ynash, bir-birlaridan o'rganish, o'zgalarning fikrlarini qadrlashga o'rgatish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

Hamkorlikda ishlash ta'lim yondashuvini amalda qo'llashda o'qituvchi talabalarni "yo'naltiruvchi" va ularning "maslahatchisi"ga aylanadi va, asosan, guruh ishini to'g'ri yo'naltirish vazifasini bajaradi. Kichik guruhlarda o'qitishning yana bir afzalligi shundaki, bunday metoddan foydalanilganda bilim jihatdan "zaifroq talaba unga topshirilgan vazifani bajarishda guruhning qolgan a'zolari (yoki o'ziga birlashtirilgan bitta "yetakchi" hamroh) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, bu o'z o'rnida mavzuni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini

oshiradi. Kichik guruhlarda ishlashning asosiy prinsiplari bu har bir a'zoning teng ishtiroki, uning g'alabaga o'z hissasini qo'sha olishga intilishi bo'lib, bunday holat darsdagi psixologik muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, guruh a'zolarini umumiy maqsad yoki mukofot yo'lida birlashtiradi.

"Hamkorlikda ishlash" ta'lim texnologiyasining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda guruh ishlarini tashkil qilishda ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin: ba'zi talabalar passiv yoki aksincha, o'ta faol, hatto "tajovuzkor" bo'lishlari ham mumkin. Odatda, bir yoki ikki talaba mashg'ulotlarda "yetakchi-liderlar" sifatida taniladi va ular qolganlarga nisbatan ko'proq vazifalarni bajaradilar; guruhdagi boshqa talabalar mustaqil qaror qabul qilishdan qochishadi, natijada guruhda barcha taklif qilingan g'oyalar ham hisobga olinavermaydi.

Quyida kichik guruhlarda qo'llash uchun mo'ljallangan turli faoliyat namunalari keltirilgan. Ulardan o'z o'rnida samarali foydalanish chet tili darslarini yanada kommunikativlik bilan boyitadi va nafaqat og'zaki nutq, balki boshqa asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirishda ham qo'l keladi:

"Brainstorming" ("Aqliy hujum"). Har bir ishtirokchi virtual yaratilgan muammoni hal qilish bo'yicha takliflar kiritadi, kiritilgan takliflar guruhning boshqa a'zolari bilan birgalikda muhokama qilinadi va umumiy javob tayyorlanadi. Ishning bunday shakli darsdagi yangi materiallarni tanishtirish, mavjud masalalarni muhokama qilish, o'z g'oyalarini erkin bayon etish, mavzu bo'yicha ko'proq ma'lumotlarni yoki, aksincha, qarama-qarshi fikrlarni taklif qilishlari

kerak bo'lgan "bahs-munozaralar" formatida ishlashga juda mos keladi.

"Aql xaritasi". "Aqliy hujum"dan farqli o'laroq, bunda avval o'rganilgan mavzu bo'yicha ma'lumotlar xaritasi sarhisob qilinadi. Bunday ishlar bir nechta vazifani bajarishga yordam beradi: o'zlashtirilayotgan materiallarni tizimlashtirish va umumlashtirish; bilim bo'shliqlarini to'ldirish; tezkor va samarali bajarish imkonini beradigan mantiqiy sxemalarni ishlab chiqish (masalan, sinov yoki imtihonga tayyorgarlik paytida materiallarni takrorlash) kabi.

"Jig Saw" yoki **"Amerika mozaikasi" (jumboq)** usuli, asosan, yangi, qo'shimcha ma'lumot bilan tanishish bosqichida qo'llaniladi. O'qituvchi kerakli materiallarni bir nechta nusxada tayyorlaydi, ma'lumotlar bir qancha bo'laklarga bo'linadi. Guruh a'zolarining har biri ma'lum bir ma'lumot yashirilgan materiallarni tanlaydi va ko'rib chiqadi. Shundan so'ng xuddi shu tipdagi ma'lumotga ega bo'lgan boshqa guruh a'zolari bilan ishlash va o'qiganlarini muhokama qilish talab etiladi, eng muhim ma'lumotlar yoritilib, materiallar boshqa guruhdagilarga taqdim etiladi. "Jig Saw" faoliyat turining yana bir afzalligi shundaki, bu kabi vazifalarda talabalar bir necha turdagi materiallar bilan qisqa muddatda tanishib chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Ushbu faoliyat turidan foydalanishning namunasi sifatida "Dunyodagi top – 10 talikka kirgan eng ko'p haq to'lanuvchi kasblar" mavzusini keltirish mumkin: talabalarga mashhur jurnalistning turli xil kasbiy faoliyatlar to'g'risida tayyorlangan maqolasi qismlarga bo'linib taqdim etiladi. Matndan mutaxassisning ish joyi, faoliyati to'g'risidagi eng qiziqarli ma'lumotlar joy oladi; har bir qism o'rganiladi va boshqa jamoa a'zolari bilan ma'lumot almashish natijasida har bir talaba zarur ma'lumotlarning to'liq qismiga ega bo'ladi. Vazifani bajarish vaqtini sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Ba'zi tashkiliy qiyinchiliklarga qaramasdan, bu usul ta'lim jarayonini takomillashtiradi va ma'lumotlarni samarali ravishda umumlashtiradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, guruhni imkon qadar kichikroq tashkil qilish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'pgina muammolarga yechim bo'lishi mumkin.

Bunda talabalarning guruhlardagi eng maqbul soni 3–5 kishidan iboratligi. Bu guruhning barcha a'zolari vazifada faol ishtirok etishlarini ta'minlaydi. Bundan tashqari kichik guruhlar navbatdagi vazifalar uchun osonlik bilan qo'shimcha ravishda ichki guruhlar bo'linishlar mumkin. Shuningdek, guruh ishini tashkil qilishda quyidagilarni inobatga olish talab etiladi:

1) talabalar guruh vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega ekanligini ko'rib chiqish;

2) topshiriqlarning aniq va sodda tilda bo'lishi;

3) vaqt, ya'ni taym-menejmentga qat'iy rioya qilish.

Kichik guruhlarini shakllantirishda ham bir qancha yo'nalishlar mavjud:

a) talabalarni xohishiga qarab guruhlash;

b) guruhlarini "lotoreyalar" orqali tuzish (masalan, kartochka rangiga qarab);

d) "yetakchi" va "yordamchi" guruhlariga ajratish (bilim darajasiga ko'ra);

d) guruhlarini "tasodifiy" shakllantirish va hokazo.

Yana bir asosiy vazifa ishtirokchilarning guruhdagi rollari (tashkilotchi, bayonnoma tuzib boruvchi, vaqt nazoratchisi, muxbir, kuzatuvchi kabi), materiallar va vazifalarini to'g'ri taqsimlay olishda. Bunda birinchi navbatda dars to'g'ri rejalashtirilgan va har bir guruh a'zolarining berilgan vazifa-topshiriqlarda tengligi ta'minlangan bo'lishi lozim.

"Hamkorlikda ishlash" – nafaqat turli til ko'nikmalarini (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozish) rivojlantiruvchi ta'limiy vosita, balki jamoada ishlash malakasini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy faoliyat turi hamdir. O'zaro bog'liqlik prinsipi butun guruhning muvaffaqiyatli ishlashida guruhning har bir ishtirokchisi ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Xullas, kichik guruhlarda ishlash amaliyoti mustaqil ishni tashkil etish, taqdimot o'tkazish yoki nazorat shakllaridan biri sifatida ham ishlatilishi mumkin. Talabalar bunda nafaqat mavzu bo'yicha bilimlarini namoyish etadi, balki o'zida kasbiy mahoratni sinab ko'rish, yetakchilik fazilatlarini namoyish etish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baranova N.M., Zmushko A.A. Innovative Technologies: Training In Small Groups On The Method Of Cooperation. Russian State Social University, 2013.
2. Bailey K.M. Practical English Language Teaching: Speaking. New York: McGraw-Hill, 2005.
3. Johnson D.W., Johnson R.T., Mary B. S. Cooperative Learning Methods: A Meta-Analysis. University of Minnesota, 2000.
4. Goh C. Teaching speaking in the language classroom. Singapore: SEAMEO Regional Language Centre, 2007.
5. Patil, Z.N. Rethinking the objectives of teaching English in Asia. Asian EFL Journal. 10 (4), 227-240. Retrieved from http://www.asian-efl-journal.com/December_08_zn.php. 2008.
6. Trent, J. Enhancing oral participation across the curriculum: Some lessons from the EAP classroom. Asian EFL Journal, 11(1), 256-270. 2009.
7. Бим Л.И. Концепция обучения второму иностранному языку (немецкому на базе английского). Москва, 2001.
8. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя, 2003.
9. <http://www.co-operation.org/>



Botir TOJIBOYEV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

“O'ZBEK TILI ASSOTSIATIV LUG'ATI (MILLIY-MADANIY BIRLIKLAR)” MATERIALLARINING LINGVISTIK TAHLILI

“O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar)” o'zbek tili sohiblarining lisoniy qobiliyatini namoyish etuvchi lug'at sifatida ahamiyatli. Lug'at mualliflari fikricha, “bu tipdagi lug'atlar muayyan tilning lug'at tarkibini tekshirish, til egalariining leksik zaxirasi, xotirasi haqida ma'lumotga ega bo'lish, olam haqidagi tasavvurlari, bilimining tilda aks etishi masalasini o'rganish, tilni me'yorlashtirish kabi maqsadlarni ko'zda tutadi”¹. Xarakterli jihati shundaki, bu lug'at o'zbek xalqining tarixiy madaniyati haqida ham ma'lumot bera oladi.

Ahamiyatli jihati shundaki, lug'atda stimuly so'z vazifasini bajargan har bir milliy-madaniy birlikning semantik strukturasi, derivatsion, uslubiy, dialektal, pragmatik xususiyatlari to'liq ochib berilgan, sintaktik aloqalari yorqin aks etgan. Unda so'zning izohli lug'atlarda aks etmagan madaniy semasi, shevaga xos variantlari ham o'z ifodasini topgan. Masalan, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da *palov* leksemasining milliy-madaniy semasi qayd etilmagan. Bu sema assotsiativ maydonda quyidagi birliklar orqali ochib berilgan: *milliy taom, milliy ovqat, milliylik, milliylik ifodasi, o'zbek milliy taomi*.

Shuningdek, lug'atdan o'zbek tili sohiblari xotirasidan mustahkam o'rin olgan pretsedent birliklar, konnotativ ifodalar, til sohiblarining baho munosabatini aks ettiruvchi o'ziga xos qo'llanishlar o'rin olgan. Quyida lug'atda berilgan *palov* stimuly so'zining assotsiativ maydonini tahlil qilamiz:

PALOV: osh 91; taom 57; guruch 38; payshanba 9; sabzi 8; ovqat 7; oila 5; devzira 4; zig'ir yog' 4; choyxona 4; achchiq-chuchuk 3; dada 3; go'sht 3; lazer 3; mehmon 3; ona 3; yig'in 3; o'zbek 3; o'choq 3; alanga guruchi 2; Andijon 2; bayram 2; dumba 2; issiqlik 2; kartoshka palov 2; lanj 2; maslahatoshi 2; ma'raka 2; milliy taom 2; nahor oshi 2; ota 2; oshpaz 2; piyoz 2; qozon 2; to'y 2; Xorazm guruchi 2; yakshanba 2; zig'ir moyi 2; zira 2; Abu Ali ibn Sino, andijoncha osh, andijoncha, arvoh, arvoh oshi, avangard guruchi, aza ma'rakasi, alanga, achchiq-chuchuk salati, bayramlar, bazm, bedana tuxumi, behi, “Bir kuning qolsa ham osh ye, Ming kuning qolsa ham osh ye”, “Bir necha usulda tayyorlanadi”, bodring, Buxoro, buxorocha osh, bug'latish, dadam, dam olish zonasi, damgir, damlash, damtovoq, damcho'p, dasturxon, dasturxon atrofida o'tirish, davra, devzira guruchi, devzira palov, dumba yog'i, do'st-birodalar, do'stlar, el oldidan o'tish, erkaklarning sevimli taomi, eng yaxshi taom, Gulmira kursdoshim, “Guruchdan tayyorlanadi”, guruch aralashirilgan yog'li taom, “Har bir viloyatning osh pishirish uslubi bor”, idish-tovoq, ilik yog'i, ishtaha ochuvchi taom, ivitilgan guruch, ivitma palov, Jizzax, Jizzax oshi, juda shirin ovqat, juda to'yim-

li taom, kapgir, kart dumba palov, kartoshkali palov, katta doshqozon, katta qozon, keksa nuroniylar, kelinoyim, kosa, kovatok, kovatokli palov, “Kuningdan bir kun qolsa ham osh ye, pulingdan bir so'm qolsa ham osh ye”, kursdoshlarim, ko'k choy, lagan, lali, lanj osh, lanj palov, lazer guruch, mayiz solingan osh, mayiz, mazali, mazali taom, ma'raka oshi, mehmon keladigan kun, mehmon kelishi, mehmonbop ovqat, mehmondorchilik, milliy bayramlar, milliy g'urur, milliy ovqat, milliylik, milliylik ifodasi, moy, murch, Namangan oshi, Nizomiy universiteti, non palov, non, no'xot, “O, palov, go'zal palov, devzira oshidir palov, oshpazning mehri bilan dunyoga kelganmish palov”, oila davrasi, oilaviy kechki ovqat, oilaviy ovqat, ola palov, olma, olov, onam, oqshom palov, oqsoqollar, “Osh – ko'tarma bosh”, osh berish, “Osh bo'lsin” ko'rsatuvi, osh damlash, osh lagan, osh masallig'i, osh musobaqasi, osh xomi, osh yeyish, osh zirvagi, “Oshga marhamat!”, oshga unnash, oshlik mayiz, oshnalar, “Oshni yaxshi ko'rmagan odam bo'lmasa kerak, ayniqsa, o'choqda pishirilgan osh juda ham mazali bo'ladi”, oshning ikkinchi nomi, oshpalov, oshpaz mahorati, oshxona, oshxo'r, oshxo'rlik, ot yog'i, oyim, o'simlik moyi, o'zbek milliy taomi, o'zbek oshpazlari, o'zbek oshxonasi, “O'zbek taomlari” kitobi, o'zbek xalqi, “O'zbekning to'y va bayramlari palovsiz o'tmaydi”, padaroshi, palov damlash, “Palov desang – payshanbaga, do'lma desang – dushanbaga”, palov hidi, palov mayizi, palovto'ra, palovxona, palovxonlik, palovxonto'ra, palovxo'r, palovxo'rlik, paxta yog'i, payshanba kuni dasturxon atrofida oila a'zolarining jamuljam bo'lishi, payshanbaliq, pomidor, qaynatish, qazi solingan palov, qazi-qarta, qirmoch, qirq kilolik osh, qiz oshi, qizil sabzi, qish fasli, qoraqand, qovurish, qovurma palov, qozonda pishayotgan palov, qozon-o'choq, qovurma palov, quyuq ovqat, qo'y go'shti, qo'y yog'i, qo'y dumbasi, “Ruschada – plov”, sabzi qirqish, sabzi to'g'rash, “Sabzilari ko'p bo'lgan oshni yaxshi ko'raman”, sabzili palov, salat, Samarqand oshi, samarqandcha osh, samovar palov, sarimsoq palov, sarimsoqpiyoz, sariq mayiz, sariq sabzi, “Savzito'g'rar”, sayil, seryog' palov, sofi osh, suv, tanaffus, tandirxona, tansiq taom, taomlar shohi, tarelka, tilovat, Toshkent, Toshkentning oshi, tug'ilgan kun, turp, tushlik, tuz, to'qchilik, “To'ylarda eng obro'li taom hisoblanadi”, to'ylarda qilinadigan asosiy taom, to'y oshi, to'y-tomosha, to'kin-sochinlik, to'g'rama palov, ustida qo'y dumbasi dirillab turgan osh, “Viloyatlarda turlicha qilinadi”, xalqimizning sevimli taomi, xalta palov, xonaki palov, Xorazm, xotin oshi, xursandchilik, xushbo'y hid, xushbo'y is, yakshanba va payshanba kunlari qilinadigan taom, yaqinlar, yaqinlar davrasi, yaxshi ko'rgan

ovqatim, yil oshi, "Yoqimli ishtaha!", yog', yubiley oshi, UNESCO ro'yxatiga kiritilgan taom, yurtga osh berish, yuz kishilik palov, ziravorlar, zirvak, ziyofat, O'tkir aka, O'tkir akaning oshi, O'tkir akaning oshxonasi, "O'ldirsa ham, osh o'ldirsin", o'zbek xonadoni, o'zgacha ta'm, o'choq oshi, shirin, sholg'om, "Shum bola", "Chaqaq osh" choyxonasi, sarimsoq, sarimsoqli osh, chet ellik mehmonlar, choy, choyxona oshi, choyxonachi, Chust oshi, cho'mich 1; (535+280+39+241+0)²

Palov leksemasining semantik xususiyatlari: lug'aviy ma'nosi, semik tarkibi. Ma'lumki, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *palov* so'ziga quyidagicha izoh berilgan: **PALOV** [f.] Asosiy masallig'i guruch, yog', go'sht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va damlab tayyorlanadigan quyuq ovqat; osh.³ *Palov* leksemasining bu ma'nosi quyidagi birliklar orqali ochib berilgan: osh, "Guruchdan tayyorlanadi", guruch aralashtirilgan yog'li taom, oshpalov.

Palov leksemasining lug'aviy ma'nosi semalari quyidagi birliklar orqali voqelangan: *guruch, sabzi, ovqat, devzira, zig'ir yog', go'sht, alanga guruchi, milliy taom, Xorazm guruchi, zig'ir moyi, avangard guruchi, alanga, damlash, devzira guruchi, ilik yog'i, lazer guruch, milliy ovqat, moy, osh damlash, o'simlik moyi, palov damlash, paxta yog'i, qovurish, quyuq ovqat, qo'y go'shti, qo'y yog'i, yog'.*

Palov leksemasi shevalarda, ko'pincha, *osh, osh-palov* tarzida qo'llaniladi.

Palov leksemasining sintaktik aloqalari. *Palov* leksemasi assotsiativ maydonda *stimul so'z + assotsiativ birlik* munosabatida quyidagi aloqa-bog'lanish turlari kuzatiladi:

Sintagmatik munosabat. Tobe aloqa usullari: a) boshqaruv: **PALOV:** *damlash*; b) moslashuv: **PALOV:** *taom, ovqat, issiqlik, lanj, milliy taom, andijoncha, erkaklarning sevimli taomi, eng yaxshi taom, "Guruchdan tayyorlanadi", guruch aralashtirilgan yog'li taom, ishtaha ochuvchi taom, juda shirin ovqat, juda to'yimli taom, mayiz solingan osh, mazali, mazali taom, ma'raka oshi, mehmonbop ovqat, milliy g'urur, milliy ovqat, milliylik, milliylik ifodasi, oilaviy kechki ovqat, oilaviy ovqat, oshning ikkinchi nomi, o'zbek milliy taomi, payshanba kuni dasturxon atrofida oila a'zolarining jamuljam bo'lishi, quyuq ovqat, tansiq taom, taomlar shohi, to'ylarda qilinadigan asosiy taom, to'y oshi, ustida qo'y dumbasi dirillab turgan osh, xalqimizning sevimli taomi, yakshanba va payshanba kunlari qilinadigan taom, yaxshi ko'rgan ovqatim, UNESCO ro'yxatiga kiritilgan taom, O'tkir akaning oshi, choyxona oshi.*

Ko'rinadiki, *palov* leksemasi bilan faqat *damlash* birligi boshqaruv munosabatini hosil qila oladi. Assotsiativ maydonda *qaynatish, qovurish, bug'latish* kabi fe'llar ham mavjud, ammo ular *palov* leksemasi bilan mantiqan bog'lana olmaydi.

Assotsiativ maydonda *palov* leksemasi bilan moslashuvli birikma hosil qila oladigan assotsiativ birlik ku-

zatladi. Ammo qator assotsiativiyalar *palov* leksemasi bilan moslashuv usulida bog'lanib, ko'plab jumalarni hosil qila oladi. *Palov* leksemasining *Guruchdan tayyorlanadi* egasiz gapi bilan sintagmatik aloqasi mazkur gapni egali gapga aylantirishga olib keladi: *Palov guruchdan tayyorlanadi*. Bu holat til sohiblarining jumla tuzishida assotsiativ birliklardan unumli foydalanishini dalillaydi.

Assotsiativ maydonda *palov* leksemasi bilan bitishuv munosabatida bog'lanuvchi bironta birlik kuza-tilmadi. Bunga o'zbek tilida ot turkumiga mansub birlikning faqat o'zidan oldingi birlik bilan bitishuvli birikma hosil qilishini ko'rsatadi.

Til sohiblarining palovga nisbatan baho munosabatining ifodalanishi. Quyidagi assotsiativiyalarda til sohiblarining baho munosabati yorqin aks etgan: *erkaklarning sevimli taomi, eng yaxshi taom, ishtaha ochuvchi taom, juda shirin ovqat, juda to'yimli taom, mazali, mazali taom, Oshni yaxshi ko'rmagan odam bo'lmasa kerak, ayniqsa, o'choqda pishirilgan osh juda ham mazali bo'ladi, Sabzilari ko'p bo'lgan oshni yaxshi ko'raman, To'ylarda eng obro'li taom hisoblanadi, xalqimizning sevimli taomi, yaxshi ko'rgan ovqatim, lanj osh, lanj palov.*

Ko'rinadiki, o'zbek tili sohiblari *palovga* nisbatan, asosan, ijobiy munosabat bildirishgan. Bu holat *palovning* o'zbek xalqining eng sevimli milliy taomlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xullas, *palov* leksemasining assotsiativ maydoni tahlili quyidagi lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon beradi: 1) *palov* leksemasi milliy-madaniy birlik sifatida o'zbek milliy taomi nomini bildiradi; 2) *palov* leksemasi nutqda *osh, palovxonto'ra, oshpalov* kabi sinonimlarga ega; 3) *palov* leksemasi mavzu jihatidan o'zaro yaqin so'zlar bilan uyadoshlik munosabatiga birlashadi; 4) tegishli birliklar bilan jins-tur, butun-qism munosabatiga kirishib, paradigma qatorini shakllantiradi; 5) *palov* leksemasi asosida *pavlovto'ra, palovxonto'ra, palovxo'r, palovxo'rlik, palovxona, oshpalov* yasamalari hosil bo'lgan; 6) o'zbek tilida *palov* leksemasi ishtirokida ko'plab ibora, matal, maqollar yaratilgan; 8) *palov* leksemasi o'zidan keyin kelgan so'zlar bilan boshqaruv, moslashuv; o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan esa bitishuv usulida bog'lanib, birikma va gaplarni shakllantirib, ularning tayanch birligi vazifasini bajaradi.

Palov leksemasi assotsiativ maydoni asosida quyidagi ekstralingvistik bilimlarni bayon qilish mumkin: 1) *palov* o'zbek xalqining sevimli milliy taomi sifatida har bir o'zbek xonadonidan o'rin olgan; 2) til sohiblari *palov* masallig'larini, uning pishirilish texnologiyasi, turlari bo'yicha yetarli bilimga ega; 3) *palov* o'zbek oilalarida, ko'pincha, payshanba va yakshanba kunlari pishiriladi; 4) *palov* nafaqat oila dasturxonini, balki o'zbek to'y va marosimlarining ham ko'rki hisoblanadi; 5) *palov* milliy qadriyat sifatida UNESCO ro'yxatiga kiritilgan.

¹ D.Lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyev. O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019. 8-bet.

² Ko'rsatilgan lug'at. 206-bet.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. III jild. 210-bet.

Abdumurod NOMOZOV,
Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

MATNDAGI IBORALARNI ANIQLASH VA ULARNING XUSUSIYATLARINI YOZMA IZOHLASHGA O'QUVCHILARNI O'RGATISH



Turg'un so'z birikmalari – iboralarning ma'no xususiyatlarini o'rganish, ularning tilimizda so'z, qo'shma so'z kabi tayyor til materiali bo'lib qo'llanilishi, barqaror birikmalarning boshqa turlari (maqol va matallar, hikmatli so'zlar) bilan o'xshash hamda farqli tomonlari, iborani tashkil etgan so'zlarning o'zaro bog'langanligi, matn ichida qo'llanilgan iboralarning chegarasi (birinchi va oxirgi so'zi)ni to'g'ri belgilash, gap tarkibidagi iboraning sintaktik tahlilini to'g'ri amalga oshirish kabi xususiyatlarni bilish o'quvchi uchun qiziqarli. Shu kabilarni mustaqil o'rganishga qiziqtirish o'quvchining o'z ustida ishlashiga, izlanishiga turtki beradi. Bizningcha, mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish uchun, avvalo, o'qituvchi mavzuga maqsadli yondashib, aniq bir topshiriqni berishi, o'quvchining idroki va ijro etish qobiliyatini his qilishi kerak. Bunda o'quvchi matn ustida ishlaydi. Masalan, o'qituvchi quyidagi matnni o'quvchiga tavsiya qildi deb faraz qilaylik:

1. Bizning mahallamizda tegirmonga tushsa butun chiqadigan yigitlar ko'p. 2. Aravani quruq olib qochish sizga yarashmaydi. 3. Rahbar qovog'idan qor yog'ganicha kirib keldi. 4. Boshi qotgan qiz kalavaning uchini topdi.

O'quvchi ushbu matnda ishtirok etgan iboralarni dastlab kartochkalarga yozib chiqadi, iboralarning izohli lug'atidan foydalanib ularning ma'no xususiyatlarini izohlovchi matn tuzadi:

Bizning mahallamizda tegirmonga tushsa butun chiqadigan yigitlar ko'p jumlasida ishtirok etgan "tegirmonga tushsa butun chiqadigan" iborasi "har qanday qiyin sharoitda ham qutulish yo'lini topa oladigan" tarzida izohlanadi. Bu ibora to'rt so'zdan tashkil topib, yaxlit holda "qanday?" so'rog'iga javob bo'ladi. Bu so'roqning berilishiga sabab ibora ot turkumiga oid "yigitlar" so'ziga bog'langan. Bunday holatda ibora yaxlitligicha sintaktik jihatdan aniqlovchi deb tahlil qilinadi. Odatda, sintaktik tahlilda so'zlarning bir-biri bilan munosabatga kirishuvi orqali gap bo'laklari aniqlanadi. Demak, birinchi jumla-

ning to'liq sintaktik tahlili quyidagicha bo'ladi:

a) bizning – kimning? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **qaratqich aniqlovchi**;

b) mahallamizda – qayerda? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **o'rin holi**;

d) tegirmonga tushsa butun chiqadigan – qanday? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **sifatlovchi aniqlovchi**;

e) yigitlar – kimlar? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ega**;

f) ko'p – qancha? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ot-kesim** vazifasini bajaradi.

Aravani quruq olib qochish sizga yarashmaydi jumlasida qatnashgan "aravani quruq olib qochish" iborasi "uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanish" mazmunini ifodalaydi. Bu ibora to'rt so'zdan iborat bo'lib, "nima?" so'rog'iga javob bo'ladi. Kesimdan berilgan bu so'roqqa javob bergani uchun tahlilda ibora ega deb belgilanadi. Ushbu jumlada ibora tarkibiga kirmagan "sizga" so'zi – vositali to'ldiruvchi, "yarashmaydi" so'zi – kesim, fe'l-kesimdir. Qisqasi, jumlaning to'liq sintaktik tahlili quyidagicha bo'ladi:

a) aravani quruq olib qochish – nima? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ega**;

b) sizga – kimga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **vositalli to'ldiruvchi**;

d) yarashmaydi – nima qilmaydi? so'rog'iga javob bo'lib, **fe'l-kesim** vazifasini bajaradi.

Rahbar qovog'idan qor yog'ganicha kirib keldi jumlasida mavjud bo'lgan "qovog'idan qor yog'ganicha" iborasi "qay tarzda?", "qanday?" so'roqlariga javob bo'lib, uch so'zdan iborat. Bu ibora xafa, g'amgin ma'nolarini ifodalab, kesim vazifasidagi "kirib keldi" so'ziga bog'langan. Shu sababli bog'lanib kelgan so'zga tayanib, iborani sintaktik tahlilda hol vazifasida kelgan deb hisoblaymiz. Ibora ishtirok etgan ushbu gapning to'liq sintaktik tahlili quyidagicha bo'ladi:

a) rahbar – kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ega**;

b) qovog'idan qor yog'ganicha – qay tarzda? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ravish holi**;

d) kirib keldi – nima qildi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **fe'l-kesim** vazifasini bajaradi.

Boshi qotgan qiz kalavaning uchini topdi jumlasida ikki ibora ishtirok etgan. Birinchisi "boshi qotgan" ikki so'zdan iborat bo'lib, "o'ylangan" degan mazmunni ifodalagan bo'lsa, ikkinchi ibora "kalavaning uchini topdi" uch so'zdan tashkil topgan. "Boshi qotgan" iborasi otga tegishli "qiz" so'ziga "bog'langan va "qanday?" so'rog'iga javob bo'lib, aniqlovchi vazifasida kelgan. "Kalavaning uchini topdi" iborasi "jumboqni hal qilish yo'lini topdi" mazmunini ifodalab, yaxlitligicha kesim vazifasida kelgan. Demak, jumlaning to'liq sintaktik tahlili quyidagicha bo'ladi:

a) boshi qotgan – qanday? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **sifatlovchi aniqlovchi**;

b) qiz – kim? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **ega**;

d) kalavaning uchini topdi – nima qildi? so'rog'iga javob bo'lib, gapda **fe'l-kesim** vazifasini bajaradi.

Biz mustaqil ishda o'quvchidan iboralar ma'nosining to'g'ri izohlanishi va sintaktik tahlilining to'g'ri bajarilishini talab qilishga haqlimiz. Sintaktik tahlil jarayonida o'quvchilarda ko'p uchraydigan asosiy nuqsonlar quyidagilar:

– iborani tashkil etgan so'zlarni qismlarga bo'lib sintaktik tahlil qilish;

– iboraning gapdagi chegarasini to'g'ri belgilay olmaslik;

– ibora yaxlitligini his qilmaslik.

Demak, shu kabi nuqsonlarga yo'l qo'yilayotgani ham ona tili mashg'ulotlarida o'rganiladigan "Iboralar" mavzusini mustahkamlash zaruriyatini, mavzu yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil qilish muhimligini yuzaga keltiradi. Shu ma'noda iboralarining yaxlitligi, ma'no xususiyatlari, sintaktik tahlili haqida yozilgan mustaqil ish o'quvchining "Frazeologiya" bo'limi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi, takrorlash vazifasini o'taydi. O'quvchi mustaqil ishda ibora haqida yanada to'liqroq ma'lumot berishni maqsad qilgan ekan, uning shakl va ma'no jihatdan turlarga bo'linishiga doir ma'lumotlarni ham havola qilishi shubhasiz. Bunda o'quvchi iboraning ba'zi hollarda shaklan gapga teng kelib qolishi (masalan, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, qo'l qo'ydi kabi)ga e'tibor qaratadi. So'zlarda bo'lgani kabi iboralarda ham shakl va ma'no jihatdan to'rt turga bo'linishning mavjudligiga misollar keltiradi, fikrlarini iboralar tahlili orqali isbotlaydi:

1. Sinonim iboralar – shaklan har xil, biroq ma'no xususiyatlari bir-biriga yaqin iboralar. Masalan, "do'ppi-sini osmonga otmoq", "boshi osmonda" iboralari "juda xursand", "nihoyatda shod" ma'nolarini ifodalashi bilan

ma'nodoshdir. Bunday iboralar doimo o'zi ifodalagan ma'no bilan sinonim bo'ladi: "qo'y og'zidan cho'p olmag'an" iborasi o'z ma'nosi hisoblangan "nihoyat darajada beozor", "mo'min" so'zlari bilan sinonim bo'la oladi. Buni leksik-frazeologik sinonimlar deymiz. O'quvchilar test topshiriqlarini bajarish jarayonida "Frazeologik sinonimlarni belgilang" mazmunidagi topshiriqqa, ko'pincha, yuqorida keltirilganidek, leksik-frazeologik sinonimlarni javob sifatida tanlamoqda. Vaholanki, bunda bir iboraning ikkinchisiga sinonim bo'lib kelishi ko'rsatilgan javob belgilanishi kerak.

2. Omonim iboralar – shakldosh iboralar bo'lib, ular mazmunan har xil tushunchani ifodalab keladi. Shu sababli testlarda keltirilgan omonim iborani belgilash haqidagi topshiriqqa javob topish o'quvchidan ko'proq o'ylashni, mulohaza qilishni talab qiladi. Agar sinonim iboralarni topishda ularni bir-biriga taqqoslash imkon bo'lsa, omonim iborada bunday imkon bo'lmaydi. Masalan, "gap tegdi" iborasi "gapirishga imkon berildi" va "tanbeh eshitdi" kabi ikki xil izohlanishiga ko'ra omonim hisoblanadi. Demak, sinonim iboralarni topishdan ko'ra omonim iboralarining ma'nosini izohlashga, izlashga ko'proq vaqt sarflanadi.

3. Antonim iboralar, so'z antonimlar kabi, ma'no jihatdan zidlikka ega bo'ladi. Antonim iboralarni topishda ikki iboraning ma'nolarini to'g'ri belgilash va qiyoslash orqali ularning antonimligini aniqlash eng ma'qul yo'ldir. Masalan, "ichiga chiroq yogsa yorishmaydi", "qovog'idan qor yog'adi" iboralarining ma'nolari lug'atda "nihoyatda xafa" deb izohlansa, "og'zi qulog'ida", "boshi osmonda" iboralarining ma'nosi "xursand", "shod" deb izohlanadi. Demak, bu kabi iboralar ma'nosidagi zidlikni ular ifodalagan ma'nolarni bir-biriga qiyoslash orqali aniqlash to'g'ridir.

4. Paronim iboralar tarkibidagi bir so'z bilan farqlanadi. Paronim so'zlarda esa bir harf bilan farqlash, aytishida yaqinlik, ma'noda har xillik kuzatiladi. Paronim iboralarda esa ma'nolardagi yaqinlik saqlanib qoladi. O'quvchi o'z mustaqil ishida bu kabi farqlarga e'tibor qilib, qiyosiy tahlil qilish orqali fikrlarini isbotlaydi: "boshida yong'oq chaqmoq" va "boshida danak chaqmoq" iboralarini misol tariqasida solishtiraylik. Bu iboralar bir-biridan yong'oq va danak so'zlari ishtirokiga ko'ra farqlanadi, biroq ikkalasi ham "ortiq darajada azoblam-oq", "qiynamoq" ma'nosini ifodalashi bilan paronim ibora hisoblanadi.

Xullas, ibora bo'yicha o'quvchining mustaqil ishda bergan fikrlari, xulosalari, tahliliy natijalariga tayanib, o'qituvchi mavzuning qanchalik o'zlashtirilganiga baho beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017.
2. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Zuhra NOSIROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqotchisi

XX ASR YAPON NASRI TENDENSIYALARI

Yapon adiblari ma'nan va badiiy yuksak asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. XX asrning 50–60-yillari kelib yapon nasriy asarlari jahon miqyosida shuhrat qozondi. Yapon adabiyotshunos olimlari yapon adabiyoti tarixida XX asr o'rtalari muhim o'rin egallagan va jiddiy o'zgarishlar davriga aylanganini alohida ta'kidlaydilar. Uch turdan, ya'ni *tampen syosenu* (qisqa nasr), *tyuxen syosesu* (o'rta nasr), *tyuxen syosesu* (uzun nasr)lardan tashkil topgan nasrga to'rtinchi – *dayga syosesu* (katta nasr) kirib keldi. Yapon nasri usluban va mazmunan yangilandi. Janrga xos bo'lgan komponentlar o'zgacha tarzda namoyon bo'ldi. Bunday o'ziga xosliklar nasriy asarlarda shaklsizlik, tartibsizlik, umumodatiy normalarning buzilishi, milliy xarakter, inson ruhiyatini aks ettirish oldingi o'ringa chiqishida aks etadi. K.Ryoxo o'z izlanishlarida adabiyotshunos tanqidchi Sayeki Syoiti ilmiy xulosalariga yuzlanar ekan, yapon yozuvchilari tasavvurida go'zal asar deyilganda struktura nazarda tutilmagani, ularda jamiyatdagi insonlarning ruhiy dunyosi, kechinmalarini mayda detalrigacha yoritish muammosi turganini ta'kidlab o'tadi. Bu davrga kelib yolg'izlik, yolg'iz insonning ruhiy holati haqidagi asarlar ko'paya boshladi. Adabiyotda ijtimoiy hayotdagi muhim muammolardan ko'ra bir inson atrofiga yozilayotgan asarlarni yaratishga bo'lgan moyillik ko'zga tashlandi.

Yasunari Kavabata, Yukio Misima, Kobo Abe, Kendzaburo Oye asarlarida kompozitsiya, sujet qurilishidagi o'zgachalik, voqea-hodisalar silsilasi, an'anaviy tasvir usullari o'rniga noan'anaviy usullar qo'llanildi. Adabiy tanqidchi Odagiri Xideo o'zining "Inson va adabiyot"¹ maqolasida yapon yozuvchilari asar yaratishda uning sujet, strukturasi va voqealar rivojidan ko'ra inson ruhiyatidagi kechinmalar, ong mohiyati, "qalb sur'ati"ni berishda qisqalik bilan katta narsa "chizish"ni mohirona uddalagan haqida yozadi. Nasriy asarlarda qahramonlar tasviri, dialog o'rnini ramziy obrazlar va ichki monolog egallagan, deydi. Adabiyotshunos, tanqidchi, misimashunos olim A.Mesharikov XX asr yapon adabiyotini o'rganar ekan, adabiyotda eng murakkab bo'lgan inson ruhiyatini tasvirlashni yapon yozuvchilari mahorat bilan uddalaganlarini alohida ta'kidlaydi.²

Yapon yozuvchilari asarlarining qisqaligi, fikrning tugallanmaganligi, an'anaviy sujet chiziqlarining yo'qligi, hatto nomlanishi G'arb adabiyotshunoslari va olimlarini qiziqitira boshladi. Ular Yasunari Kavabata ijodiga baho berar ekan, uning jahon adabiyotidagi o'ziga xos o'rni, yapon adabiyotini jahonga tanitishdagi xizmatlarini alohida e'tirof etishadi.



Sharq adabiyotshunos olimlarini esa Kavabata uslubidagi o'ziga xoslik, uning asarlaridagi tagma'no, unda inson ruhiyati, ongi tasvirining berilishi qiziqitiradi. Ular yozuvchi asarlarida bosh qahramon – inson tabiatning ajralmas qismi ekani, his-tuyg'ular va tabiat hodisalarini o'rtasidagi bog'liqlik, ulardagi go'zallikning nozik chizgilarini tahlil qiladilar.

G'arb mutaxassislarini yozuvchi ijodiga Z.Freyd ta'siri bor deb hisoblaydilar. 1961-yilda adabiyotshunos tanqidchi G.Artur Kimbala tomonidan ijodkor hayoti va ijodi atroflicha o'rganiladi. Uning fikricha, Yasunari Kavabataning kichik hikoyalari g'oyasi inson hayoti va o'limi, inson va tabiat o'rtasidagi ichki, ko'rinmas go'zallikni ochib berishdan iborat. Bu o'rinda "ko'rinmas" so'ziga e'tibor qaratish lozim. ko'rinib turgan go'zallikni hamma ko'rish mumkin, lekin ko'rinmas go'zallikni anglash uchun "maxsus qalb ko'zi" mavjud bo'lishi kerak. Aynan shu bois yozuvchining hikoyalari go'zallikka yo'g'rilgan. Intriga, interpretatsiya, konflikt inson ruhiyati bilan ko'z ilg'ab bo'lmas tabiat sirlari go'zalligi o'rtasida sodir bo'ladi. Jumladan, "Upa va benzin", "Kechki shaharning kulgusi", "Ona ko'zlari", "Olov ichidagi ayol" kabi hikoyalarning o'q ildizini insonning qalban yolg'izligi, yolg'izlikdagi o'z-o'zi bilan sodir bo'ladigan intrigalar tashkil qiladi. Hikoyalar sujeti va g'oyalarida qahramonlar munosabatidagi kelish-movchiliklar emas, balki ruh bilan tana, jonli narsalar bilan jonsiz narsalar, tabiat bilan insonlar, jonivorlar va insonlar o'rtasidagi munosabatlar aks ettiriladi. Yozuvchi hikoyalarda nimagadir o'rgatishni, o'qitishni o'ziga maqsad qilib qo'ymaydi. Unda kulminatsiya va sujet chiziqlari ham mavjud emas. U o'zining inson ruhiyatini tasvirlashdagi qarashlarini ruhshunos olim sifatida emas, balki faylasuf, yozuvchi sifatida talqin etadi. U o'z asarlarida yapon adabiyoti an'anasiga sodiqligi, yapon nafosati, millatiga xos ruhni mohirlik bilan aks ettira olganligi bilan nafaqat yaponiya, balki butun dunyoda shon-shuhratga erishdi.

Yasunari Kavabataning "Olov ichidagi ayol" hikoyasi shunday boshlanadi: "Daryoning u chetida katta o'rmon yonardi. O'rmonda yong'in! Qayerga qaramay, hamma joy olov edi". Kichik hikoya tugallanib borsa-da o'quvchi ayol haqida hech narsa bilmaydi. Hikoya yakunida daryo qirg'og'ida o'z dardlari og'ushida o'tirgan ayol qalbi yonayotgan o'rmon bilan mohirona solishtirilganiga, nozik parallelizmga guvoh bo'ladi. Yozuvchi o'z asarlarida narsa va hodisalarning faqat sifat va xususiyatlari haqida emas, balki ularni hissiy bilish, ular haqida fikr yuritish haqida yozadi. Asardagi har bir qahramonning qadr-qimmatini o'z ishini qanday bajarayotgani bilan o'lchaydi. Insonning tilak va xohishlari faqat mehnat bilangina

yuzaga chiqishi mumkinligi ko'rsatiladi. Insonni bilish dunyoni bilishdan ko'ra murakkab ekanligi – asarning bosh g'oyasi. Yozuvchi o'zi aytganidek, insonni ham bilish, ham tushunish kerak. Insonning ruhiy-ma'naviy olamiga aloqador xilma-xil jumboqli masalalar bor, fikriy timsollarning yuzaga kelishida tasavvur, ong, fikrlash, xotira va ular bilan bog'liq jarayonlar tabiatini bilish – yozuvchining bosh maqsadi. Inson ichki ziddiyatlar, nafrat va muhabbat, qo'rquv va mardlik, shodlik va qayg'u kabi holatlar og'ushida yashaydi. Taqdir – insonning xatti-harakati, fikri va irodasi, deb qaraydi yozuvchi. Agar insonning xatti-harakati o'zgalarga yaxshilik va baxt keltirsa, uning o'ziga ham baxt va halovat olib keladi. Yasunari Kavabata hikoyalarini o'qigan o'quvchi tabiatdagi voqea-hodisalar bilan inson qalbi nechog'liq bog'liq ekanini his qiladi.

U "Kaftdek kichik hikoyalar"ida noma'lum narsalardan ma'lum narsalarni, kutilmagan narsalardan

aynan o'xshashliklarni, inson orqali tabiatni, tabiat orqali insonni ochib beradi.

Kavabata "Upa va benzin" hikoyasida tabiiy narsalar sun'iy narsalardan naqadar go'zalligi, betakrorligi bilan farqlanishini isbotlaydi. Inson qanchalik ana shu sir-asrorlardan voqif bo'lib boraversa, shunchalik tabiiylikka intilishini ta'kidlaydi.

Yasunari Kavabata 1968-yilda "Yaponlar tafakkur mohiyatini ochib berishdagi yozuvchilik mahorati uchun" xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Bunga qadar Y.Kavabata "Adabiyotni rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi uchun", San'at akademiyasining adabiyot sohasidagi mukofotlari, Gyote nomidagi Frankfurt medali, Fransiyaning "San'at va adabiyot namoyandasi uchun" ta'sis etilgan ordeni va "Xorijiy eng yaxshi asar" uchun, Yapon hukumati maxsus ordeni bilan taqdirlangan.

XX asr yapon adabiyotidagi bu kabi tendensiyalar keyingi davr uchun zamin bo'ldi.

¹Японская литература. – Москва, 1988.

²Мещеряков А. Жизнь и смерть с видом на Фудзияму. – Санкт-Петербург, 2002. – С. 8.

Gavharoy ISMOILOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistri

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "DONISHMAND SIZIF" ROMANIDA RAMZ VA PSIXOLOGIK TASVIR

Ma'lumki, XXI asr o'zbek adabiyoti keskin evrilishlar, yangicha adabiy jarayonlar, turli adabiy oqimlarning kirib kelishi bilan taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Badiiy asarlarda insonning ichki olamiga kirib borildi. Olam va odamni anglashga bo'lgan intilishlar teran kuzatuv asosida badiiy asarlarda o'z aksini topdi. Ayni paytda milliy nasrimizda ham jahon adabiy sahnasidan munosib joy olgan asarlar bilan tenglasha oladigan badiiy asarlar yaratilmoqda. Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Zulfiya Qurolboy qizi, Abduqayum Yo'ldosh, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Sobir O'nar kabi ijodkorlar ushbu sharafli yo'lda qalam tebratayotganlardandir.

Bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlarning aksariyati kitobxonda insoniylikning muhim belgilari bo'lmish mehnatsevarlik, sabr-bardosh, mehr-muhabbat, irodalilik kabi tuyg'ularni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Iste'dodli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asarida ham ana shunday tuyg'ular birinchi o'ringa chiqadi. Yozuvchi bejiz yunon afsonasini romanga asos qilib olmaydi. Afsonada keltirilishicha, shahanshoh Eol va malika Enaretning suyuqli farzandi bo'lgan Sizif ishratparast Zevsning sirini bilib qoladi va Zevs tomonidan eng ma'nisiz jazoga umrbod hukm qilinadi. Sizif xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqishi kerak

bo'ladi. Bu jazoning ahmoqonaligi shundaki, u qayta va qayta bu ishni takrorlayverishi kerak. Zevs Sizifni jazolash uchun uni o'ldirish yo'lini tutishi mumkin edi. Lekin Sizif tomonidan o'lim xudosi Tanatos zanjirband etilib, zindonga tashlangani sababli u shu jazoni qo'llashga majbur bo'ldi. Sizif toshni cho'qqiga olib chiqaveradi, u dumalab tushaveradi, Sizif xarsangni qoya tomon itaraveradi, u Sizifdan qochib pastlik sari sho'ng'iyveradi. Xullas, Sizif befoyda va bema'ni ishni qilishga mahkum va majbur. Rus adabiy manbalarida keltirilishicha, G'arbda xuddi shunday besamar mehnat qilgan insonlarga nisbatan "Сизифов труд", ya'ni "Sizifchasiga mehnat" iborasi ishlatilar ekan.

Romanda harakatdagi qahramon sifatida faqatgina Sizif ishtirok etadi. Qolgan personajlar (afsona qahramonlari) u o'tmishni xotirlaganidagina asarda ko'rinadi. Asardagi voqealar tasviri boshdan oxirgacha Sizifning o'y-xayollari, o'zi bilan o'zining suhbatini, uning toshni cho'qqiga olib chiqishdagi mashaqqatlari tarzida bo'y ko'rsatadi. Muallif asarda qahramon ruhiyatini ochishda portret detallaridan unumli foydalanmaydi. Uning tashqi ko'rinishini "novcha-darozgina edi, lekin uzluksiz og'ir va qora mehnat oqibatida tarashadek qotib ketgan qad-qomati xiyla bukilib qolganidan oldinga osilib turgan uzun-uzun qo'llari tizzasiga tegay-tegay der,

nafaqat qad-qomati, balki diydasi ham qotib ketgan, uncha-muncha gap-so'zga ta'sirlanavermas ham edi"¹, deya tasvirlaydi. Asar davomida qahramonning tashqi chizgilari va yer-bu yerda qisqa izohlar berib ketadi. Yozuvchi qahramon ruhiyati va dunyoqarashiga tegishli bo'lgan chizgilarni to'g'ridan to'g'ri qahramonning monologida, bajarayotgan xatti-harakatlarida kuzatadi. "Ba'zan Sizif og'zi gapdan to'xtamayotganini, hatto aljirayotganini to'satdan sezib qolar, bu odatining yaxshi-yomonligi haqida o'ylab ham ko'rmas, odamni gapiruvchi hayvon, jondor deb bilardi u. Faqat u ovoz chiqarib gapiryaptimi yoxud tovushi chiqmayaptimi – bunga ham ko'pda e'tibor qilmaydigan bo'lib qolgandi. Inson ovoz chiqaradimi-chiqarmaydimi, nima farqi bor, u hami-sha ichida gapirayotgan bo'ladi axir. Yaxshiyam, o'ziga o'zi gapirish, o'zi bilan o'zi gaplashish ta'qiqlanmagan!.. Yolg'iz odam ham istaganicha gapirishi, so'ylashi mumkinligini hisobga olishmagan chog'"². Ushbu parchada yozuvchi Sizifning odamlar bilan suhbatlashishni qanchalik sog'inganini, umuman olganda, insonning gapirmasdan, biror kim bilan suhbatlashmasdan yashashi qanchalik mushkul ekanini ishonarli tasvirlagan. Uning o'ziga o'zi gapirishi ham shundan. Sizif bu jazoga hukm qilinmasdan avval Sisif, ya'ni ichki olami bilan suhbatlashib, bahslashar edi. Zevsning bergan jazosini bajarish davomida u Sisifni esdan chiqardi, ya'ni bir mud-dat o'zligini yo'qotdi. Lekin u Sisifni xarsangtoshdan topdi. Tosh uning maslahatgo'yi, do'sti, suhbatdoshi, qo'yingki, barcha yaqin insonlarining o'rnini bosuvchiga aylandi. U jahli chiqqanda toshni bo'ralab so'kadi. Xursand bo'lgan paytlarida erkalab suyadi. Romanni o'qir ekanmiz, aksariyat o'rinlarda muallifning subyektiv yondashuvi sezilsa-da, qahramonning monologlari orqali yozuvchi uning ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni ishonarli tarzda psixologik tasvirlashga erishgan. Sizif kayfiyati xush chog'larida toshni: "Ha-a yumaloq, ha-a dumaloq, ha-a baqaloq", – deya bolalarcha erkalatib ham qo'yadi.

U xarsangtoshni cho'qqiga olib chiqqan paytlarda juda xursand bo'ladi. Aksincha, mashaqqatlardan azoblanganda, qilgan barcha mehnatlari besamar bo'lganda u taqdirining beshafqatligidan nolaydi: "U seskanib tushdi, boshini asabiy siltadi. – O tangrilar! Qay gunohim uchun menga buncha azobni ravvo ko'rmoqdasizlar? Hayhot, nahot men shul jazoga loyiq insonman, nahot?"³

Asardagi qahramon – Sizif ramziy obrazi hisoblanadi. U kuchli sabr-bardosh va metin irodali inson ramzi. Tosh esa inson hayotida uchraydigan turli to'siq va qiyinchiliklar timsoli. Muallif bu obraz va uning mashaqqatlarini tasvirlash orqali inson har qanday qiyinchilik va tashvishlarni yengib o'tishi mumkinligini, faqat buning uchun kuchli mehnat, o'tkir zehn, mustahkam bardosh va metin iroda kerakligini o'zining teran falsafiy mushohadalari orqali ko'rsatib berishga erishgan.

Asarda qayiqda suzayotgan chol obrazi ham bor. U Sizifning ko'ziga ikki marta ko'rinadi. Uchinchi marta ko'rinish berganda Sizif sangtarosh cholning so'zlarini eslaydi va shu so'zlar orqali jazodan ozod bo'lish yo'lini topadi. Qayiqdagi chol esa – umid va ishonch ramzi. Bundan ko'rinib turibdiki, "Donishmand Sizif" romanini hech ikkilanmasdan ramziy-falsafiy asar deya olamiz.

Romandagi Sizif yunon afsonalarida tasvirlangan Sizifdan katta farq qiladi. Yunon afsonalarida Sizif hech qachon Zevsning jazosidan qutula olmagan. Roman qahramoni esa buning ilojini topdi. U xarsangtoshni cho'qqiga maydalab chiqarish mumkin, degan xulosaga keldi. Uning bu ishni uddalashiga qari bir sangtaroshning "Aksari xarsangtoshning joni bo'ladi. Faqat uning ko'nglini topa bilish kerak!" degan so'zlari turtki berdi. Ha, iste'dodli nosirning qahramoni afsonadagi Sizifdan farqli o'laroq toshning ko'nglini topa bildi. Bundan tashqari yozuvchi asarning ayrim o'rinlarida G'arbning falsafiy mushohadalaridan qochib, o'z Sizifiga sharqona fikrlashni, sharqona o'y-xayollarni singdirgan: "Eshigituynugidin yo'q nishon...", "Toshda ham ruh mavjud deganlar. Oh, yoriltosh-yoriltosh, ich-ichingni ochayin, men qalbingni ko'rayin... Yorilaqol, yoriltosh...", "Ma'budlar ma'budidan o'pka-ginasi o'z yo'lga, billo, kechagina o'zi qatori yurgan duppa-durust odamnusxa uvrindilar sharmandalarcha bong urishda shovvozlik ko'rsatganlaridan yomon mutaassir bo'ldi Sizif. O'b-ba, bachchag'arlar-ey, o'b-ba yuvuqsizlar-ey, deya miriqib kuld". Ko'rinadiki, muallif ushbu tasvirlar orqali kitobxon va qahramonni bir-biriga yaqinlashtiradi. Kitobxon romanni o'qir ekan, o'zini qahramon bilan yonma-yon turgandek, uning harakatlarini bevosita kuzatayotgandek his qiladi. Bu esa yozuvchining o'ziga xos poetik uslubi va badiiy mahoratidir. Asar yakuniga yaqinlashar ekan, o'quvchi Sizifning jazodan ozod bo'lgan paytdagi xursandchiligini ko'radi, lekin so'ngida Sizif do'sti va yaqin suhbatdoshiga aylanib qolgan xarsangtoshni maydalangan holda ko'rib, tuyqus cho'chib uyg'onib ketgan odam singari o'zini tosh uyumlari ustiga tashlaydi.

Ushbu romanni o'qigan inson, dastavval, o'zini mavhum tushunchalar girdobiga tushib qolgandek sezadi. Ammo asarning yakuniga yaqinlashib borgani sari qahramonning ruhiy holati, uning tili bilan aytilayotgan muallif o'y-fikrlari, xulosalari uni o'ziga rom etadi. Asarning har bir jumlasidan tugal hayotiy va falsafiy mushohadalarni topadi.

Yozuvchi o'zi aytganidek: "Haqiqiy yozuvchi o'zining oldiga adabiyotda kashfiyot qilishim kerak, deb maqsad qo'ysagina u haqiqiy umrboqiy asar yarata oladi". Darhaqiqat, iste'dodli nosirning "Donishmand Sizif" romani ham ana shunday kashfiyotlardan biri, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Faqat uning umrboqiy asarlar qatoriga qo'shilishi yoki aksi bo'lishi kitobxon va vaqtning hukmiga havola.

¹ X.Do'stmuhammad. Donishmand Sizif. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 250-bet.

² O'sha asar. 281-bet.

³ O'sha asar. 259-bet.

Bahodir JOVLIYEV,

O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
mustaqil tadqiqotchisi

MA'NAViy KAMOLOT RAMZI

"Bahouddinning iti" hikoyasi Nazar Eshonqul ijodining biz shartli ravishda belgilagan ikkinchi bosqichi davrida yaratilgan. "Shartli ravishda" deb ataganimiz sababi shundaki, hali adib ijodi davriy bosqichlarga tasniflanib o'rganilmagan. Zero, yozuvchining XX asrning 80-yillari oxirida yaratilgan asarlari bilan 90-yillar oxiridan boshlab yaratilgan asarlari tipologik-qiyosiy, g'oyaviy-badiiy tahlil qilinmagan.


Biz tadqiqotimiz davomida adib ijodida o'tgan asrning 90-yillari oxiridan boshlab burilish yuz berganini, ijodining oldingi davriga nisbatan bu davrda adibning Sharq mifologiyasi, falsafasiga murojaat qilishi kuchayganini, odamga va olamga munosabat o'zgarganini sezdik. Buning yaqqol misoli "Bahouddinning iti" hikoyasidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu hikoya ham mifologik motiv asosida yaratilgan. Ammo endi adibning jamiyatga, o'zini o'rab turgan muhitga munosabati keskin emas, sharqona vazmin tus olgan. Shu bilan birga inson va uning o'rni haqidagi xulosalarda sharqona donishmandlik bilan yondashishga intilish seziladi. Bu 2000-yillardan so'ng yaratilgan "Qultoy", "Bepoyon osmon", "Sibizg'a nolasi", "Haykal", "Qo'l" hikoyalarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda "Bahouddinning iti" hikoyasi adib ijodining birinchi bosqichi bilan ikkinchi bosqichini tutashtirib turadi, desak xato bo'lmaydi.

Voqea radioda ishlaydigan rejissor tilidan hikoya qilinadi, yakun esa uning yordamchisi tili bilan beriladi. Tanlovda g'olib bo'lish uchun tayyorlangan radiospektaklga yanada sayqal berish uchun qushlarning tabiiy sayroqi tovushini qo'shish kerak bo'lib qoladi. Tashlandiq xiyobonda qushlar ovozi yozib, keyin eshitib ko'rishsa, unda qush ovozi bilan ko'ra itning tovushi balandroq eshitalardi. Axir u yerda it yo'q edi, qushlar biri qo'yib, biri sayrab yotgandi, qushlar ovozi qanday g'oyib bo'ldi, mungli it ovozi esa qayerdan paydo bo'ldi? Ushbu savollar zanjiri rejissorni ertangi kun ham, indiniga ham qushlar ovozi yozib olishga majbur qiladi. Ammo baribir ijodkorlar studiyaga borib yozilgan tasmlarni tinglab ko'rishsa, qushlar ovozi o'rnida it ingrog'i balandroq eshitaladi.

Bu holat qayta-qayta takrorlanavergach, muharrir va boshliqlar rejissorni ayblashga tushishib, hatto u mafkuraviy jihatdan buzuq emasmi, degan gumon va xavotirga borishadi. Ammo endi rejissorga baribir edi: itning mungli sasi asta-sekin uni o'ziga rom qilib olayotgandi. U endi it ovozi eshitish uchun xiyobonga keladigan bo'ladi. Tashlandiq xiyobonga har kelganda u itning hazin tovushini aniqroq eshita boshlaydi.

"...Uvillashda munis anduh bor edi. Undan dard, musibat, iztirob, g'am-uqubat taralardi. Bu dardga va bu g'amga chidab bo'lmasdi. Uni eshitgan sayin



shunchalik dard ko'payar, musibat ulug'lashar, g'am yurakni to'ldirar, yig'lagim kelardi, ammo uvillashdan taralayotgan xo'rlik oldida yig'i nima bo'libdi, deb o'zimni ovutardim. Odam qanday chidaydi bu nolaga deb o'kirib yuborging kelardi. U o'zining anduhi bilan sehrlar, anduhi bilan maftun qilar, musibati bilan jodulab qo'yardi. Bu uvillashni eshitgan odam boshqa ohangni qayta eshita olarmikin? Bu nola, bu mahzunlik boshqa barcha ohanglarni fosh qilib, soxtalastirib qo'yardi. Nega men shu paytgacha bu anduhni eshitmaganman, nega shu paytgacha bu musibatdan uzoq bo'lganman? Nega bu nola o'zlarini xushanishin ohanglar tagiga yashirdi ekan? Nega uvillayotgan it odamlardan o'zini pinhon tutyapti ekan?

...Ertasiga ham, keyingi kunlar ham men bog'ning bir chetida o'tirib, ko'zlarimni yumgancha kunimni shu holatda, musibat va anduhdan titrab o'tkazdim. Men uvillayotgan itni ko'rgim, uning g'amiga sherik bo'lgim, musibat ezgan boshini silagim kelardi. Endi bir umr bu noladan ham, itdan ham ayrilolmaydiganday edim".¹

Rejissor nihoyat tashlandiq bog'da tanasi qo'tir itni ko'radi. Har kuni o'zining mahzun nolasini eshitishga keladigan rejissorga it ham o'rganib qoladi, ular ikkalasi o'rtasida g'oyibon bir rishta paydo bo'ladi.

"Uning qo'tir bosgan vujudida qandaydir sehrlar kuch borday edi. Biz tezda bir-birimizga o'rganib qoldik. Endi men ham it bilan birga devor tuynugidan emaklab, ko'chaga chiqar, keyin uning izidan sanqib yurardim. Birgalikda shaharning shuncha yillardan beri biron marta ko'rmagan g'aribgina kulbalar, to'kilay deb turgan masjid-u madrasalar joylashgan eski tor ko'chalarini, qadimiy qal'alar-u qasrlar xarobalari qolgan tepaliklarni aylanib chiqardik".²

Rejissor endi it bilan qo'shib shaharda sayr qiladigan bo'ladi. U itni uyiga boshlab keladi. U itga

ko'ngil qo'ygani sari uning ishdan ham, shu paytgacha muhim deb bilgan tashvishlardan ham ko'ngli qoladi, endi u faqat it bilan andarmon edi, ular xuddi oshiqma'shuqlarga o'xshardi. "...Beixtiyor qo'llarim bilan uning junlarini siladim. Kaftlarim endi dag'allashib quriy boshlagandi. Etim jimirlashib ketdi. Nazarimda, bu yaralar o'zimning tanamda va o'z tanamni silayotganday tuyuldi. Bu tuyg'u keyinchalik ham tark etmadi. Har kecha uning yaralarini silarkanman, xuddi o'z badanimni silayotganday bo'lar, kimdir hayotning adolatsiz so'qmoqlarida orttirgan jarohatlarimni silab menga orom berayotganday edi".³

Biz hikoyadan ayrim parchalarni keltirayapmizki, bu parchalarni o'qimay turib, hikoyani tushunish, anglash ancha mushkul kechadi. Muallif aynan ularda asarning g'oyasini, mazmunini yashiradi. Hikoya oxirida rejissor yordamchisi bog'da ikkita itni uchratadi.

"Hafsalam pir bo'lib, endi qaytmoqchi bo'lganimda devor tuynugidan kirib kelgan, bir-birini quvlab yurgan ikkita itga ko'zim tushdi. Ular goh mendan uzoqlashib bog' bo'ylab yugurishar, goh bir-birini erkalab tishlagancha, yonimdan quvlab o'tar, xuddi ikki oshiqqa o'xshar, bir-birlarining qo'tirlarini tillari bilan yalashar, bir-birining yaralariga ko'zlarini surtishar, shu darajada baxtiyor ediki, mening yonlarida turganimni ham, izidan ancha yergacha ergashib borganimni ham sezishmasdi: ular butun dunyoni unutishgandek, ular uchun faqat ikkalasidan boshqa hech narsaning, bog'ning ham, odamlarning ham, ulkan va shovqinli shaharning ham ahamiyati yo'qdek edi. Ularning bir-biriga muhabbatiga qarab mening ham havasim keldi. Beixtiyor tasmalarga yozilgan uvillash yodimga tushdi. Balki shulardan birining nolasi bizning tasmaga tushib, bizni rosa ovora qilgandir deb o'yladim. Eng qizig'i va sizga bu narsalarni batafsil yozayotganimning sabab shuki, itlardan birining bo'ynida men rejissorning bo'ynida ko'p bor ko'rganim – charm tumor osilib turardi. Bog'da boshqa hech kimni uchratmadim... Rejissorni topishning iloji bo'lmadi".⁴

Hikoya xuddi yozuvchining "Evolutsiya" hikoyasi kabi metamarfoza bilan yakunlanadi: rejissor itga aylanib qoladi. Agar mantiq ko'zi bilan qaralsa, hikoya jumboqli bir cho'pchakka o'xshaydi. Ammo mifologizm, ya'ni miflar tili bilan yondashsak, unda ana shu zamonaviy metamarfoza shartlilik tagiga yashirgan hikoyaning mazmunini anglab yetamiz. Hikoyani bor ko'lami bilan tushunish uchun uning sarlavhasiga e'tibor berish kerak bo'ladi? Nega Bahouddinning iti? Sarlavhadagi ism ulug' avliyo Bahouddin Naqshband nomiga bog'liqmi? Unda Bahouddin Naqshbandning iti bo'lganmi? Bu itning buyuk shayxga nima aloqasi bor? Buni aniqlamasdan turib, hikoyaning ichiga kirolmaymiz. Hikoyaning nomi uning kirish eshigi.

Adib bilan bo'lgan bir suhbatda hikoyaning nomini so'raganimizda, "Hikoyaning nomi Alisher Navoiyning "Lison-ut tayr" asarida, Bahouddin Naqshbandning it haqidagi hikoyatidan olingan", – edi degan fikrini aytib qoldi. Shundan so'ng biz "Lison ut-tayr" asaridan aynan o'sha matnni izlab topdik. Mana o'sha parcha (asarning nasriy bayonini keltirayapmiz.): "Komil Fanoga erishmoq haqida Hoja Bahouddin Naqshband so'zlari Oliy sifatlar egasi va mo'tabar zot, haq ravshanligining shohi

va to'g'ri yo'lning gul soluvchisi bo'lgan Xoja Bahouddin Naqshband bu iqlim uzra taxt qurgach, yo'qlik mulkida ham podsho bo'ldi. Bu haqni biluvchi kishi sayr qilish paytlarida o'z vujudini turli narsalarga qiyos etar edi. Ammo hamma narsadan o'zini kam ko'rib, o'zini sarv-u gul oldidagi xor-u xas kabi tutar edi. Bir kun uning ko'ziga tozalikdan yiroq bo'lgan bir qo'tir it ko'rindi. Shayx uni o'zi bilan tenglashtirib, ko'ziga yosh olgancha nola cheka boshladi. U shunday der edi: "Bu it vafo qiluvchilar toifasidandir, men esa unday emasman. O'zimni u bilan teng deb ayta olmayman. U Allohga vafodan o'zga narsani bilmaydi, men esa unga faqat jafo qilaman, xolos!" Nazar egasi bo'lgan Shayx shunday degach, it uning oldidan yo'l solib, o'tib ketdi. Tuproq ustidagi it qoldirgan izlarni ko'rgan Shayx yana nisbat qilishda davom etib, shunday dedi:

– Men ortiqmanmi yoki bu iz? – Yana o'ziga o'zi dedi: – Ey insofsiz kishi! Bu iz vafo ahli a'yonidan nishonadir, sen esa vafosizlik sari etak sudraysan!

U shu mazmunda so'zini tugallagach, yer o'pib, it izlariga ko'zlarini surta boshladi...⁵

Bu rivoyat, rostdanam, hikoyaning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Hikoya, garchi asar bu talqinni ham inkor etmasa-da, dastlabki tuyulgani kabi inson va itning do'stlashishi haqida emas, balki unga chuqurroq mazmun-hikmat singdirilgan. Xususan, Fariddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida ham it obrazi bilan bog'liq ko'plab rivoyatlar va hikmatlar mavjudki, bu tasavvuf g'oyalari va hikmatlarida mazkur obraz alohida o'rin tutishini ham anglatadi. Fariddin Attorning so'fiydan kaltak yegan itning donishmand Abu Said huzuriga adolat so'rab borishi va o'zini urgan so'fiy haqida "...uni agar hammaga o'xshatganimda uzoqroq yurgan bo'lardim, tashqi qiyofasiga qarab adashibman, uning so'fiy kiyimi meni aldadi", degan rivoyati yoki Junayd Bog'dodiyning o'ziga qarab qattiq hurayotgan itni ko'rsatib, "Bu itning ovozida men Yaratganning g'azabini his qilayapman",⁷ degan rivoyatidan ham anglashilib turibdiki, "it" obrazi so'fiyona falsafada alohida o'rin tutadi.

Bizningcha, Nazar Eshonqul ham "Bahouddinning iti" hikoyasida ana shu tasavvuf an'anasini davom ettiradi. Yozuvchi hikoyaga Fariddin Attorning "Mantiq-ut tayr" asaridan olingan "...Shayx u go'zalning jamolini ko'rish umidida yor ko'chasidagi itlar orasiga qo'shildi..." satri epigraf qilib olinganki, bu bilan yana bir bor "it" obraziga urg'u beradi. Ammo hikoyadagi it bu biologik jonzot emas, balki adabiy-badiiy timsoldir. Hazrat Navoiy keltirgan rivoyatdan ham anglashilib turibdiki, Bahouddin Naqshband hazratlari uchun it – vafo, faqirlik, sadoqat timsoli. Bizningcha, hikoyaning asosiy mazmuni ham ana shu tushunchalar bilan bog'liq, ochiqroq aytadigan bo'lsak, hikoyadagi it ham vafo, sadoqat, faqirlik, komillik, ma'naviy yetuklik timsoli. Bu fazilatlardan uzoq yashayotgan zamonaviy kasb egasi bo'lmish rejissor tabiat qo'yniga qaytgach, (...adib bekorga qahramonlarini "tashlandiq" xiyobonga boshlab kelmaydi. Nazar Eshonqulning "Yalpiz hidi" turkumidagi hikoyalarida qahramon tashlandiq boqqa, ya'ni o'zining ko'ngliga, o'zligiga nazar tashlab o'zini qaytadan kashf qila boshlaydiki, bu hikoyadagi tashlandiq bog' ham qahramonning o'zligi, tabiat bilan

uyg'unlashuvi, deb bemaol aytsak bo'ladi), u o'zi bilan, botini bilan yuzma-yuz keladi. Uning uyg'onishiga ana shu narsa turki beradi. Ma'naviy kamolot, pyesa qo'yib mashhur bo'lish, kibr-u havo, o'zini ko'rsatishda emas, balkim faqirlikda, kamtarlikda, o'z vijdoni, iymoniga it kabi sodiqlikda ekanini anglab yetadi. Bu esa uning ma'nadan o'zgarishiga – metamarfozaga olib keladi. Aslida ma'naviy o'zgarish ham yangi qiyofaga kirish degani.

Darhaqiqat, yozuvchining "Evolutsiya" hamda "Bahouddinning iti" hikoyasidagi har ikkala qahramon ham metamarfozaga uchraydi. Asarlardagi mazkur holat xuddi qadimgi Ovidiy miflari kabi evrilish sujetiga qurilgan bo'lsa-da, bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarga xizmat qilayapti. "Evolutsiya" hikoyasidagi metamarfoza qahramonning tubanlashishini, hayvoniydashishini, "Bahouddinning iti" hikoyasida esa ma'naviy kamolotni ramziylashtirib kelayapti. Demak, birinchi hikoya muhitga nisbatan sof ideologik opponent ruhida yaratilgan bo'lsa, keyingi hikoya esa davrning ma'naviy muammolarini, shaxsning kamoloti masalasini ko'targani bilan ham ahamiyatlidir.

Shu ma'noda, Nazar Eshonqul hikoyalaridagi mifopoetikani ko'targan muammolariga qarab, shartli ra-

vishta, asarlar klassifikatsiyasini kengroq va oydinroq anglash uchun mafkuraviy va ma'naviy mavzularga bo'lish mumkin bo'ladi. Adibning "Maymun yetaklagan odam", "Ajr" hikoyalarida shaxs ma'naviyati fojiasi qalamga olinsa, "Tobut", "Evolutsiya" hikoyalarida mafkura fojiasi manzaralari beriladi. Umuman olganda, xoh mafkuraviy, xoh ma'naviy masala ko'tarilgan bo'lsin, Nazar Eshonqul asarlarida yo muhit bilan, yoki jamiyat bilan oppozitsiyadagi qahramonni ko'ramiz. "Maymun yetaklagan odam", "Ajr", "Tobut" hikoyalari qahramonlari o'zligi, ildizi, milliy asosi, qadriyatlar, an'analar bilan, boshqacha aytganda, o'z xalqi, o'z millati, o'z yurti an'analari bilan, "Evolutsiya" hikoyasi qahramoni – muhit va mafkura, zulm va zo'rlik bilan, "Bahouddinning iti" hikoyasi ma'naviy muhit bilan qarama-qarshi nuqtalarda tasvirlanadi. Aynan shuning uchun ham "Bahouddinning iti" hikoyasida rejissorning kasbdoshlari, yaqinlari, do'stlari uni tushunishmaydi, hatto uni inkor ham qilishadi, uning "it" parastligini masxara qilishadi. Ishxonasida "xonangizdan it hidi kelayapti", deb taz'iyiq o'tkazishadi. Bularning hammasi davr bilan, zamon bilan, muhit bilan uning ma'naviyati bilan yuzma-yuz turgan shaxs obrazini gavdalantiradi.

¹ Nazar Eshonqul. Shaftoli guli. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. 30-31-betlar.

² O'sha manba. 32-bet.

³ O'sha manba. 34-bet.

⁴ O'sha manba. 38-bet.

⁵ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Nasriy bayon. 163-hikoyat.

⁶ Керимов Г. М. Возникновение суфизма и основы его учения // Государство, религия, Церковь в России и за рубежом. – 2010.

Tadqiqotlar

Behzod TURNIYAZOV,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Til nazariyasi va adabiyotshunoslik kafedrasi dotsenti,

filologiya fanlari nomzodi

KAUZAL MA'NONING KLASSIK DAVRDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Maqolada sabab va oqibat munosabatlarning mantiqiy hamda falsafiy kategoriya sifatida talqin etilishi, davrlar o'tishi bilan esa ushbu tushunchalarning tilshunoslik fanida ham "kauzatsiya" termini ostida keng o'rganilayotgani bayon etilgan bo'lib, unda muallif tilshunoslikning mazkur sohasini tekshiruvchi bo'limini "kauzatalogiya" deb nomlashni taklif etgan.

Kalit so'zlar: sabab va oqibat, kauzal ma'no, semantik, morfologik, sintaktik kauzatsiya, kauzatalogiya.

Аннотация. В статье причинно-следственные отношения интерпретируются как логическая и философская категория, и со временем эти понятия широко изучаются в лингвистике под термином "каузация". Автор предлагает этот раздел лингвистики назвать "каузатология".

Ключевые слова: причина и следствие, каузальный смысл, семантическая, морфологическая, синтаксическая каузация, каузатология.

Annotation. The article states that cause and effect relations are interpreted as a logical and philosophical category, and over time, these concepts are widely studied in linguistics under the term of "causation". The author suggests calling this section of linguistics a "causatology".

Key words: cause and effect, causal meaning, semantic, morphological, syntactic causation, causatology.

Tilshunoslikda hozirgi davrgacha "til va nutq" dixotomiyasining "til" komponenti atroficha tadqiq etilgan bo'lsa-da, nutq jarayoniga oid masalalar o'z yechi-

mini topmasdan qolmoqda. Nutqiy vaziyat tilning real qo'llanilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda inson omili muhim o'rin tutadi. Tilning murakkab sistemani tashkil



etishi ham inson tafakkuri bilan bevosita aloqador. Tilga oid masalalar talqiniga ana shu jihatdan qaralganda hal etilishi lozim bo'lgan g'oyat muhim muammolar mavjudligining guvohi bo'lamiz. Jumladan, nutq lingvistikasi talqini, tilning ichki sistemasi qonuniyatlari bilan bog'liq ayrim muammolar hozirgi kunga qadar ham o'z yechimini topmagan. Bunday tushunchalardan biri *kauzativlik* hodisasi bo'lib, biz uni tilning ichki sistemasi qonuniyatlari doirasida ham, nutq lingvistikasi yuzasidan ham ilk bor o'zbek tili materiallari asosida tadqiq etishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Tilshunoslikda kauzativlik hodisasi tillarda universal kategoriya tushunchasi sifatida turli vositalar yordamida shakllanadi. Lingvistik adabiyotlarda "*kauzatsiya*" haqida gapirilganda ushbu terminning lotincha "*causa*" so'zidan olingani va "*sabab*" ma'nosini ifodalashi, harakatning bajarilishi uchun sabab, qo'zg'ash ma'nosiga ega bo'lishi aytiladi.¹ Kauzativlik tilshunoslikda aynan shu nuqtayi nazardan o'rganiladi hamda kauzativ vaziyat tahlilida sabab va oqibat tushunchalari bilan bog'lanadi. Bunga misol qilib sabab va natija ergash gapli qo'shma gaplar, undash va majburlash ma'nosidagi gaplar, fe'lining ortirma nisbati shakllarining shu termin asosidagi tahlilini keltirish mumkin. Shu bois tilshunolarimiz kauzativlikni *semantik, leksik, morfologik, analitik, sintaktik* kabi turlarga bo'lib tadqiq etmoqdalar. Ana shularni e'tiborga olgan holda tilshunoslikning kauzal munosabatlar talqini masalasi bilan shug'ullanuvchi sohasini *kauzatologiya* deb nomlashni taklif etmoqchimiz.

Kauzalogiya sohasi tarixiy jihatdan shakllanib, tilshunoslik fanida o'rganilguniga qadar ham ancha yo'lni bosib o'tdi. Buddashunos olim V.G.Lisenkoning ta'kidlashicha, buddaviylik ta'limoti zamirida (miloddan avvalgi 1-ming yillik o'rtalari) qadimgi Hindistonda *pratiya-samutpada* (o'zaro bog'liqlik asosida shakllanish) nazariyasiga asos solindi. Mazkur nazariya sabab va oqibat munosabatlarini falsafiy jihatdan talqin etib, undan saboq beruvchi dunyodagi eng birinchi *sutra* (yo'l, ta'limot) edi.

Davrlar o'tishi bilan sabab va oqibat munosabatlarini nazariyasi falsafa hamda mantiqshunoslikda keng o'rganila boshlandi va mazkur fanlardan asosiy kategoriya sifatida o'rin oldi. Falsafada sababiyat mohiyatini izohlash xususidagi dastlabki qarashlar Platonning mazkur hodisa haqidagi g'oyalarini rivojlantirgan Arastu tadqiqotlarida o'z ifodasini topadi. U materiyani mohiyati uning o'zida deyish bilan birga shu mohiyatni bilish uchun sababiyat qonuniyatini yaratadi va sababiyatning to'rt xil ko'rinishi mavjudligi haqida mulohaza yuritadi: 1) harakatdagi yaratuvchan sababiyat (farzand ota-onadan ilgari dunyoga kelishi mumkin emas, ya'ni ota-ona shu farzandning vujudga kelishidagi zaruriy shart hisoblanadi); 2) moddiy sababiyat, ya'ni materiya sababiyati (haykal yasalishi uchun marmar yoki mis kabi moddiy jismlar zarur bo'ladi); 3) maqsadli sababiyat (sog'lom bo'lish uchun jismoniy harakat qilish lozim); 4) formal yoki shakli sababiyat (namuna hamda shakl mutanosibli).²

Sabab va oqibat haqidagi mukammal mulohazalar talqini Sharq mutafakkirlari tomonidan ham ilgari suril-

gan bo'lib, biz uning izohini buyuk allomalarimiz asarlaridan topamiz. Jumladan, Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari"da shunday deydi: "Sabablar, keltirib chiqaradigan oqibatlariga nisbatan, turli holatlarda bo'ladilar. Ko'pincha, sabab bitta bo'lsa ham, turli vaqtlarda turli kasalliklarni (oqibatlarni) keltirib chiqaradi"³.

Jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ham sabab va oqibat haqida mulohaza yuritib, unga: "Shartli hukmning birinchi qismi asos (sabab) bo'lib, ikkinchisi – oqibat", – deb baho bergan edi⁴.

Keyinchalik mazkur kategoriya haqida yevropalik mumtoz faylasuflardan F.Bekon, D.Yum ham o'z mulohazalarini asarlarida batafsil bayon etib o'tdilar. Jumladan, ingliz faylasufi Frensis Bekon Arastuning sababiyat haqidagi to'rtta ta'limotini tahlil qilib, o'z ilmiy g'oyalarini material sabablarni aniqlashga qaratdi, zero, ular tabiatning eksperimental tadqiq qilinishida aniq belgilangan natija berishi mumkin deb hisobladi.⁵

Kauzal munosabatlar tahlili formal mantiq qonuniyatida ham o'z aksini topgan bo'lib, bu haqida ilk bor nemis olimi Gotlob Frege ilmiy qarashlarini fanga ma'lum qiladi. U kauzal munosabatlar moddiy implikativlik asosida shakllanadi, degan xulosaga keladi.⁶

Shuni aytilish kerakki, zamonaviy fan yo'nalishlarida sabab va oqibat munosabatlarini turli belgilariga ko'ra tasnif qilinmoqda. Masalan, o'zaro munosabatlar tabiatiga ko'ra *moddiy, ideal, kimyoviy, biologik, ijtimoiy*; aloqadorlik xarakteriga ko'ra *dinamik va statik*; turli ta'sirlarning bog'liqligiga ko'ra *oddiy, tarkibli, yagona yoki ko'p omilli, tizimli yoki tizimdan tashqari* kabi. Shuningdek, *tashqi va ichki, asosiy va asosiy bo'lmagan, obyektiv va subyektiv, umumiy va xususiy* sabablarga bo'linadi⁷.

Shunday qilib, sabab va oqibat munosabatlarini ifodalovchi kauzal ma'no materiya harakatining barcha shakllarida o'z aksini topadi, shu jumladan, tilshunoslik sohasida ham u muhim omillardan biri bo'lib gavdalanadi. Ana shu tarzda sababiyat tushunchasi falsafa va mantiqdan andaza olgan holda lingvistika sohasiga ham qadam qo'ydi.

Ushbu tushuncha bugungi kunda lingvistika sohasida ham keng ko'lamda o'rganilmoqda. Sabab va oqibat munosabatlarini talqini tilshunoslarda til falsafasiga asos solgan atoqli nemis mutafakkiri Vilgelm fon Gumboldt ta'limoti orqali qiziqish uyg'ota boshladi. "Siyosat, san'at va ilm-fanning hozirgi holatiga nazar tashlasak, ularning asrlar davomida sayqal topishi asosida sabab va oqibat munosabatlarining uzun zanjiri yotganini ko'ramiz", – degan edi Gumboldt "Tillar tuzilishining farqi va uning insoniyatning ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri" nomli asarida.⁸

Grammatikada sababiyat haqidagi dastlabki mulohazalar rus tilshunoslari N.I.Grech, A.X.Vostokov, I.I.Davidov, F.I.Buslayevlarning tadqiqotlarida ifodalandi. Bu xususida N.I.Grech fikr yuritir ekan, "Практическая русская грамматика" asarining ikkinchi qismida gapning mantiqiy maqomini izohlab, quyidagilarga to'xtaladi: "...Зависимыя предложения: выражающія дѣйствительную причину; напрымѣръ: рѣка стала отъ того, что на дворѣ холодно; въ превратномъ

порядкѣ: на дворѣ такъ холодно, что рѣка стала; на дворѣ слишкомъ тепло, чтобъ рѣка стала. Заключение; напримѣръ: рѣка стала, слѣдственно на дворѣ холодно. Цѣль, намѣреніе (конечную причину); напримѣръ: онъ топить печь для того, чтобъ въ комнатѣ было тепло".⁹ – ("...Tobe gap: tom ma'nodagi sababni ifoda etuvchi; masalan: daryo tashqari sovuq bo'lganligi uchun...; teskari tartibda: tashqari shunday sovuqki, shuning uchun daryo...; tashqari juda issiq, daryo...(bo'lishi) uchun. Xulosa; masalan: daryo...aylandi, binobarin tashqari sovuq. Maqsad, niyat (yakuniy sabab); masalan: xona issiq bo'lsin deb, u pechkani yoqmoqda").

A.X.Vostokov esa "Русская грамматика" asari birinchi qismining yettinchi bobida bog'lovchilar haqida fikr yuritib, ularni o'n bir turga bo'lib o'rganadi. Olim shulardan o'ninчисini "Винословные или причину показывающие" deb atab, ularga *ибо, поелику, понеже, а какъ, такъ какъ, потому что, для того что, за тѣмъ что, за то что* (chunki, modomiki, negaki, uchun, zero, shuning uchun) kabilarni kiritadi.¹⁰

Keyinchalik, 1853-yilda I.I.Davidov "Опытъ общесравнительной грамматики русскаго языка" nomli asarini yozdi.¹¹ Mazkur asarda u ham sabab ma'nosini izohlashda "винословные"¹² ("sabab so'zlar") terminini qo'llaydi hamda sabab va oqibat munosabatlarining sintaktik rejada ifodalanishini ta'kidlaydi.

Bu borada rus tilshunosi akademik F.I.Buslayevning asarlarida kengroq ma'lumotlar borligini kuzatamiz. Olim "Опытъ исторической грамматики русскаго языка. Этимология" nomli asarida bog'lovchilar haqida to'xtalib, ularning yasama yoki murakkab bo'lishi haqida fikr bildiradi. Jumladan, sabab ifodalovchi *понеже, поелику* (negaki, modomiki) kabilar murakkab bog'lovchilar sanalib, ularning olmosh hamda predlogdan tarkib topganini va shu davrgacha adliyaviy hujjatlarni rasmiylashtirish uslubida qo'llanganligini aytadi. Ammo V.A.Jukovskiy Gomerning "Odisseya"

eposini tarjima qilganida mazkur bog'lovchilarni qo'llaganini va shundan e'tiboran bu bog'lovchilar barcha uslublarda ishlatilayotganligini ta'kidlaydi¹³.

Kauzativlikning fe'l orqali ifodalanishi haqida rus tilshunosi, prof. N.P.Nekrasov o'zining "О значении формъ русскаго глагола" nomli asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Грамматикада sabab ma'nosi bilan aloqador fe'llar ham mavjud bo'lib, ular "sabab so'zlar" (винословное) deb ataladi. Bu orqali biror harakatni bajarishga majburlash yoki undash ma'nosi anglashiladi. Masalan, qurish (строить) fe'lini olaylik. Darhaqiqat, uyni kishining o'zi qurmaydi, balki uni duradgorlar, tosh yo'nuvchi ustalar va hokazolar qurishadi. Boshqacha aytganda, uy egasi quruvchilarga buyurtma beradi. Demak, "qurish" fe'li orqali uyni qurish uchun kimnidir majburlash ma'nosi yuzaga chiqadi. Shu bois bunday fe'llar boshqa tillar grammatikasida "de verbus causalibus" (kauzal fe'llar) deb yuritiladi. Menimcha, rus tilidagi fe'l nisbati kategoriyasini kengaytirish ma'nosida bu kabi fe'llarni e'tiborga olsa bo'ladi. Biroq *ichirish (пить), ovqatlanirish (кормить)* singari fe'llarni bu turkumga qo'shib bo'lmaydi. Chunki majburlab suv ichirish yoki ovqatlanirish kabi tushunchalar mantiqan to'g'ri emas".¹⁴

Shuni aytish kerakki, bizningcha, olim kauzativ fe'llarning buyurish ma'nosi bilan ham muhtarakligini nazardan chetda qoldirgan ko'rinadi. Chunki *ichirish (пить), ovqatlanirish (кормить)* fe'llari buyruq ma'nosida kauzativ hisoblanadi. Aksincha, *qurish (строить)* fe'li ifodalayotgan ma'no orqali kimgadir buyurtma berish nazarda tutilmasa, uni kauzativ deb bo'lmaydi. Bu haqida keyingi ilmiy mulohazalarimizda batafsilroq to'xtalamiz.

Shunday qilib, kauzativlik tushunchasining lingvistika sohasiga kirib kelgani va uning tilshunoslar tomonidan ham keng tadqiq qilinganining guvohi bo'lamiz. Hozirgi kunda mazkur hodisa tilshunoslikda o'rganilishi muhim bo'lgan dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

¹A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 47-bet; Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С. 144.

²Аристотель. Метафизика (Перевод с греческого П.Д.Первова и В.В.Розанова). – Москва: Институт философии, теологии и истории св. Фомы, 2006. – С. 37–39.

³Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: (Uch jildlik saylanma). I jild. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 32-bet.

⁴Аль-Фараби. Логические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1975. – С. 289.

⁵Антология мировой философии в четырех томах. Т. II. – Москва: Мысль, 1970. – С. 192.

⁶Фреге Г. Логическое исследование. – Томск: Водолей, 1997.

⁷Ko'rsatilgan ensiklopedik lug'at. 531-bet.

⁸Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 2000. – С. 47.

⁹Гречъ Н.И. Практическая русская грамматика. – Санктпетербургъ: въ типографіи Императорскаго Санктпетербургскаго воспитательнаго дома, 1827. – С. 384–385.

¹⁰Востоков А.Х. Русская грамматика. – Санктпетербург: въ Типографіи И.Глазунова, 1831. – С. 216–219.

¹¹Давыдов И.И. Опытъ общесравнительной грамматики русскаго языка. – Санктпетербургъ: изданный вторымъ отдѣленіемъ Императорской Академіи Наукъ, 1853.

¹²Ушаков Д.Н. Толковый словарь современного русскаго языка. – Москва: Аделант, 2013. – С. 61.

¹³Буслаев Ф.И. Опыт исторической грамматики русскаго языка. Часть I. Этимология. – Москва: въ Университетской типографіи, 1858. – С. 144–146.

¹⁴Некрасов Н.П. О значении формъ русскаго глагола. – Санктпетербургъ: въ Типографіи и литографіи И.Паульсона, 1865. – С. 42.

Umida RASHIDOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Til nazariyasi va adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEK TILIDA SOMATIK FRAZEOLGIK SINONIMLARING USLUBIY TARMOQLANISHI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada sinonimiya, frazeologik sinonimiya, xususan, o'zbek tilidagi somatik frazeologizmlar o'rtasida mazkur hodisaning ifodasi haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbek tilida mavjud somatik komponentli frazeologizmlar o'rtasidagi sinonimiya hodisasining yuzaga chiqish sabablari, ularning uslubiy tarmoqlanishi, o'zaro variantdosh iboralar sifatida qo'llana olishi kabi masalalar asosli misollar yordamida izohlangan.

Kalit so'zlar: somatizm, somatik frazeologizm, variantdoshlik, sinonimiya, frazeologik sinonimiya.

Аннотация. В статье представлена информация о феномене синонимии, фразеологической синонимии и особенно соматической фразеологии в узбекском языке. Причины возникновения синонимии между существующими в узбекском языке соматическими компонентами фразеологизмов и их разветвлениями в качестве взаимосвязанных выражений объясняются обоснованными примерами.

Ключевые слова: соматизм, соматическая фразеология, изменчивость, синонимия, фразеологические синонимы.

Annotation. The article provides information on the phenomenon of synonymy, phraseological synonymy and especially somatic phraseology in the Uzbek language. The reasons for the emergence of synonymy between the somatic components of phraseological units existing in the Uzbek language and their branching as interrelated expressions are explained by reasonable examples.

Key words: somatism, somatic phraseology, variability, synonymy, phraseological synonyms.

Ma'lumki, frazeologik sinonimiya masalasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu hodisa turli tillar, jumladan, rus, ozarbayjon, nemis, ingliz, o'zbek, turk, boshqird va boshqa tillar materiallari asosida ham o'rganilgan. Frazeologik sinonimiya masalasining tilshunoslikda o'rganilish tarixi Sh.Rahmatullayev monografiyasi hamda M.Vafoyevaning tadqiqot ishida o'z aksini topgan.

Tilshunoslar tomonidan iboralarda sinonimiyani belgilashning turli mezonlari taklif etilgan. Masalan, A.Y.Molotkov frazeologik sinonimlarning o'ziga xos to'rt xususiyatini ajratib ko'rsatgan: ma'nolarning bir xilligi, o'xshashligi; tarkibida bir xil komponentlarning bo'lmasligi; leksik-grammatik jihatidan o'xshashligi; komponentlarining o'zaro bir-biri bilan almashtirish imkoniyatining yo'qligi [1: 165–166]. M.M.Kopilenko va Z.D.Popova frazeologik sinonimiyani tarkibidagi leksemalarga ko'ra farqlanuvchi, ma'no jihatdan yaqin bo'lgan, lekin bir yoki bir nechta semantik belgilarga ko'ra farqlanuvchi turli iboralar sifatida talqin etgan [2: 34]. V.P.Jukovning fikricha, frazeologik sinonimiya bir xil yoki ma'no jihatdan juda yaqin o'zaro munosabatdagi so'z turkumlaridan iborat bo'lsa-da, biroq bir-biridan ma'no ottenkalari bilan u yoki bu darajada farqlanadi [3: 48–52]. Olim o'zining ana shu fikriga asoslanib 730 dan ortiq sinonimik qatorni qamrab olgan "Rus tilining frazeologik sinonimlari lug'ati"ni yaratish tamoyillarini ishlab chiqdi va hamdo'stlik mamlakatlarida yagona bo'lgan ana shunday lug'atning yuzaga kelishiga rahbarlik qildi [4: 447].

O'zbek tilidagi frazeologik birlik (FB)lar sinonimiyasi Sh.Rahmatullayev tomonidan ma'lum darajada

o'rganilgan. Olimning alohida ta'kidlashicha, "frazeologik sinonimiya uchun umumiy va eng muhim mezon bu semantik mezondir. Har bir sinonimik uyadagi so'zlar obyektiv borliqdagi bir xil tushunchalarni anglatishi kerak va shu bilan bir xil ma'noni anglatishi shart" [5: 83]. Holbuki, har bir frazeologik sinonim asosida turli obrazlar yotadi.

Sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanishi haqida so'z yuritishdan oldin frazeologik sinonimiya va frazeologik variantdoshlikning farqi to'g'risida qisqacha to'xtalish lozim. Sinonim iboralar bir-biri bilan ma'no nozikligi, uslubiy bo'yog'i yoki bir vaqtda ikkalasiga ko'ra farqlanadi. Masalan, "og'zi qulog'ida" va "boshi osmonga yetmoq" iboralari bir sinonimik uyaga mansub bo'lib, "nihoyatda xursand, behad sevinmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Lekin ularning birinchisi og'zaki so'zlashuv nutqiga, keyingisi esa umumnutqqa xoslangan.

Xuddi shu sinonimik uyaga mansub bo'lgan "og'zining tanobi qochmoq" iborasi esa nisbatan kam qo'llanadi va, asosan, badiiy nutq uslubiga xoslanishi bilan ajralib turadi: Bu javobdan so'ng Homidning og'zining tanobi juda ham qochgan va Sodiqning yelkasiga qoqa boshlag'an edi (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar"); "Xuddi Rasul Olloyorovich berayotgan va dalar shu yerning o'zidayoq amalga oshayotganday, og'zining tanobi qochib kulganicha, faqat "rahmat, rahmat" deyishdan boshqa gap topolmasdi" (O'.Usmonov, "Girdob").

G'afur G'ulomning "Ko'kan" poemasi esa shu sinonimik qatorga mansub "ip qochirgan labi" individual-muallif sinonimi hosil qilingan edi: "Ko'pchilik ko'l,

unumi mo'l, degan kabi // *Ko'kan xursand ip qochirgan qo'yo labi*" (G'.G'ulom, "Ko'kan").

Ko'rinadiki, frazeologik sinonimlar faqat ma'no nozikliklariga ko'ra emas, balki uslubiy bo'yog'i, qo'llanish doirasiga ko'ra ham o'zaro farqlanadi.

Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o'rtasida ko'pgina umumiy tomonlar ham bor, shuning uchun ham ular ko'pincha lug'atlar, darslik va qo'llanmalar-da aralashtiriladi. Masalan, yuqorida ko'rilgan *"og'zining tanobi qochmoq"* iborasining *"og'zining bog'ichi qochmoq"* varianti mavjud. Bu variant O'TILda "aynan" havolasi bilan ko'rsatilgan [8, II, 119], lekin Sh.Rahmatullayev lug'atida iboraning bu varianti o'z aksini topmagan [9: 214].

"Ko'ngilga (dilga, qalbga, yurakka) tugmoq" iboralarining o'zaro variantdosh ekanligi O'TILda "yoki" havola belgisi orqali ta'kidlangan [8, I, 217]. Sh.Rahmatullayev lug'atida esa bu iboralarning boshqa variantlari (*"ko'ngilda tugib yurmoq"*, *"yuragida tugib yurmoq"* kabi) ko'rsatilgani holda [8: 153–154], "qalbga tugmoq" iborasi aks etmay qolgan. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Bizningcha, frazeologik sinonimlarni frazeologik variantlardan farqlashning quyidagi belgilari mavjud:

1. Frazema ichki formasining yaxlitligi. Masalan, ko'ngil va yurak so'zlarining almashinuvi asosida hosil bo'lgan quyidagi variantdosh iboralar ichki formasining yaxlitligi bilan ajralib turadi: *ko'ngli g'ash tortdi – yuragi g'ash tortdi*; *ko'ngliga qo'l solmoq – yuragiga qo'l solmoq*; *ko'nglida kiri yo'q – yuragida kiri yo'q* kabi.

2. Muayyan bir iboraning variantlari ifodalaydigan ekspressiv-baho bo'yog'i, ko'pincha, bir xil bo'ladi. Masalan, *"bosh(i)ni og'ritmoq"*, *"bosh og'ritmoq"*, *"bosh qotirmoq"* iboralari bir umumiy ekspressiv o'ttenkaga ega. Yoki *"boshida yong'oq chaqmoq"*, *"boshida danak chaqmoq"*, *"boshida tosh chaqmoq"*, *"miyasida danak chaqmoq"*, *"boshida yong'oq chaqildi"* kabi variantdosh iboralar semantikasi *"ortiq darajada"* semasi bilan yaxlitlikka ega.

3. Bir iboraning variantlari funksional xoslanish jihatdan bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, quyidagi variantdosh iboralarda almashinuvchi komponentlar sinonim ravishlar bo'lib, uslubiy belgi nuqtayi nazariidan farqlanmaydi: *"to'ydan ilgari nog'ora chalmoq"* va *"to'ydan oldin nog'ora chalmoq"* kabi.

So'z tanlash bilan yuzaga keladigan variantdosh iboralarda ham funksional xoslanganlik, ko'pincha, o'zgarishsiz qoladi: *"es-hushini olib qo'ymoq"*, *"esini olib qo'ymoq"* – *"hushini olib qo'ymoq"*; *"ich-etini yemoq"*, *"ichini yemoq"* – *"etini yemoq"* kabi.

4. Bir iboraning variantlari bir-biri bilan uslubiy noziklik va ma'no jihatdan farqlanmaydi, shuning uchun ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *"ko'zdan kechirmoq"* va *"ko'zdan o'tkazmoq"* iboralari o'zaro variantdosh sanaladi [9: 134]. Shuning uchun bu ikki ibora badiiy, publitsistik uslublarda bo'lganidek, rasmiy hujjatlar uslubida ham biri o'rnida ikkinchisi erkin qo'llanadi: *"Ashyoviy dalillar sud tomonidan ko'zdan kechirilib chiqiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, vakillarga, zarur bo'lgan hollarda esa ekspert va guvohlarga ham ko'rsatiladi."*

Ashyoviy dalillar ko'rsatilgan shaxslar ko'zdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu holatlarga sudning diqqatini jalb etishlari mumkin" (O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi. – Toshkent, 1997).

Masalan, qo'l komponentli FBlarda sinonimlik munosabati ancha keng tarqalgan. Ikki iborani o'zaro sinonim deyish uchun ular bir ma'noni anglatishi kerak. Masalan, *qo'ldan ketmoq* iborasi "kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketmoq" ma'nosini anglatadigan va xuddi shu ma'noni anglatuvchi *qo'ldan chiqmoq* iborasi bilan sinonimlik munosabatga kirishadi: *Bu yerda to'satdan uyg'ongan ayrim navkarlar kutilmagan bosqindan es-hushlarini yo'qotib, qarshilik ko'rsatish, o'zlarini mudofaa etish emas, ish qo'ldan ketganiga tan berib, hatto "churq" etib ovoz ham chiqarmadilar. (Oybek, "Navoiy". 95-bet); Nasiya bir manfaat uchun naqd foydani qo'ldan chiqarish aqlli odamning ishi emas. (S.Ayniy, "Qullar").*

Variantdoshlik hodisasi qo'l komponentli FBlar o'rtasida ancha keng tarqalgan. Variantlanish tufayli bir ibora ikkinchisiga aylanmaydi, balki uning shakli o'zgaradi xolos. Iboraning lug'aviy ma'nosi esa aynan saqlanadi. Qo'l komponentli FBlar o'rtasidagi grammatik variantlashish quyidagicha yuzaga chiqadi:

1. Qo'l somatizmining tushum kelishigi qo'shimchasini olish yoki olmasligi orqali: *qo'l urmoq – qo'lni urmoq, qo'l siltamoq – qo'lni siltamoq – qo'lini siltamoq* kabi.

To'da faqat ... baqirib-chaqirib turadi, shiorlar silkib turadi, bayroqlar hilpiratib turadi, qo'l paxsa qilib turadi, musht do'laytib turadi (T.Murod, "Otamdan qolgan dalalar". 75-bet); Odamlar qo'lni paxsa qilib, g'azab bilan deyishdi: "Shikoyat qilmoq kerak podshohga, shikoyat!" (Oybek, "Navoiy". 57-bet)

Qo'l somatizmining egalik qo'shimchasini olish yoki olmasligi orqali: *qo'lga tushmoq – qo'lga tushmoq, qo'ldan chiqmoq – qo'lidan chiqmoq; qo'ldan ketmoq – qo'lidan ketmoq* kabi.

*Ne kutasan qovushtirib qo'lingni,
Mo'minlarga axir hayot begona.
Anglagilki, kim istaydi o'limni,*

Kutmoqlikka majbur bo'ladi yana. (M. Ali, "Yuragim")

2. Qo'l somatizmi bog'lanib kelgan fe'lning qaysi nisbatda kelishi orqali: *qo'lga olmoq – qo'lga olindi, qo'lga tushmoq – qo'lga tushirildi, qo'lga kirmoq – qo'lga kiritmoq* kabi.

Iboralar tarkibida bir komponent almashtirilsa, qo'shilsa yoki olib tashlansa, leksik variantlanish hosil bo'ladi. Masalan, *qo'li kalta bo'ldi – qo'li kaltalik qildi; qo'li kalta – qo'li qisqa, qo'lga olmoq – o'z qo'lga olmoq; qo'li baland bo'ldi – qo'li yuqori keldi – qo'li baland – qo'li yuqori, besh qo'lday ayon – besh barmoqday ayon – besh panjaday ayon* kabi.

Masalan: *Bu ishlarning barchasi kaminaga besh barmoqday ayon* (Oybek, "Navoiy". 53-bet).

Shunday qilib, sinonimiya variantdoshlikka nisbatan ancha keng tushuncha. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar o'zbek tilining kuchli tasviriy-uslubiy manbalaridan biri. Shuning uchun izohli, frazeologik va boshqa tip lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham, frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim.

Frazeologik sinonimlarni lug'atlarda s.t. (so'zlashuv tili xos), folk., (folkloriga xos), dial. (muayyan dialektga xos), kt. (kitobiy, yozma nutqqa xos ibora), poet. (asosan, poetik asarlarda qo'llanilgan ibora), esk. (eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan ibora), hazil, erkalash, nafrat, salbiy singari funksional-uslubiy havola-belgilar bilan ta'minlash kerak. Subyektiv baho formalari (istarasini issiq – istarasi issiqqina: *ko'ngli yumshoq – ko'ngilchasi yumshoq; ko'ngli qora – ko'ngli qop-qora; joni*

chiqdi – jon-poni chiqdi; pichoq suyakka yetdi – pichoq suyak-suyagiga yetdi kabilari) iboralarning sinonimlarini emas, balki ularning turli xil variantlarini hosil qiladi. Variantdosh iboralarni sinonim iboralardan farqlash o'zbek tili frazeologik uslubiyatining eng muhim masalalaridan biri sanaladi, bu hol, ayniqsa, sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanishi haqida so'z yuritilayotganda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 165–166.
2. Копыленко М.М., Попова З.Д. Очерки по общей фразеологии. – Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1972. – С. 34.
3. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Высшая школа, 1978. – С. 48–52.
4. Жуков В.П., Сидоренко М.И., Шкляров В.Т. Словарь фразеологических синонимов русского языка. – Москва: Русский язык, 1987. – 447 с.
5. Sh.Rahmatullayev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: fan, 1966. 83-bet.
6. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Высшая школа, 1978. – С. 116; U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya, fonetika, morfologiya). To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. 32-bet.
7. Диброва Е.И. Вариантность фразеологических единиц в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 1979. – С. 154.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik, 1–2-tomlar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 680-bet.
9. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 382-bet.

Dilnoza MAMIROVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti
Til nazariyasi va adabiyotshunoslik
kafedrasida assistent o'qituvchisi

REKLAMA MATNLARIDA SEGMENT QURILMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama matnlarida segmentatsiya natijasida shakllanadigan sintaktik birliklarning ta'kidlash, ajratib ko'rsatish, voqelikni eslatish, ishora qilish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: segment birlik, adresant, adresat, reklama, antitsipatsiya, parsellatsiya, rema, tema, pragmatik intensiya, emotsionallik.

Аннотация. В этой статье освещаются такие особенности как подчеркивание, выделение, напоминание действительности указание на факты синтаксических единиц, которые формируются путем сегментации в рекламных текстах:

Ключевые слова: сегментная единица, адресант, адресат, реклама, антиципация, парцелляция, рема, тема, прагматическая интенция, эмоциональность.

Annotation. This article illuminates such features as highlighting, recalling, and pointing out of the facts of syntactic units that are formed by segmentation in advertising texts.

Key words: segment unit, addressee, addresser, advertising, anticipation, plotting, rhema, theme, pragmatic intention, emotionality.

Nutq jarayonida adresantning adresatga munosabati, berilayotgan axborotning muhimligiga ko'ra kommunikativ maqsad bilan gapni qayta tuzish natijasida shakllanadigan sintaktik qurilmalarni o'rganish, ularda so'zlovchi pragmatik intensiyasi, baho munosabatining aks etishi, bunday sintaktik qurilmalarning matnlardagi o'rni va emotsionallikni ta'minlashdagi ahamiyati masalasini yoritish dolzarb mavzulardan biri hisoblanishini

inobatga olgan holda ushbu maqolada reklama matnlarida ko'p uchraydigan segment birliklar va segmentatsiya hodisasiga to'xtalishni lozim deb topdik.

Adresant kommunikativ jarayonda o'zi muhim deb hisoblagan o'ringa adresantning diqqatini tortish uchun turli vositalardan foydalanadi.

Tilshunoslikda gapni qayta tuzish, bo'laklash natijasida hosil bo'lgan qurilmalarning, asosan, uch turi

farqlanadi: segmentatsiya – nutqni bo'laklarga bo'lish natijasida hosil bo'lgan bo'lak; parsellatsiya – gapning shunday bo'linishiki, unda ifodaning mazmuni bitta emas, balki ikki va undan ortiq intonatsion-ma'noviy nutqiy birliklarda anglashiladi.

Bunday birliklar biri ikkinchisidan so'ng ketma-ket keladi; gapning ekspressiv maqsad bilan bo'laklanishi bo'lib, unda gapning bir qismi ayiruvchi to'xtamdan keyinga, gapning tashqarisiga chiqariladi [1: 80]; antitsipsiya – oldindan sezish, keyingi tovushning avvalgisiga ta'siri, oldingisini talaffuz qilishda keyingisining ta'siri [2: 48]. Segment qurilmalar, asosan, og'zaki nutqqa xos bo'lib, reklama matnlarida so'zlashuv nutqiga xoslikni ifodalashda keng foydalaniladi. Adresant nutqini o'zi muhim deb bilgan qismdan boshlashi mumkin, bunda so'zlovchi muhim deb hisoblagan qism mantiqiy jihatdan ajratilib, gapning oldingi qismiga chiqariladi hamda fikrning mavzusi vazifasini bajaradi. Bunda mantiqiy jihatdan ajratilgan qism og'zaki nutqda intonatsiya, yozma nutqda tinish belgilari yordamida ajratiladi. Segment bo'lak tema sifatida kelar ekan, tinglovchining diqqatini ma'lum bir o'ringa qaratish uchun xizmat qiladi hamda ta'kid ma'nosini kuchaytiradi, uni izohlab kelgan gap tarkibida esa olmosh bilan almashadi yoki ba'zi o'rinlarda o'zi takror keladi.

Segment qurilmalarning segment qismida kitobiy uslubdagi leksika yetakchilik qiladi, shu sababli bunday qurilmali gaplarda ko'tarinki ruh, o'ziga xos ohang bilan ifodalanadi. Segment qurilmali reklama matnlarida ham oddiy matndagi gaplardagi singari segment sifatida ajratilgan qismga boshqa qism rema sifatida qarama-qarshi qo'yiladi. Masalan, *Allergiya belgilari yashashingizga xalaqit beryaptimi? L-set – allergiyaga sizning javobingiz* kabi. Segment qurilmali reklama matnlarini tuzilish jihatidan ikkiga bo'lish mumkin: yig'iq segment bo'lakli va yoyiq segment bo'lakli reklama matnlari.

Yig'iq segment bo'laklar bir so'zdan iborat bo'ladi: *Sunsilk – ajoyib ko'rinadigan sochlar uchun.*

Trombopol – infarkt va insult xavfini bartaraf etadi, ichakda eruvchan qobig'i tufayli oshqozonning shilliq pardasiga ziyon yetkazmaydi. Trombopol – infarkt va insult profilaktikasi. Trombopol – yurakka g'amxo'r.

Taylol Hot – gripp va shamollash alomatlarini yengishga yordam beradi.

Keltirilgan misollarda *Sunsilk*, *Trombopol*, *Taylol Hot* kabi so'zlar segment bo'lak sifatida ajratilib, yig'iq holda o'zidan keyin kelgan gapda o'z xususiyatini namoyon qilgan.

Yoyiq segment bo'laklar bir necha so'zdan iborat bo'lib, bunday reklama matnlarida bir necha propozitsiya ifodalanishi gapning mazmunan murakkablashishiga xizmat qiladi: *Sunsilkning noyob formulasi – birinchi yuvishdayoq natija beradi, sochlarga yorqinlik va kuch bag'ishlaydi.* Keltirilgan misolda segment bo'lak *Sunsilkning noyob formulasi* bo'lib unda "birinchi yu-

vishdayoq natija beradi", "sochlarga yorqinlik va kuch bag'ishlaydi" degan propozitsiyalar ifodalangan.

A.Ahmedov ekspressivlikni ifodalaydigan bunday qurilmalarni "tema nomi" deb ataydi va ularni yo'nalishiga ko'ra ikki turga ajratadi: predmetlik tema nomi va so'zlik tema nomi [3: 34]. Birinchi turda tinglovchining diqqati ma'lum predmet yoki tushunchaga qaratilishi ta'kidlanadi, bunga olim "Devorlar... Nelar yo'q ular ortida" (Omon Matjon). "Toshkentim metrosi! Aslida qurmoqda uni... – butun vatanim" (E.Oxunova) kabi misollarni keltiradi.

So'zlik tema nomi haqida so'z yuritar ekan, bunday tema nomi "tinglovchining diqqatini muayyan tovushdan yoki tovushlar majmuyidan tashkil topgan so'z yoki so'zlarga jalb qiladi. Masalan: *Budapesht! Endilikda hammaning og'zidan shu so'z tushmas edi* (O.Gonchar)" [3: 35] deya fikr yuritadi. Ammo reklama matnlariga bu qoidalar mos kelmaydi, chunki reklama ishoralari emas, aniqlik muhim sanaladi. Aniq predmetlar adresatga o'ziga xos belgilari bilan, afzallik jihatlari ko'rsatilgan holda havola qilinadi.

Tema nomi qurilmalar haqida so'z yuritar ekan, A.Ahmedov ularni struktural jihatdan uch turga bo'ladi: bir so'zdan iborat bo'lgan tema nomi, nopredikativ birikmadan iborat bo'lgan tema nomi hamda teng bog'lantirish yordamida hosil qilingan tema nomi [3: 37].

Bir so'zdan iborat tema nomi biz yig'iq segment bo'lak deb ajratgan holatga to'g'ri keladi. Nopredikativ birikmadan iborat tema nomi esa tarkiban bo'laklanishi mumkin bo'lgan, orasida tobelanish munosabati mavjud ikki yoki undan ortiq so'zlardan iborat reklama matnlaridagi bo'laklardir. Masalan: *Xalq banki lotereyalari – orzularingiz ro'yobi.*

Keltirilgan misoldagi segment bo'lak *Xalq banki lotereyalari* yoyiq holda ifodalangan bo'lib, yozuvchi ta'riflanayotgan predmetga urg'u berish, uning o'ziga xos jihatlari ko'rsatish, adresat ko'z o'ngida yorqinroq ifodalash uchun segmentlash usulidan unumli foydalangan. Bu jarayonda predmetning orzular ushali shida vosita bo'la olishini eslatishda segmentatsiya usuli qo'l kelgan. Gapni segmentlanmagan holda qayta tuzganda ekspressivlik yo'qolganligini ko'rish mumkin: *Orzularingiz ro'yobi uchun xalq banki lotereyalari yordam beradi.*

Adresant segment qurilmadan foydalanganda uning kommunikativ intensiyasi – maqsadini to'g'ri anglab olish uchun adresatning lisoniy bilimi ham yetarli bo'lishi kerak. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *Taylol Hot – gripp va shamollash alomatlarini yengishga yordam beradi. Taylol Hot.* Keltirilgan misolda segment bo'lak *Taylol Hot* bo'lib, uning qanday yordam berishini tasdiqlash maqsadida so'zlovchi yana bir marta nutq jarayonida qo'llaydi, kuchli ta'kid ma'nosini ifodalash orqali grippga qarshi kurash, "undash" nutqiy akti yuzaga keladi.

Reklama matnlarida, asosan, ekspressiv segment qurilmali gaplarda, segment bo'laklar aniqlikchilik birik-

ma bo'lishdan tashqari bog'lovchili birikmadan ham iborat bo'lishi mumkin. A.Ahmedov teng bog'lanishli tema nomi deb ajratgani uchun uchinchi tur yuqorida keltirilgan ikki turga nisbatan kam uchraydi. Bog'lovchili birikmalardan iborat bo'lgan segment bo'lakda ekspressivlik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ekspressivlik bog'lovchili birikma takror qo'llanganda yoki birikma tarkibidagi so'zlarning o'rni almashganda ta'sirchanlik yanada kuchliroq aks etadi, ta'kid ma'nosi yorqinroq bo'yoqlarda beriladi: *Tatib ko'r va his et!* (Coca-cola reklamas)

Parsellat ham segment bo'lak singari nutq jarayonida so'zlovchi aytayotgan fikrdagi muhim o'rinlarini yozma nutqda punktuatsiya hamda og'zaki nutqda ohang bilan ajratishga xizmat qiladi hamda muallif mantiqiy

urg'u berayotgan, boshqa birliklardan ajralib turuvchi "fikrni tortish maydoni"ga aylanadi [4: 10].

Xullas, segmentatsiya oddiy gapning istalgan bo'lagini temaga, qolganini esa remaga aylantirish imkonini berar ekan, reklama matnini yaratuvchi kopirayter deb talqin etiladi. U tinglovchining butun diqqatini sotilayotgan mahsulotga qaratadi va uning nomini esda qoldirish uchun harakat qiladi. Reklama matnlarida segment qurilmalarning eng ko'p uchraydigan turi tasavvur nomlari va mavzu ifodalovchi gaplar bo'lib, bu ikki hodisa funksional jihatdan bir-biridan farq qiladi. Tasavvur nomlarida ekspressivlik, badiiylik va psixologizm kuchli bo'lsa, mavzu ifodalovchi gaplarda axborotni yetkazishda tinglovchining diqqatini ma'lum bir jihatga qaratish asosiy xususiyat sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. 80-bet.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1966. – С. 598.
3. A.Ahmedov. O'zbek tilining ekspressiv sintaksisiga xos bir konstruksiya haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1975. 3-son. 34–39-betlar.
4. Алексеенко И.В. Парцелляция как грамматическая структура речи (на материале произведений английского языка). Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – С. 25.

Kichik tadqiqot

Zarif QUVONOV,

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti


TABARRUK IZLAR IZIDAN

"Xamsa" – Alisher Navoiy poetik iste'dodining muhtasham cho'qqisi. Bu asarning genezisi, yozilish jarayoni, obrazlar tizimi, badiiy xususiyatlarini tadqiq etish navoiyshunoslikda alohida yo'nalishni tashkil etadi. S.Ayniy, E.Bertels, O.Sharafiddinov, Oybek, T.Jalolov, A.Qayumov, B.Valixo'jayev singari o'nlab atoqli olimlar qatori Abduqodir Hayitmetov ham xamsashunoslikka munosib hissa qo'shdi. U "Xamsa" asariga qayta-qayta murojaat qilib, uni turli tomondan tadqiq etdi va Navoiyning xamsanavislik borasidagi xizmatlariga haqqoniy baho berdi.

Olimning bu boradagi tadqiqot yo'nalishini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) "Xamsa"ning yaratilish jarayoni; 2) xamsachilik tarixi; 3) dostonlardagi ijtimoiy-ma'rifiy masalalar talqini; 4) "Xamsa" obrazlari tahlili.

U "Xamsa"ga daho shoir ijodiyotining cho'qqisi sifatida qarab, Navoiy epik asarlariga lirika orqali kirib borganini ta'kidlaydi.¹

Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishga oid ilk tadqiqotidayoq olim "Xamsa"ga yirik ilmiy-estetik manba sifatida qaragan edi. U buyuk mutafakkirning adabiy qarashlari borasidagi ilmiy xulosalarini



“Xamsa”ning kompozitsion qurilishi, sujet motivlari, obrazlar tizimi, g’oyaviy-badiiy xususiyatlariga tayanib asoslaydi. Uning nazarida, “Xamsa” Navoiy shaxsiyati va ijodiyotiga xos nozik jihatlarni tushunish va izohlash vositasi hisoblanadi, unda shoir dahosining yuksak mohiyati aks etgan, deb biladi. “Xamsa”ning yuzaga kelishi faqat o’zbek adabiyoti tarixidagina emas, jahon adabiyoti tarixida ham buyuk voqea ekanini, mohiyat miqyosiga ko’ra uning epopeyaligini ta’kidlab shunday deydi: “Bu epopeya timsolida biz dostonchilik sohasida o’zbek xalqiga xos bo’lgan buyuk she’riy qobiliyatni ko’ramiz”².

Alisher Navoiyning xamsachilikka qo’l urishi, xamsanavis shoirlar safiga qo’shilishi janrning yanada taraqqiy etishiga xizmat qilganini olim ishonarli misollar asosida ko’rsatib beradi. Navoiyning xamsaday yirik janrni tanlashi uning katta ijodiy niyatini yuzaga chiqarish uchun nihoyatda to’g’ri bo’lganini qayd etadi. Beshlik janridagi tasviriy kenglik ifoda uchun tanlangan mavzu hamda obrazlarning har tomonlama keng va chuqur ishlanishiga imkon beradi. A.Hayitmetov Navoiy “Xamsa”sidagi sujet va obrazlarning an’anaviyligi bu dostonlarning har jihatdan original bo’lishiga monelik qilmaganini ko’rsatib beradi. Chunki xamsanavislik an’anasiga ko’ra sujet va obrazlarni salaflardan olib rivojlantirish odat bo’lgani, bundan Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa ijodkorlarning asarlari ham xoli emasligini ko’rsatar ekan, muallif yozadi: “Lekin Navoiy “Xamsa”sini adabiy an’analar mahsuli deb qarab, uning yaratilishini tekshirganda adabiy faktorlarni birinchi planga qo’yish aslo mumkin emas”³. Olimning ushbu fikri “Xamsa”day fundamental asar shunchaki adabiy an’anani davom ettirish natijasi emas, balki daho shoirning o’z oldiga qo’ygan ulkan badiiy niyatlarini amalga oshirish vositasi o’laroq yuzaga kelganini asoslaydi. Chunki bu yirik asarda mutafakkir shoir o’z davrining eng muhim, g’oyat murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarini adabiyotga olib kirdi, adabiyotni hayot ko’zglasiga aylantirdi.⁴

Akademik B.Nazarov olimning “Xamsa”ga doir tadqiqotlariga munosabat bildirar ekan, shunday yozadi: “Xamsa” dostonlari poetikasidagi murakkablik, salmoq, teranlik (bu yerda men kompozitsiya, sujet, obraz, xarakter, uslub, she’riy san’atlar, badiiy til va boshqalarni chetlab o’taman)ni o’rganish natijasida A.Hayitmetov “Xamsa”dek mahobatli, muayyan ma’no va darajalarda o’zaro bog’liq, bir-birini taqozo etadigan monumental asar yaratish uchun, har bir asar matnidagi alohida va o’zaro yaxlitlikdagi poetik barkamollikka erishish uchun ijodiy tajribadan tashqari katta hayotiy tajriba ham zarur”⁵, degan fikrni ilgari suradi. “She’riyatning nurafshon cho’qqisi” maqolasida olim Navoiy “Xamsa”sining eng muhim fazilati sifatida uning o’zbek tilida yozilganini ko’rsatadi. Olim bu asarga shunchaki bir badiiy yuksak adabiy obida emas, balki turkiy tilning ifoda imkoniyatlari darajasini yaqqol ko’rsatib bergan omil sifatida baho beradi. Hayitmetov Navoiyda turkiy tilda “Xamsa” yaratish g’oyasi tasodifan paydo bo’lmagani, balki shoir bu ulkan yumushga yoshlik chog’idan o’zini ruhan tayyor-

lab borganiga e’tibor qaratadi. Shoir Sayyid Hasan Ardasheriga bitgan she’riy maktubida “Shohnoma”ga o’xshash yirik asarni Firdavsiy kabi o’ttiz yilda emas, o’ttiz oyda yozgan bo’lur edim, degani shunchaki o’z iste’dodidan faxrlanish bo’lmay, katta ijodiy ishlar qilishni o’sha vaqtdayoq o’ylab, ularga hozirlik ko’rib yurganidan dalolat ekanini to’g’ri qayd etadi. U “Xamsa”ning yaratilishiga adabiy an’analarga ergashishdan ko’ra hayotiy tajriba, poetik niyat birlamchi turtki bo’lgan, deb hisoblaydi.

“Hasbi hol” masnaviysi tahlilida: “Hasbi hol” ...ulug’ shoirning lirik masnaviy tarzidagi birinchi yirik she’riy asari, ba’zi adabiyotshunoslar aytganidek, keksalikda emas, balki yigitlik yillarida, Xurosonda emas, Movarounnahrda, yanada aniqrog’i, Samarqandda yozilgan. Adabiyotshunoslarimizga noaniq bo’lib kelgan bu masalalarning javobi, avvalo, shu asarning mazmunida o’zining yaxshi ifodasini topgan. Noma tarzidagi bu asar Navoiy tarjimai holini qimmatli ma’lumotlar bilan to’ldirishga, uning ba’zi momentlarini aniqlashga yordam berish bilan birga u shaxsiy ahamiyatga ega bo’lgan hujjat darajasidan ancha yuqori ko’tarilib, adabiy-siyosiy ruhdagi mustaqil asar ahamiyatini kasb etadi”⁶, – deb ko’rsatadi. Olim fikriga ko’ra Navoiyning bu asari uning hayotga munosabati, dunyoqarashi qanday shakllanganini aniqlashda muhim o’rin tutadi.

A.Hayitmetov o’sha davr she’riyatida hukmron bo’lgan romantik tasvirdan farqli tarzda “Hasbi hol”da ilk realistik tasvir qo’llangani, Navoiy turkiy she’riyatni turmush talablariga yaqinlashtirganini alohida ta’kidlaydi. Olim ushbu matndagi tasvir uslubi, ko’p fikr va ohanglar keyinchalik “Xamsa”ga kirgan dostonlarda rivojlana borib, o’z takomiliga yetganini qayd etadi. Sinchkov navoiyshunos bu xildagi o’xshashliklarni Navoiy asarlari matnidan olingan aniq va ishonarli misollar bilan ko’rsatib beradi. Chunonchi, “Hasbi hol”dagi “So’z ichraki yolg’on erur nopisand, Chu nazm ettilar – qildi dono pisand” bayti “Hayrat ul-abror”da: “So’z aro yolg’on kibi yo’q nopisand Aylar aning nazmini dono pisand” shaklida takomillashtirilib qo’llanganiga e’tibor qaratadi.

Adabiyotshunos Navoiy “Xamsa”ni yozishda o’z salafllari ko’rmagan adabiyotlarni o’qishga, xalq orasidan qissa va afsonalarni to’plab, ularni o’rganishga, shu asosda yangi qahramonlar yaratishga ustozlarining xato-kamchiliklarini takrorlamaslikka harakat qilganini alohida ta’kidlaydi. Jumladan, Navoiy “Farhod va Shirin” dostoniga doir yozma va og’zaki manbalarni, tarixiy ma’lumotlarni o’rganar ekan, ular orasidan “Farhodi mahzun” dostonini ajratib olgani va chuqur o’rganganini qayd etadi.⁷ Bu asar Navoiyga Farhod obrazini bosh qahramon sifatida tasvirlash imkonini berganiga to’xtaladi.

Olim Navoiy “Xamsa”sining shunchaki yuzaga kelmagani, bu ishda shoirning “Xamsa” yozgan zamon-doshlari yoki bu janr tarkibidagi biron-bir dostonga qachondir javob aytgan qalamkashlarning ham o’rni bo’lganini xolislik bilan ko’rsatib o’tadi: “Navoiydan sal burun Ashraf, Hoji Kirmoniy kabi shoirlar ham “Xamsa”

yozgan va Navoiy ularning "Xamsa"lari bilan ham yaqin tanish edi. Shuning uchun "Muhokamat ul-lug'atayn"da Navoiy "Layli va Majnun"ni yaratishda Hoji Kirmoniyning "Gavharnoma", "Sab'ai sayyor"ni yozishda Ashrafning "Haft paykar" nomli dostonlaridan ham ta'sirlanganligini qayd etadi"⁸.

A.Hayitmetov Navoiy "Xamsa"sining yuzaga ke-lishida qadim turkiy adabiyotning ham muayyan ta'siri borligini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratadi. Navoiyshunoslik tajribasida mutlaqo e'tibor qaratilgan bu masala haqida: "Navoiyning "Sab'ai sayyor"dagi Alanquvo afsonasiga ishorasi shuni tasdiqlaydiki, ulug' shoir Oltoy hududidagi qissa va rivoyatlarni ham yaxshi bilgan, ularga hurmat bilan qaragan"⁹, – deb yozadi. Bu hol olimning mavzuni juda batafsil va sinchkovlik bilan o'rganganligini ko'rsatadi. Bu qarashni ilgari surishda olim "Ravzat us-safo" asarining muallifi Mirxondga tayanadi. U Alisher Navoiy qadim turkiy eposlardan "Xamsa" dostonlariga badiiy rang va ma'nolar olganini bayon qiladi.¹⁰

"Xamsa" sho'ro davri olimlari kabi Hayitmetov tomonidan ham, asosan, dunyoviy, to'g'rirog'i, ijtimoiy talqinda o'rganilgan bo'lsa, istiqlool davriga kelib uning talqin doirasi kengaydi. Nazariy-falsafiy jihatdan Navoiy tayangan manbalar Qur'oni Karim, hadisi sharif va tasavvuf falsafasi bo'lgani uchun uni bevosita ana shu manbalardan kelib chiqib tadqiq etilganligini uning keyingi ishlarida ko'rish mumkin.

Abduqodir Hayitmetovning "Xamsa"da islom nuri", "Xamsa" va jahon adabiyoti", "Naqshbandiya Navoiy talqinida" nomli ilmiy maqolalari ular ulug' shoir dostonlari mohiyatiga yangicha qarash aks etganligi bilan e'tiborlidir.

Olim "Xamsa" asarida Navoiy estetikasida yaqqol namoyon bo'lgan yana bir jihat – badiiy asarda, xususan, dostonida insonni qanday tasvirlash muammosiga ham diqqat qaratdi. "Xamsa" tadqiqiga doir ishlarida u Navoiyning obraz yaratish mahorati, asarning ijtimoiy ahamiyati, ilgari surilgan masalalar mohiyati, tili va badiiyati kabi qator muammolarini o'rgandi.

¹ A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961. 5-bet.

² A.Hayitmetov. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1996. 68-bet.

³ A.Hayitmetov. Tabarruk izlar izidan. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. 32-bet.

⁴ O'sha asar. 4-bet.

⁵ Nazarov B. Mumtoz she'riyatimiz poetikasining ulkan tadqiqotchisi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 3-son. 28–29-betlar.

⁶ A.Hayitmetov. Navoiy dahosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1970. 144-bet.

⁷ O'sha asar. 168-bet.

⁸ A.Hayitmetov. "Xamsa"ning yaratilish jarayoni // Navoiyxonlik suhbatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. 171-bet.

⁹ Ko'rsatilgan maqola. 193-bet.

¹⁰ Ko'rsatilgan maqola. 194-bet.

Alijon SAFAROV,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

QIZIL ASKARLAR GAZETASI NEGA O'ZBEKCHADAN SABOQ BERGAN?

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining nodir nashrlar va qo'llanmalar bo'limida saqlanayotgan "Красная звезда" gazetasining 1923-yildagi to'plamini ko'zdan kechirib, qiziq bir faktga duch keldik. Rus tilida chop etilgan mazkur nashrda qizil askarlarga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus rukn ochilgan ekan.

Xo'sh, qizil askarlar gazetasida bunday saboq nega tashkil etildi? Tadqiqotimiz davomida mazkur savolga javob topishga harakat qildik.

Turkfront siyosiy boshqarmasi organi bo'lgan "Красная звезда" gazetasida Toshkentda 1921-yildan boshlab chop etilgan. Ma'lumki, Turkfront Ishchidehqon Qizil armiyasining operativ-strategik qo'shinlari hisoblanib, bosmachilikka qarshi kurash maqsadida 1919-yilda tashkil topgan.¹

Gazeta sho'rolar davrida O'zbekistonda harbiy sohaga ixtisoslashgan ilk nashrlardan hisoblangan. Ayrim sonlari 4 sahifa, ba'zi sonlari 2 sahifa hajmida chiqqan.

"Красная звезда" gazetasining 1923-yil 18-oktabr sonida "Будем узбекский язык изучать" ruknida

18-mashg'ulot berilgan. Unda o'zbekcha oy nomlari hamda vaqt me'yorlari haqida gazetxonlar bilan quyidagicha saboq olib boriladi.²

“Названия месяцев”

Далю (aslida “dalv” bo'lishi kerak, – A.S³) – yanvar.

Хут (“hut” yozilishi kerak, rus alifbosida “h” harfi bo'lmagani uchun shunday yozilgan bo'lsa kerak) – fevral.

Хамал (bunda ham “h” harfi bilan bog'liq muammo) – mart.

Саур (“savr” so'zi o'zgartirilgan) – aprel.

Джауза (“javzo” deb yozilishi kerak edi) – may.

Саратан (saraton) – iyun.

Асад – iyul.

Сумбия (sumbula) – sentabr.

Мизан (mezon) – oktabr.

Араб (“aqrab” matnda “q” harfi tushib qolgan) – noyabr.

Каус (qovus) – noyabr.

Джадди (jaddiy) – dekabr.

Часы

Вир саат (“bir soat” bo'lishi kerak edi) – один час.

Вир дакика (“bir daqiqa” bo'lishi kerak edi) – одна минута.

Вир саат, беш дакика (bir soat, besh daqiqa) – один час, пять минут.

Вир саат, ун дакика (bir soat, o'n daqiqa) – один час, десять минут.

Вир yarim saат (bir yarim soat) – один час, тридцать минут (полтора часа).

Mashg'ulot nihoyasida quyidagicha topshiriq berilgan:

Составьте фразы со следующими словосочетаниями: один час, пятнадцать минут, тридцать пять минут; два часа, три часа, одиннадцать часов; двенадцать часов.

Gazetadagi 28-mashg'ulotda quyidagi o'zbekcha-ruscha so'zlar lug'ati chop etilgan:

ukumak (o'qimoq) – читать

kurmak (ko'rmoq) – видеть

karamak (qaramoq) – смотреть

kilmak (qilmoq) – делать

kulmak (kulmoq) – смеяться

Saboq oxirida o'zbek tili grammatikasi bo'yicha tushuncha berilgan.

O'rganishlar davomida har bir mashg'ulotda muayyan mavzuga bag'ishlangan o'zbekcha so'zlar va ularning ruscha tarjimasi berib borilgani aniqlandi. E'tiborlisi, o'zbek tilini o'rganish bo'yicha saboqlarda kundalik muloqotda zarur bo'ladigan muhim so'z va iboralarga e'tibor qaratiladi.

Garchi “Будем узбекский язык изучать” rukni ostida o'tilgan saboqdagi o'zbekcha so'zlar ayrim holatlarda imloviy xatolar bilan yozilgan bo'lsa-da, har bir



mashg'ulot professional darajada tashkil etilgani diqqatni tortdi. Ya'ni mashg'ulotda faqat so'zlarning tarjimasi emas, qizil askarlarga topshiriq va uslubiy tavsiyalar ham berilgan.

Demak, gazetadagi saboqlarni mutaxassis olib borgan bo'lishi mumkin, degan fikr paydo bo'ladi. Biroq mashg'ulot matni ostiga mutaxassis imzosi qo'yilmagani uchun bunga oydinlik kiritish imkoni bo'lmadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: hukmron sovet mafkurasi-ga xizmat qilish, qizil askarlarni sho'ro hokimiyatini mustahkamlash borasidagi ishlarga safarbar etish, mamlakatdagi milliy ozodlik harakatini bostirish, millatni qullik sirtmog'iga tortish kabi maqsadlarni ko'zlagan “qizil” gazeta nega mahalliy xalq tilini o'rganishni targ'ib qilgan?

Bunga javob gazeta sahifalarida berilgan ayrim materiallarni o'qiganimizdan so'ng oydinlashdi.

Xabar va maqolalarda keltirilishicha, qizil askarlar, ularning qo'mondonlari mahalliy xalq orasida sho'ro hukumatining “xalqparvar” siyosati, bosmachilikka qarshi kurash kampaniyasi mohiyati va boshqa dolzarb masalalarni uchrashuvlar, mitinglarda targ'ib qilishga ham e'tibor bergan. Targ'ibot ishlarida tarjimonlar xizmatidan foydalanilgan. Biroq muloqot samaradorligiga erishish uchun mahalliy aholi tilida ayrim so'zlar, iboralarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblangan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sho'rolar hukumati gazetada o'zbek tilini o'rgatish uchun “Будем узбекский язык изучать” ruknini tashkil etishdan muloqot samaradorligini ta'minlash, mahalliy aholi ishonchini qozonishdek mafkuraviy maqsadni ko'zlagan. Demak, qizil askarlarning Toshkentda chop etilgan “Красная звезда” gazetasi muhim ijtimoiy institut sifatida mafkuraviy qurol vazifasini ham bajargan.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

² “Красная звезда”, 1923 yil 18-oktabr. 22-son. 3-bet.

³ Qavs ichidagi keying izohlar ham muallifga tegishli.

Jamoliddin YOQUBOV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri

“MASNAVIY”NING MA’NAVIY MAXZANI

Shunday asarlar borki, ularning yaratilganiga necha ming yillar bo'lgan bo'lsa-da, hozirgacha o'qilib, sharhlanib kelinmoqda. Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari shunday asarlardan biri hisoblanadi. “Asar” hajm va mazmun jihatidan keng qamrovga ega. Unda hayotiy va badiiy to'qimaga ega hikoyalar ko'p bo'lib, ularning har biri alohida-alohida ma'no kasb etadi. Barcha hikoyalar umumiy xulosa, yaxlit fikr va yakuniy mazmunni anglatsa-da, ularni ayri-ayri holda o'qish ham kitobxonga zavq bag'ishlaydi. Ma'lumki, ahli tasavvuf, asosan, zohirga emas, botiniga qarab xulosa qiladi. Ba'zi doiralarda tasavvuf ahlining, ahli maoniy – ma'no ahli deyilishi ham bejiz emas. O'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi uchun bu holatni sur'at va siyrat deb nomlash ham mumkin. Asar bejizga “Masnaviyi ma’naviy” deb nomlanmagan. Darhaqiqat, “Masnaviy” o'zida ulkan ma'nolar javohirini to'plagan. Mavlono Rumiyni kitobda quyidagi so'zlarni aytadi:

*Boqma sen sur'atga kim ul Masnaviy,
Boq o'sha siyratga kim ul Ma'naviy.*

Sakkiz asrdan buyon “Masnaviy”ga ming-minglab sharhlar yozildi, asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilindi. Turkiya, Eron, Afg'oniston kabi davlatlarda hozirgacha masnaviyxonlik darslari o'tiladi. O'zbek kitobxonlari ham bu asarni o'z ona tillarida o'qish baxtiga muyassar bo'ldilar. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol kitobni nazmiy tarjima qildi. Shoir Asqar Mahkam asarning ikki jildini forsiydan nazmiy tarjima qilish bilan birga turkiyalik Shorih Odiddin poshshoning Masnaviyga qilgan sharhini o'zbek tilida nashr ettirdi. Turk masnaviyshunoslari orasida “Masnaviy”ni tarjima qilish emas, balki uni sharhlash kerak, degan ma'zmondagi qarashlar mavjud. Biz bu fikrga qo'shimcha o'laroq, “Masnaviy”ni mavlono Jaloliddin Rumiyning o'zlarini sharhlab bergan, degan bo'lar edik. Mavlono o'z fikrlarini turli hikoyat va rivoyatlar bilan asoslashi ma'lum ma'noda asarning sharhiga xizmat qilgan.

Biz quyida mavlono Rumiyning sur'at va siyrat borasidagi qarashlarini baholiqdrat tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

Botin ahli biz yashab turgan olam haqida fikr yuritar ekan, mazkur olamni ikki qismga ajratadi: olami sug'ro – kichik olam, olami kubro – katta olam. Kichik olam – biz istiqomat qiluvchi Yer sayyorasi, u tamomila moddiyatdan tashkil topgan va uning asosini qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan narsalar tashkil etadi.

Inson jism va ruhdan iborat. Tanasi uning moddiy qismi bo'lsa, undagi ruh uning ma'naviy qobig'idir. Mazkur ma'naviy qobiq olami kubro, ya'ni katta olam deyiladi. Insonning ruhi moddiy olamdan ustun. Faqat buni ko'ra bilish va anglay olish uchun insonning qalb ko'zi ochiq bo'lishi kerak.

*Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil,
Ko'z bo'lurmu haqni ko'rmas bo'lsa ul.*

Demak, asl ko'rar ko'z ikki qorachiqdan iborat bo'lgan ko'z emas, ko'ngil ko'zi ekan.

Inson jismi uning sur'atini tashkil etsa, ruhiy olami inson siyratini ifodalaydi. Inson jismoniy tarbiyaga muhtoj bo'lganidek, ruhiy tarbiyaga ham umrining oxirigacha muhtojdir. Inson axloqini sayqallashga intilmasa, siyrati sur'atidan ortda qolaveradi. Qalb go'zal bo'lishi uchun tinimsiz ilm olish, olim-u fozillar suhbatida bo'lish, o'qigan va eshitganlariga muntazam amal qilish shartdir. Payg'ambarimizdan rivoyat qilingan hadisda ul kishi: “Alloh qiyomatda hech kimning ko'rinishi va mol dunyosiga qarab hukm chiqarmaydi, balki U sizlarning amallaringiz va qalblaringizga qarab hukm chiqaradi”, – deyilgan. Bundan ko'rinadiki, Haq taoloning huzurida ham siyrat sur'atdan ustun turadi. Imom G'azzoliy o'zining “Ihyoyu ulumiddin” asarida “Insonning yaratilishi xalq so'zi bilan ifodalansa, uning odobi xulq so'zi bilan ifodalanadi. Odam bolasining xalqi ham, xulqi ham go'zal bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. “Masnaviy”ning yetakchi g'oyasi yuqoridagi hadisning mazmuni va Imom G'azzoliyning qarashlaridan kelib chiqqan. Muallif asarning juda ko'p joyida “sen shaklga emas, ma'noga e'tibor ber” deb ta'kidlaydi. Bu fikrni “Podshohning ikki quli” hikoyasida ham o'qish mumkin.

Bir podshohning ikki quli bo'lib, ularning biri qora, beso'naqay va ko'rimsiz, ikkinchisi esa oq, tashqi ko'rinishi boshqalar havas qiladigan darajada ekan. Kunlardan bir kun podshoh qora qulni chaqirib uni sinash maqsadida: “Men sening xizmatlaringdan roziman, biroq do'sting sen haqingda turli gaplarni gapirdi. U seni o'g'ri, kazzob va g'iybatchi, deb yuradi. Buning ustiga og'zingdan badbo'y hid kelar emish. Bunga nima deysan?” – deydi.

Qul tavoze bilan:

– Podshohim, menda u aytgandan ham ko'proq ayblar mavjud. Do'stim do'stlik qilib ba'zi qusurlarimni yashiribdi, – debdi.

Podshoh bundan lol qolib go'zal ko'rinishli quliga ham xuddi shu gaplarni takrorlabdi. Podshoh so'zini tugatmasdanoq qul o'zini oqlashga tushibdi va qora qulning nomini yana yomonga chiqaribdi. Podshoh unga: "Do'stingning yuzi qora bo'lsa, sening qalbing qora, agar uning og'zidan noxush hid kelsa, sening nafasingdan noxush hid ufuradi," – deydi.

Bundan ko'rinadiki, insonning tashqi go'zalligi qalbi bilan muvofiq kelmas ekan, uni hech kim yaxshilik bilan eslamaydi.

*Gar bi surat odame inson budi,
Ahmad, Abu Jahl hama yak son budi.*

Ma'nosi: Agar odam sur'atdangina iborat bo'lsa, Ahmad va Abu Jahl bir xil bo'lib qolar edi.

Demak, sur'at va siyrat uyg'unligi insonni komillik cho'qqisi sari yetaklaydi. Mavlonodan ta'sirlanib, bu fikrni keyinchalik ko'plab ijodkorlar davom ettirishdi. Jumladan: Yunus Emro turk tilida quyidagi baytni keltiradi:

*Bu inson deganlari qo'l, oyoq ham bosh emas,
Inson ma'naviy erur sur'at ila qosh emas.*

Masnaviyda yuqoridagi kabi baytlar juda ko'p. Ular ruhiy olamimizni yuksaltiruvchi ma'naviyat maxzanidir.

Nilufar RAXMATOVA,

Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi
126-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARIDA YASHIL RANG TALQINI

Azal-azaldan ranglar Sharq poeziyasida muhim o'rin egallab kelgan. Oshiq, ma'shuqa, raqib holati va hatto, ko'ngil kechinmalari tasviri ham ranglar orqali ifodalangan.

Navoiy ijodini yetti rang jilosini o'zida mujassam etgan kamalakka o'xshatish mumkin. Uning so'z boyligi shu darajada kengki, ba'zida birgina rangni o'nlab ma'nodosh so'zlar orqali ifodalay olgan. Masalan: adham, zangiy, shabgun, mushkfom, siyoh, obnus, savod kabi so'zlar bilan qora rangni; bayzo, kofur, safid, ab-yaz kabi so'zlarda oq rangni; oynagun, sabzaliq, axzar, savsaniy, zangor, minu kabi so'zlar orqali esa yashil rangni ifoda etadi. Yashillik odatda tiriklik, yoshlik, bahor, visol, hayot, uyg'onish, harakat va ezgulik kabi bir qator tushunchalar ramzidir.

Har bir rang ma'lum xalq va elatning tom ma'nodagi ramzi sanaladi. Bu rang bilan xalqning tarixi, urf-odatlar va diniy qarashlari bog'langan bo'ladi. Yashil rang tarixi ham ancha uzun va mifologik qarashlar bilan bog'liq. "...qutblarni ranglash masalasiga kelsak, qora rang shimolning, oq – g'arbning, qizil – janubning, yashil rang sharqning ramzi degan ma'lumot o'tgan asrning 30–40-yillaridayoq fanda ma'lum bir xrestomatik ma'lumotga aylangan"¹.

Navoiyning "Xamsa"sini o'qir ekanmiz, bir necha o'rinlarda "yashil tug"² haqida so'z borganligining guvohi bo'lamiz. Yashil tug ham, o'z navbatida, ma'lum tarixga ega. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqulov ma'lumotiga ko'ra payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning oq, qora, yashil rangdagi uchta bayroqlari bo'lib, ularning yashili Usmon ibn Affonga, oqi Sa'd ibn Abbodan Ansoriyga, Makka fathidan keyin hazrat Aliga, qorasi esa Abbosga berilgan. Hijriy 200-yildan boshlab, Ma'mun Imom Ali

Roziyni o'ziga xalifa etib tayinlagach, Abbos o'g'illari qabul qilgan qora rangni butunlay ta'qiqlab, alaviylar, ya'ni Ali avlodining rangi sifatida yashil rangni qabul qilgan.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning ham yashil rangli tug'lari bor edi.

Endi "Xamsa"dagi yashil tug ishtirok etgan ayrim baytlar tahliliga qaytsak:

*Bular kiymagi barcha axzar bo'lub,
Alarg'a yashil shuqqa zavar bo'lub² -*

(Bularning, ya'ni Doro askarlarining kiyimi yashil bo'lib, tug'ining uchiga bog'langan bir parcha yashil mato bayrog'iga zeb edi) deyilsa, boshqa bir o'rinda:

*Shuqqai shingarfi o'lub samigun,
Shoh libosi bori zangorfun,*

(Bayroq uchidagi qizil mato yerga tushib, shohlar zangor rang bayroq ko'tardilar deyiladi.) ya'ni daraxt gullarining to'kilib, barg yozishiga ishora tarzida chiroyli o'xshatish yasalgan, deydi.

Ma'lumki, "Xizr" "axzar" so'zlari arabcha bir ildizdan olingan bo'lib, "yashil" ma'nosini bildiradi. "Arablarda yashil rang ilohiy rang hisoblanadi. Shuning uchun badiiy ijodda Xizr to'ni va sallasi yashil (oq ot mingan, qo'lida uzun nayza) mo'ysafid qiyofasida gavdalanadi"³. "Xamsa"da ham Xizr va yashillik, tiriklik (obi hayvon) hamda uning homiyligida bajarilgan ishlar bilan bog'liq ko'plab bayt va misralar uchraydi. Masalan: "Yo'llarida Xizr bir axzar giyoh", "Xizr payambar qo'yubon otini", "Dema to'ti degil Xizr – payg'ambar" va h.k.

“Xamsa”da yashil rang tasviri ikki xil ma’noda qo’llangan:

- 1) yashil o’z ma’nosida, ya’ni maysa, sabzarang;
- 2) ko’k, ya’ni zangori (osmon va suv ma’nosida).

Bundan tashqari yashil rang qatnashgan baytlar tahlilini ham ikki jihatdan farqlashimiz mumkin:

- 1) yashil rangga o’xshatishlar, qiyoslar;
- 2) yashil rangni ifodalovchi vositalar.

Masalan, Navoiy bir o’rinda:

*Billur-u yashm yuz ming bul ajib zarf,
Ki har birga hiroji mulk o’lub sarf, –*

(Billur va yashil tusli toshning bir-biridan ajoyib yuz ming xili bo’lib, har birida bitta mamlakatning xiroji mujassam edi), deya yashil rangni o’z ma’nosida qo’llasa, boshqa bir o’rinda:

*Bo’lub may shirasidin otash angez
Berib ul o’qqa taskin qursi kashnez, –*

(May shirasidan badani qizib ketganlar o’z o’tlarining taftini bosish uchun kashnichli kulchalar yerdilar) deydi. Bu yerda kashnich (kenza – xushbo’y hidli ko’kat) yashillik ma’nosidagi vosita tarzida qo’llangan. Qolaversa, yashil rang qizillik bilan qarshilantirilgan. Professor Boqijon To’xliyev o’zining “Qutadg’u biligida rang ramziga doir” nomli maqolasida bu ikki rangning

qarshilantirilganligi haqida juda ko’p ilmiy ma’lumotlarni keltirgan.

“Xamsa”dagi ranglar talqini haqida so’z yuritar ekanmiz, “Sab’ai sayyor” dostoniga alohida to’xtalib o’tish shart. Bu dostonning uchinchi kuni, ya’ni dushanba kuni-dagi voqealarning sarlavhasi quyidagicha ifodalangan: “Dushanba kuni Bahromning navbahor monand axzar libos bila gumbazi axzorga yuz qo’yg’oni...” Bu yerda endi hamma narsa yashil rangda ifodalangan. Yashil qasr, yashil libos, shahrisabzlik sayyor (Shahrisabz – yashil shahar) va hokazo. Bu iqlim homiysi yashil rang tarqatuvchi Oydir. Dushanba kuni ham uning nomi bilan bog’liq. “Qadimgi bobilliklar o’zlarining zikkuratlari, ya’ni ibodatxonalarini yetti zinapoya shaklida qurib, ularning devorlarini ham yetti rangga bo’yaganlar. Yevropa kalendaridagi hozirgacha saqlanib qolgan hafta kunlarining yetti sayyora bilan bog’liqligi haqidagi tushunchalar Bobil astrologlarining ta’limotiga borib taqaladi. Masalan, shanba inglizchada “sati(r)dey”, ya’ni Saturn kuni; Yakshanba “sandey”, ya’ni Quyosh kuni; Dushanba “mondey” Oy kuni deb ataladi⁴.

Umuman olganda, yashil rang sufiy ta’limotida ulug’ ranglardan biri hisoblanadi. Diniy ta’limotlarimizga ko’ra ham yashil rang – shahidlik ramzidir!

Sharq xalqlarining tasavvurlarida bu rang hayot ramzi, u samoviy mavjudotlar bilan bog’lanadi. Yashil rang, shuningdek, o’tmish bilan kelajak timsoli vazifasini ham bajargan.

¹ O’zbek tili va adabiyoti jurnali // 2001-yil 3-son, 20-bet.

² A.Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyoti, 1991, 686-bet.

³ I.Haqqulov. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. 78-bet.

⁴ Saidbek Hasanov. Navoiyning yetti tuhfası. 1991-yil. 3-bet.

Sayyora XALDARCHAYEVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
tarix va tillar fakulteti Fakultetlararo chet tillar
kafedrası o’qituvchisi

INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDA BOG’LOVCHI FE’LLARNING KATEGORIAL SEMANTIKASI

Hozirgi kunda chet tillarni o’rganish va o’rgatishga katta e’tibor qaratilayotgan bir paytda tilshunoslik sohasida olib borilayotgan ishlar ham o’z ahamiyati va salohiyati bilan ajralib turadi. Ma’lumki, til jamiyatining, mamlakatning qay darajada rivojlanganligini ko’rsatuvchi omildir. Til orqali xalq dunyoga taniladi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida mustahkam o’z o’rniga ega bo’lishida qaysidir ma’noda tilning ham ahamiyati beqiyosdir. Mamlakatimizda so’nggi yillarda fan va ta’lim sohasiga alohida e’tibor qaratilishi tad-

qiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas’uliyatli vazifalarni qo’yimoqda.

Ingliz tilini yanada yaxshiroq o’rgatish va o’rganish uchun bir qancha metodlar va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ingliz tili grammatikasi muammolari, jumladan, undagi fe’l masalasi ko’pchilik grammatiklar tomonidan har tomonlama ishlab chiqilgan. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, inglizcha fe’llarga xos grammatik kategoriyalar hamon tadqiqotchilar e’tiborida bo’lib kelmoqda. U bir qancha tilshunos olimlar, jumladan, V.D.Arakin,

E.Benvenist, V.G.Gak, B.A.Ilish, T.Milevskiy, F.de Sossyur, N.Chomsky kabi tilshunoslarning olib borgan ishlarida tadqiq qilingan. Ingliz va o'zbek tillarida bog'lovchi fe'llar va ularning kategorial semantikasini solishtirish va ularni qiyoslash tillarni o'rganish uchun muhim hisoblanadi. Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, harakat, holat, jarayonni ifodalaydi va zamon, aspekt, mayl, nisbat, perfekt, modallik va boshqa shu kabi kategoriyalarga ega so'z turkumidir. Har ikkala tilda ham bog'lovchi fe'llar mavjud. Ingliz tilida bog'lovchi fe'llar *linking verbs* yoki *copular verbs* deb ataladi. O'zbek tilida esa bog'lovchi fe'llar aynan bog'lovchi fe'llar deb atalmaydi. Ya'ni o'zbek tilida bog'lovchi funksiyani fe'l shakllaridan ravishdosh, bog'lama fe'l vazifasini o'tovchi ba'zi bir fe'llar va to'liqsiz fe'llarda kuzatish mumkin.

Ingliz tilidagi bog'lovchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari

Ingliz tilida bog'lovchi fe'llar fe'lning kichik sinfini tashkil etib, ular o'zlaridan keyin komplement to'ldiruvchini talab qiladi. Bog'lovchi fe'llar egani o'zi ifodalayotgan frazaga, ya'ni aniqroq aytadigan bo'lsak, komplementga (to'ldiruvchiga) bog'laydi. Ko'pgina olimlar ot va olmoshlarning aynan bog'lovchi fe'llar yordamida bog'lanishini e'tirof etganlar. Ammo shu narsaga e'tibor berish kerakki, olmosh yoki otlar aynan bir xil kelishikda bo'lishi shart. Masalan: *It is I* yoki *It is me*. Bog'lovchi fe'llar (ba'zi olimlar bu fe'llarni kopulativ yoki yordamchi fe'llar ham deb atagan) o'timsiz fe'llarning maxsus sinfini tashkil etadi. Odatda bu fe'llar o'zgaruvchan substantivni boshqasi bilan tenglashtiradi, aniqlashtiradi yoki birlashtiradi. U gapda egani to'ldiruvchi, kesim bilan bog'laydi. Boshqa o'timsiz fe'llar kabi bog'lovchi fe'llar qatnashgan gaplarda ham doimo vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etadi. Ingliz tilida bunday fe'llarga "is" yoki "become" fe'llarining har qanday shaklini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Masalan: "The words which I have spoken into your spirit are alive."

Bu gapda shunga e'tibor berish kerakki, "words", "spirit" va "life" otlari "are" yordamchi fe'li orqali tenglashtirilyapti. Boshqacha qilib aytganda, "words" so'zi "spirit" va "life" so'zlariga to'g'ri mutanosibdir. Ingliz tilida kopulativ fe'llar juda oz miqdorni tashkil etadi, lekin ularning ba'zilari juda muhim bo'lib, tilda juda ko'p qo'llaniladi. Bog'lovchi fe'llar gapda ega va komplementni bir-biriga mustahkam bog'laydi. Bu munosabatni "bog'lash" yoki "tenglashtirish" sifatida talqin qilganimizda ham uning to'liq ta'rifini keltirmagan bo'lamiz. Biz bu munosabatni to'liq ifoda etadigan birorta so'z topa olmagan bo'lsakda, lekin ba'zi tilshunoslar buni "intensiv aloqa" deya ta'riflaydi. Balki buni misollarda ko'rsatish osonroqdir. Masalan:

1. *George Bush is the president of the USA.*
2. *Ice feels cold.*
3. *Caesar became an Emperor.*
4. *He seems nice.*

Bu misollardagi fe'llar o'timli fe'llarga yaqin, ya'ni birinchi va uchinchi gaplardagi fe'llarning vositali to'ldiruvchi otlari har xil. U yerda hech qanday harakat mavjud emas. Ikkinchi va to'rtinchi gaplarda esa to'ldiruvchi (cold, nice) o'tli fraza bo'lib kelmayapti. Bog'lovchi fe'llarda ikkinchi qism vositali to'ldiruvchi deb ataladi. Ammo ingliz tilida fe'llarning kesishish kategoriyalari mavjud. Masalan:

1. *I think, therefore I am.*
2. *I am cool.*

Birinchi gapdagi "am" o'timli fe'l, ikkinchi gapdagi "am" esa bog'lovchi fe'l bo'lib, u "am" ikki xil ma'noda ishlatilyapti. Semantikasiga ko'ra bog'lovchi fe'llar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) substantiv bog'lovchi fe'llar: *be, resemble, earn, lack, be fall, weight, cost, suit, last, amount;*
- b) "have" turidagi fe'llar;
- d) "bo'lmoq, paydo bo'lmoq"qa doir bog'lovchi fe'llar: *become, remain, get, turn, go, grow;*
- e) faraz yoki ko'rishga doir fe'llar: *seem, look, appear, feel, sound, taste, smell.*

Bog'lovchi fe'llar sintaktik xususiyatiga ko'ra, mustaqil, yordamchi, bog'lovchi, modal fe'l vazifasida kelishi mumkin. Agar fe'l leksik ma'nosini yo'qotib, bog'lovchi fe'l vazifasida kelsa, bu jarayon grammatizatsiya (grammatiklashuv) jarayoni deyiladi. Grammatiklashuv tufayli bog'lovchi fe'lning ma'nosi umumlashib, mavhumlashib ketadi va predikativ vazifasida kelgan so'z kesimning asosiy leksik ma'nosini anglatadi. Ingliz tilida bunday fe'llar sirasiga *to be, to have, feel, get, go* kabi fe'llar. *To be* fe'li bog'lovchi fe'l vazifasida kelgan predikativning grammatik kategoriyalariga bo'lgan aloqasini ko'rsatib keladi, ya'ni zamon, mayl, shaxs, son *to be* yordamida berilishi mumkin. Bu vazifada kelgan *to be* fe'li quyidagi so'z turkumlari bilan birikishi mumkin:

To be + adjective (sifat). Masalan:
No-no Waston, I will not admit that it is possible.

To be + noun (ot). Masalan:
Was not that person the actual criminal.

To be + pronoun (olmosh). Masalan:
"Who are they?" asked Hurstwood.

To be + adverb (ravish). Masalan:
It was long ago.

To be + numeral (son). Masalan:
He had left when he was fifteen.

To be + participle II (sifatdosh II). Masalan:
Yes, I was surprised to hear that she had it in her hand when she died.

To be + participle I (sifatdosh I). Masalan:
The moment was soothing to his sore spirit.

To be + gerund (gerundiy). Masalan:
My favourite sport is swimming

To be + infinitive (harakat nomi). Masalan:
The best thing he could do was to get out of here.

To be fe'li infinitiv shaklidagi fe'l bilan birikib modallikni bildiradi. Asosiy fe'l vazifasidagi fe'l to be yor-

damida avval rejalashtirilganlik, qat'iy man qilinganlik, buyurganlik, majburiylikni anglatadi.

O'zbekcha bo'glovchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbek tilida ham, ingliz tilidagidek, bog'lovchi fe'llar mavjud, lekin o'zbek tilida bunday fe'llar aynan bog'lovchi fe'llar deb atalmaydi. Ya'ni o'zbek tilida bog'lovchi vazifasini fe'l shakllaridan ravishdosh, fe'l vazifasini o'tovchi ba'zi bir fe'llar, to'liqsiz fe'llarda kuzatishimiz mumkin. Bunday fe'llarning asosiy vazifalaridan biri – ergash gapni bosh gapga bog'lash. Bog'lama fe'l bo'lmagan so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l hisoblanadi. Masalan:

Aziz shifokor bo'ldi.

Aziz shifokor bo'lyapti.

Aziz shifokor bo'lmoqchi.

Gaplarda "bo'l" yordamchisi "shifokor" so'zi bilan qo'llanilib, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarining ifodalanishi uchun xizmat qilyapti. Bog'lama vazifasini bajaruvchi birlik o'z leksik ma'nosini qisman saqlashi yoki faqat bog'lama vazifasini bajarishi mumkin. Shunga ko'ra bog'lamaning 2 turi farqlanadi:

1) sof bog'lama;

2) yarim bog'lama.

Leksik ma'nosini yo'qotgan, sof grammatik funktsiya bajaruvchi bog'lama sof bog'lama deyiladi. Ularga *edi*, *ekan*, *emish* kabi to'liqsiz fe'llar kiradi. Leksik ma'nosini tamomila yo'qotmagan, ma'lum darajada saqlagan bog'lama yarim bog'lama deyiladi. Masalan: *hisoblana-di*, *deyiladi*, *bo'l* so'zlari leksik ma'nolarini ma'lum darajada saqlagan holda bog'lama funktsiyasida qo'llana oladi. Masalan:

Dissertatsiyani yoqladi, fan nomzodi bo'ldi.

Bu yigit fabrikamizning ilg'or ishchilaridan hisoblana-di.

Fe'l shakllaridan ravishdosh gapda bog'lovchi fe'l vazifasida keladi va, shu bilan birga, fe'lning qandaydir shakli o'rnida qo'llaniladi. Masalan: *Keksa usta Kuznetsov o'z shogirdlaridan faxrlanib, u ham yaxshi tilaklar bilan bir-ikki so'z aytdi-da, Omonovga o'rin berdi* (lboxon). Misoldagi "faxrlanib" shakli o'rnida "faxrlandi-da" shaklini va "aytdi-da" shakli o'rnida "aytib" shaklini qo'llash mumkin. Demak, "faxrlanib" shaklidagi *-ib* ravishdosh yasovchisi, *-di* affiksi bilan *-da* bog'lovchisi xos vazifada qo'llanilyapti. To'liqsiz fe'l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomlariga birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi.



Shuningdek, boshqa so'z turkumlari bilan kelib, bog'lama vazifasini bajaradi.

"Edi" to'liqsiz fe'li boshqa so'z turkumlari bilan kelsa, tuslovchi, affiks olib, ot kesimning bog'lama vazifasida keladi. Masalan: *Xaritonov ashulani ham, gapni ham qoyil qilar, umuman, juda yoqimtoy yigit edi.*

"Ekan" shakli sifatdosh bilan birga voqea-hodisaning keyin ma'lum bo'lganligi, holat, payt, sabab ma'nolarini ifodalaydi va bog'lama fe'l vazifasida keladi. Masalan: *O'ylab qarasa, Erto'yev unga qattiq gapiradigan holatda emas, tili qisiq ekan.*

"Emish" shakli bog'lama vazifasida kelganda eshitganlik, gumon, noaniqlik ma'nolarini bildiradi. Masalan: *Shu yerda bir muddat dam olishimiz kerak, boradigan qishlog'imiz hali ancha olis emish.*

Bundan tashqari "demoq" fe'lidan "deb" ravishdoshi yasalganda, "deb" ravishdoshi bog'lovchi vazifasida kelib, ergash gaplarning ba'zilarini, ya'ni shart, maqsad, sabab ergash gaplarini bosh gapga bog'laydi. J.B.Bo'ronov o'zbek tilida ham bog'lovchi fe'llar bor, deb takidlaydi va ularga *bo'lmoq*, *ko'rinmoq*, *o'xshamoq*, *tu-yulmoq* va boshqa fe'llarni kiritadi.

O'zbek tilida *-moq* to'liqsiz fe'li bo'lib, uning *edi ekan*, *emish*, *emas*, *esa* kabi shakllari mavjud. Bu fe'l mustaqil ravishda qo'llanilmaydi; harakat ma'nosiga ega emas. U turli ma'nolarni ifodalaydi va turli grammatik vazifalarda qo'llaniladi. Bu fe'l otlar bilan ham, fe'llar bilan ham qo'llaniladi.

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillari bog'lovchi fe'llari ikki tilda ham umumiy va o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, gapning ma'nosiga qarab ularni o'z o'rnida ishlatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli luga'ti. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
2. J. Bo'ronov. Ingliz va o'zbek tillar qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. 180-bet.
3. G. Abdurahmonov, Sh. Shoabdurahmonov, A. Hojijev. O'zbek tili grammatikasi. Tom I. Morfologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 1975. 516-bet.
4. A.G'ulomov, M.Asqarov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
5. M.G'apparov. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon – iqbol, 2006.


Abdunazar JO'RAYEV,

 Toshkent tibbiyot akademiyasi Tillar kafedrasida katta o'qituvchisi,
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

BO'LAJAK GID-TARJIMONLARNING LINGVO-PROFESSIONAL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

